


**HALIMA YO'LDOSHEVA**



**ERKIN VOHIDOV  
SHE'RIYATIDA  
MILLIY RUH IFODASI**


83.3(53'zb)  
YD-74

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

HALIMA YO'L DOSHEVA

ERKIN VOHIDOV  
SHE'RIYATIDA  
MILLIY RUH IFODASI

(Monografiya)



Фарғона-2023

**UDK 821.512.133-3**

**KBK 84(50')b**

**HALIMA YO'LDOSHEVA / Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruh ifodasi / Monografiya / "Classik" nashriyoti-2023 / 110 bet.**

Ushbu monografiyada Erkin Vohidov she'riyati milliy ruh ifodasining poetik mazmun, shakl va obrazda namoyon bo'lish qonuniyatlar nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan.

Monografiya adabiyotshunoslik mutaxassisligi doktorant va magistrantlariga, bakalavriat bosqichi talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Ushbu risolani adabiyot ixlosmandi, aziz otajonim Muxiddin Turdimatov xotiralariga bag'ishlayman.

**Mas'ul muharrir:**

**Nurboy Jabborov  
filologiya fanlari doktori, professor**

**Taqrizchilar:  
Yo'ldoshxo'ja Solijonov  
filologiya fanlari doktori, professor**

**Gulruk Xudoyorova  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Kengashining 2023-yil 6- noyabr dagi 3-sonli majlis bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

**ISBN: 978-9943-273-83-2**

## KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida doimiy e'tiborda bo'lgan masalalardan biri badiiy adabiyotda, ayniqsa, uning faol turi bo'lgan she'riyatda milliy ruhning aks etishi masalasiidir. Chunki adabiyot millat va uning taqdiridan, umumbashariy ahamiyatga molik fikr va g'oyalar ifodasidan chetda bo'la olmaydi. Lirikada milliy ruh masalasi ijodkor qalb prizmasidan o'tgan holda namoyon bo'lgani bois ayni masalani muallif fenomeni bilan uzviy bog'liq holda tekshirish masalaning tub mohiyatiga yetish imkonini beradi. Natijada ijodkor laboratoriyasining o'ziga xos jihatlari oydinlasha boradi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu mavzuning nechog'liq dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida milliy ruh badiiy mazmun, shakl va obraz vositasida namoyon bo'lishi qonuniyatlariga alohida diqqat qaratilayotgani kuzatiladi. Bundan milliy ruhning o'ziga xos ifodasi ijod psixologiyasi, ijodkor dunyoqarashi va individual tafakkuri bilan ham chambarchas bog'liq ekani ma'lum bo'ladi. Ushbu hodisalarning o'zaro aloqadorligi omillarini aniqlash, shu jihatdan, ilmiy zarurat taqozosidir.

O'zbek adabiyotshunosligida milliy ruhning millat axloqi, tabiatи va dunyoqarashi bilan uzviy aloqadorlikda namoyon bo'lishi, badiiy asarning estetik mohiyatini tashkil etishi yuzasidan muayyan ishlар amalga oshirilgan va izchil izlanishlar olib borilmoqda. Lekin ushbu ilmiy muammoni milliy adabiy-estetik tafakkurning ma'lum bir bosqichida yorqin iz qoldirgan ulug' ijodkorlar asarlari misolida konseptual asosda yoritish hanuz adabiyotshunoslikning kun tartibida turibdi. Globallashuv shiddati hamda yot g'oyalar xuruji kuchayib borayotgan bugungi kunda Erkin Vohidovday butun ijodiy faoliyatini ona Vatani va xalqining yorug' istiqboli, har tomonlama taraqqiy etishi yo'liga safarbar etgan shoир she'riyatida milliy ruh ifodasi masalasini tekshirish har qachongidan ham muhimdir. Chunki "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor –bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor" ekanini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"<sup>1</sup>.

Ushbu ilmiy muammoni Erkin Vohidovning poetik mazmun va shakl sohasidagi ijodiy kashfiyotlari, milliy ruhni badiiy obraz vositasida tasvirlash mahorati, poetik uslubni yangilash borasidagi izlanishlari kesimida baholash adabiyotshunoslikni yangi ilmiy qarashlar, konseptual fikrlar bilan boyitishiga ko'ra dolzarbdir. Shu boisdan ham hozirda mazkur mavzu keng aspckida o'rganilishi zarur. Bu zaruriyat masalaning ham ilmiy, ham ijtimoiy, ham ma'naviy-madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Jahon adabiyotshunosligida milliy xarakter va etika masalalari

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Адабиёт я ва санъат, Маданиятин ривожлантириш – халқимиз мазнавий юксалишишинг мустаҳкам пойсоворидир /Халқ сўзи. 2017. 4 авг.

S.L.Xuako, Ye.A.Pevak, F.S.Fazilova va O.A.Ivanova<sup>2</sup> tadqiqotlarida o'rganilgan. O'zbek adabiyotshunosligida Fitrat, Cho'lpon, Oybek va Izzat Sulton xarakter masalasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan. A.Rahimov, U.Normatov, N.Karimov, B.Nazarov, B.Sarimsoqov, N.V.Vladimirova, M.Hoshimova, Y.Solijonov, N.Jabborov, D.Quronov, B.Karimov, A.Sabirdinov, G.Muhammadjonova kabi olimlar ishlarida mavzuga oid ilmiy qarashlar aks etgan<sup>3</sup>.

Adabiyotshunoslikda Erkin Vohidov ijodi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar yaratilgan. Shoir asarlari Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Ibrohim G'afurov, Abdug'afur Rasulov, Rahmatilla Inog'mov, Azim Rahimov, Yo'ldosh Solijonov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Muhammadjon Imomnazarov, Nurboy Jabborov, Ulug'bek Hamdam, turk olimi Veli Savash Yelok<sup>4</sup> tomonidan turli aspektlarda o'rganilgan. Shoir ijodi bo'yicha bir qancha dissertatsiyalar himoya qilingan<sup>5</sup>. O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, I.G'afurov,

<sup>2</sup> Хуако С.Л. Нравственно-этическая проблематика и художественные искания цыгейской прозы 60-70-х и во второй половине XX века. Автореферат. Дисс. канд. филол. наук. – Майкоп: 1996. – С. 19; Певак Е.А. Нравственность и эстетика творческой свободы, нравственный тоталитаризм, современная русская литература. – Ломоносов, Москва: 2021.-С.108-114, Русская литература первой половины XX века: (Горбачев М., Бунин И., Блох А., Есенин С., Михаэльский В., Ахматова А., Пастернак Б.). –Москва: УМЦ ДО: 2004.-С. 21; Фаталова Ф.С. Нравственно-этические проблемы в башкирской поэзии 70-80-х годов XX века. Автореф.дисс...кандидата филологических наук: –Уфа: 2013.-С.21; Иванова О.А. Чертты национального характера в образе главного героя романа Э.Ажара, «Вся жизнь впереди». Чита: 2006.

<sup>3</sup> Фитрат. Сайланма. – Т.: Маннвилл, 2006; Чулпон. Сайланма. Тўрт жидлик. I-жидд. – Т.: Академшир, 2016; Султон И. Адабиёт назариёси. – Т.: Ўқитувчи, 1980; Отбек Мухаммад асарлари тўплами. 19 томлик. 14-том. – Т.: Фан, 1974; Норматов У. Ижодкорининг ҳароратли сўзи. – Т.: Turoq zamin ziyo, 2015; Саримсоков Б. Бадинийлик асарлари ва мезонлари. – Т., 2006; Назаров Б. Ҳаётнийлик – базавол мезон. – Т.: Ьаш гвардия, 1985; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек нацида бадиний нутк поетики: фил. фан. док. дисс. – Т., 2002; Ҳоимимова М. Кўй авжиди узимнисин тир (Эркин Вохидовга ҳәётни ва ижодига чигитлар). – Т.: Фан, 2006; Солижонов Й. Ҳаққиатнинг сингчков кўзлари. Т.: Ўзбекистон Миллий китубхонаси, 2009; Жабборов Н. Замон, меъон, шеърият. –Т.: Гафур Фулом номидаги НМИУ, 2015; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т.: Фан, 2007; Каримов Б. Абдулағаполий. танкини, таҳлили ва талқини. –Т.: Фан, 2006; Сабирдинов А.Ф. Ойбекининг поэтик маҳорати: фил. фан. лог дисс. – Т., 2007.

<sup>4</sup> Шарифиддинов О. Довонлаги Ўйлар. – Т.: Шарк, 2004; Таланг ва маъсулнот. /Сўз сехри (Эркин Вохидов ҳәётни ва юқидига чигитлар). – Т.: УзМС давлат имзий нашриёти, 2006. Норматов У. Ҳаққиатнинг кўчиги шеърият. – Т.: Маннвилл, 2016; Раузов А. Шеър колур, шоир колур. /Бадинийлик – базавол янгилик. – Т.: Шарк, 2007; Инюғомов Р. Шоир бўлиш осон эмас. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1996; Раҳимов А. Миллий адабиётлар равишни. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1981; Йўлдошев К. Беором юрак зарблари. / Сўз ёлшини. – Т.: Гафур Фулом номидаги НМИУ, 2018; Имомназаров М. Шоир сўзининг латофати ва қадри. – Т.: Мумтоз сўз, 2016; Жабборов Н. Миллий руҳнинг бетакор инфодаси. /Эркин Вохидов ижодининг маънаний ҳаётимиздаги ўрти ва яхимияти/ мавзудаги Республика илмий айнномани материяллари. – Т., 2017; Ҳамидов У. Янги ўзбек шеърияти. – Т.: Адаб, 2012; Вели Сиямат Пелок, Гўзалхон Муҳаммаджонови. Шеърият шукухи. – Фарғона, 2020. Раҳимжонов Н. Бедорлик саодати. /Инсон ўзининг. – Т.: Ўзбекистон, 2022. Гафуров И. Биз Эркин Вохидов ижодини нега севамиз. /Инсон ўзининг. – Т.: Ўзбекистон, 2022. Гафуров И. Доинишманд шоир. /Инсон ўзининг. – Т.: Ўзбекистон, 2022. Гафуров И. Юлдуз шуълиси. Т.: Ўзбекистон, 2022; Солижонов Й. "Кимда иктидор йўқлир...". /Инсон ўзининг. – Т.: Ўзбекистон, - 2022. Каримов Н. Эркин Вохидов ва Абдулла Орипповнинг Берлингидати ижодий кечаси. /Инсон ўзининг. – Т.: Ўзбекистон, 2022; Солижонов Й. Мўміпов С. Эркин ўзинингмат. – Батони.. – Фарғона, 2016.

<sup>5</sup> Кепдиёрёва Г.С. Ўзбек бадиний пүтқиши антитера (Э.Вохидов шеъриятини мисолида): фил. фан. номз.... дисс.. – Т., 2000. Максумова С. Эркин Вохидов асарларида коннотативликнинг иғодаланиши: фил. фан. номз.... дисс.. – Т., 2012. Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талқин этиш таъмиyиллари ва маҳорат муаммолари: фил. фан. дисс... автореф. – Тошкент, 1996. Ҳужумбердиева Ш.К. Ташним босқичлариди Эркин Вохидов ижоди ва

Y.Solijonov ilmiy risolalarida badiiy asarning asosiy g'oyasini yorituvchi vositalardan biri tarzida qahramon va u orqali jamiyat tasvirini ishonarli aks ettiruvchi badiiy shakl holida har bir xalq milliy mentalitetidan kelib chiqib o'rganilgan. Xususan, adabiyotshunos G.Imomova tadqiqotida badiiy nutqning milliy xarakter yaratishdagi ahamiyati, G.Sattorovaning dissertatsiyasida esa 90-yillar o'zbek hikoyachiligidagi milliy xarakter, Sh.Doniyorovaning doktorlik ishida o'zbek romanlarida milliy ruh masalasi tadqiq qtilgan. G.Muhammadjonova shoir fenomeni, shaxsi va asarlari badiiyatini tahlilga tortgan bo'lsa, turk olimi Veli Savash Yelok, asosan, Erkin Vohidov she'riyatining leksik jihatiga, ijtimoiy va siyosiy voqelikka munosabatini bildirishda zid ma'nolilikka, so'zlar chastotasiga tadqiqot obyekti sifatida qaraydi.

Milliy xarakter tadqiqiga bag'ishlangan yuqoridagi ilmiy ishlarda masalaga turli jihatlardan yondashilgan. Ularda milliy xarakter yaratishning rang-barang usullari o'rganilgan. Biroq N.Jabborovning "Milliy ruhning betakror ifodasi" sarlavhani maqolasini istisno qilganda, milliy ruh ifodasi jihatdan Erkin Vohidov she'riyati alohida monografik tarzda tadqiq etilmagan. Shunga ko'ra, Erkin Vohidov asarlari milliy ruh ifodasining poetik mazmun, shakl va obrazda namoyon bo'lish qonuniyatlari hamda milliy ruh talqinida poetik uslubning o'rmini ilmiynazarij jihatdan tahlil etish adabiyotshunoslik uchun muhim xulosalarni beradi. Monografiya ana shu ilmiy muammo tadqiqiga bag'ishlangani bilan shu paytgacha bajarilgan ilmiy ishlardan farq qiladi.

---

х'ятини ўқитиш усуллари: : фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2019. Даъватова А. Миллий уйғопиш даври ўзбек адабиётидаги эстетик идеал муаммоси: фил. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2002; Ҳамдамова С.Х. Фольклор шаржанлари ва бадний талкни: таъсир ҳамда акс таъсир масалалари (XVIII-XIX аср шеръирият миссололари): фил. фан. номз... дисс. – Т., 2012; Аврамов Б. Проблема поэтического образа в современной узбекской лирике (60-е-80-е годы): автореферат дисс... доц. филол. наук. – Т., 1991; Ахмедов Ҳ. Ўзбек адабиётинида насррий шеръ. филол.фак.номз.. дисс. – Т., 1995; Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеръириятда поэтика мазмун ва шакллар ишланиши: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Т., 2018; Қайомов А. Хотигри ўзбек насррида миллий характер ва бадний маҳорат: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Т., 2018; Имомова Г. Тилик миллий характерлар яратишда бадний куткнинг роли: фил. фан. номз... дисс.... – Т., 1993; Сатторова Г. 90-йиллар хикоячиликнинг миллий характер муаммоси: фил. фан. номз... дисс. – Т., 2002; Доинирова Ш. Истиклол даври романларинда киппий рух ва қаҳрамон муаммоси: фил.фак. д-ри... дисс. – Т., 2018. Абдулхакимова О.Н. Абдулла Орипов адабий-эстетик карашлари: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2022. Тўлаков И. Хотигри ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон тилларни: фил. фан. д-ри... дисс. – Т., 1994. Хотикова Д. Хотигри ўзбек шеръириятда фольклор шаржанлари ва бадний маҳорат: фил. фан. номз... дисс. – Т., 2011. Ўсарова Л.И. Абдулла Орипов шеръириятда миллий рух ифодаси: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Т., 2020. Касимов Я. Ўзбек шеръириятда поэтик фикрингин янгишланиш жараёни: фил.фак.номз...дисс.-Т.,1993; Курбонбоев И.А. 90-йиллар ўзбек шеръириятда образзашлик:фил.фак.номз...дисс. - Т., 2005. Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеръирияті бадний тафаккур таърижининг юкимоний-психологик ҳусусиятлари: фил.фак.доц... дисс. - Т., 2018.

# I BOB. POETIK MAZMUN VA SHAKLNING MILLIY RUH TALQINIDAGI O'RNI

## 1.1. Poetik mazmun va milliy ruh ifodasi munosabati

Adabiyot, garchi umumbashariy g'oyalarning poetik talqiniga xizmat qilsa ham, zamirida milliy ruh ifoda etiladi. Qaysi janrda, qay adabiy shaklda bo'lmasin, mohiyat e'tibori bilan millatning asl tabiatini, orzulari-yu armonlarini aks ettiradi. O'zbek adabiyotining yirik vakili, Erkin Vohidovning do'sti va zamondoshi bo'l mish Abdulla Oripov milliylik masalasini adabiyotning eng muhim mezonlaridan deb hisoblaydi: "Mayli, buyuklarga intilish bo'lsin, jahonning, bashariyatning eng ilg'or fikrlariga oshnolik bo'lsin, G'arb, Yevropa, Amerika deysizmi, mayli, Lotin Amerikasi, mayli, Oymi, Marsmi... darajasida fikrlashsin, lekin o'zbek fikrlasin, o'zbekcha fikrlasin! Agar shu "kichkinagina" shart bajarilsa, qolganiga, albatta, erishamiz"<sup>6</sup>. Shoир nazarda tutgan o'zbekcha fikrlash ayni mazmunning milliyligini ta'minlovchi eng muhim omildir. Bu jihatdan Erkin Vohidov she'riyati ilmiy tadqiqotlar uchun boy material beradi, keyingi davr o'zbek badiiy-estetik tafakkuri rivojida alohida o'rinn tutadi.

Badiiy asarning asosini unda ifodalangan sifr – poetik mazmun tashkil etadi. Zero, badiiyatning ta'sir kuchi mazmunning nechog'liq muhim va o'lmas g'oyani qamrab olgani bilan izohlanadi. Yuksak san'at namunasi bo'lishi talab etiladigan she'riyatda ma'noning tutgan o'rniiga buyuk mutafakkir Alisher Navoiy mana bunday baho bergen edi:

Nazniki ma'ni anga marg'ub emas,  
Ahli maoniy qoshida xo'b emas.  
Nazmki ham surat erur xush anga,  
Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga.

Ya'ni, yaxshi mazmunga ega bo'limgan she'r fasohat egalari – ahli maoniya ma'qul kelmaydi. Haqiqiy she'r go'zal badiiy shaklga ega bo'lishi barobarida, teran ma'noga tayanmog'i zarur. Ma'no esa, o'z navbatida, milliy ruhni ifodalashi kerak. Adabiyotda umuminsoniy g'oyalari aks etishi qanchalik muhim bo'lsa, milliy ruhning she'r qoniga singib ketishi shu qadar muhimdir, aks holda u qanotsiz qushga o'xshab

<sup>6</sup> Орипов Абдулла. Катта хақиқатлар тантанаси. /Ташланган асорлар. Бешинчи жилд. – Ташкент. Адолат. 2005. -Б.178

<sup>7</sup> Навоий. Хайрат-үн аброр. – Т.: Адабиёт ва сийёзат, 1989. - Б.21.

qoladi. Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov badiiy asarda milliy ruh qaysi tamoyillar asosida ifodalanishi masalasiga diqqat qaratar ewan, mana bunday yozadi: “..ularni quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) millat ruhini mujassam etgan o‘ziga xos urf-udumlar, an'analar, qadriyatlar, millatning orzulari, armonlari talqini; 2) millatning o‘z-o‘ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasi; 3) milliy shaxsiyatlarga xos sobit e’tiqodning poetik suvratlanishi. Birinchisi – millatning axloqi, ikkinchisi – irodasi, uchinchisi – e’tiqodini tajassum etadi va bu uchlik yaxlit holda milliy ruhni tashkil qiladi”<sup>8</sup>. Garchi bu ilmiy qarash “O‘tkan kunlar” romani tahlili munosabati bilan aytilgan bo’lsa-da, zamonaviy she’riyatni tadqiq etishda ham unga tayanish mumkin. O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov she’riyati, ayniqsa, bu mavzu tadqiqi uchun boy material bera oladi.

Darhaqiqat, poetik mazmunga singdirilgan milliy ruh ifodasi – milliy adabiyotning asosi. Shoир to’plamlarini varaqlaganda, turli shakl va turli mavzularda bitilgan she’rlarda O‘ZBEK nomining mangulik sahifalariga muhrlanganini kuzatish mumkin. Tilimizning, millatimizning fidoyi jonkuyarlaridan bo‘lgan Omonulla Madaev mana bunday yozadi: “Erkin Vohidov ijodi she’riyat muxlisi uchun favqulodda yangilik xazinasi hisoblanadi. Xususan, barg ostidan iboli g‘unchaning muloyim boqishi, gullar oshiq bulbulning she’r daftari ekani, quyosh etagiga oq bulut bog’lab, o‘rik shoxlarida bodroq qovurishi, yana shu quyoshning o‘zi majnuntolning yuvilgan sochlarini tarashi, qo‘yingki, “inson o‘lmas va asta-asta boqiylikka o‘tadi, xolos”ligi faqat tug‘ma dilbar shoир kashfiyoti bo‘lishi mumkin. Muhimi, bu yangiliklarni aynan o‘zbekning sinchkov ko‘zi ko‘rgani. Chunki shoirimiz butun vujudi, butun borlig‘i bilan, his-tuyg‘ulari bilan o‘zbekning farzandi edi”<sup>9</sup>.

Haqiqatan, shoир butun borlig‘i bilan o‘zbekning, O‘zbekistonning farzandi. She’rlaridan birida samoga uchish taklif qilinsa, o‘zi bilan butun VATANini olib uchishini, uning tog‘lari-yu bog‘lari, bir kaft tuprog‘isiz, kuy-navosisiz, Hosizning munojoti-yu Navoiy va Fuzuliy she’rlarisiz uchmoqqa rozi emasligini ona yurtga muhabbati sifatida izhor etadi.

Shoир asarlarining tahlili Erkin Vohidovning chinakam vatanparvar, millatparvar shoир bo‘lganidan dalolat beradi. Ijodkor yuksak ideallarni ko‘zlab yashadi, bu yo‘lda buyuk Alisher Navoiyni

<sup>8</sup>Жабборов Н. “Ўткан кунлор”да миллий рух ифодаси. //Филология масалалари, 2020, 2-сон - Б.35

<sup>9</sup>Мадаев О. Инсонни уйғоттани шоир.//“Маъриғат”, 2016, №97. Б. 11.

o'ziga ustoz deb bildi. Ulug' mutafakkir san'atxonasidan milliy ruh ifodasi borasida munosib saboqlar oldi. Asarlarida Vatan va millatning yorug' istiqboli haqidagi orzularini betakror badiiyat bilan ifodaladi. Taraqqiyotga to'siq bo'luvchi illatlardan kuyindi, ko'ngil iztiroblarini yolqinli satrlarda talqin etdi. Shu jihatdan Vohidov she'riyatida milliylik masalasini quyidagicha tasniflagan holda tahlil etish maqsadga muvofiqdir:

**1. Urf-odat, an'ana va qadriyatlar vositasida milliylikning ifodalanishi.** Milliy ruhni ifodalashda millatning asl tabiatini o'zida aks ettirgan ko'p asrlik urf-odat, an'ana va qadriyatlar alohida o'rin tutadi. "Odatda lirik turga oid asarlarda voqeа emas, balki shoirning o'yfikrlari, lirik qahramonning xis kechinmalari ifodalanadi"<sup>10</sup> va ular birgalikda poetik mazmunni yuzaga chiqaradi. Badiiy asarning yashovchanlik xususiyati unda ifodalangan poetik mazmunga chambarchas bog'liq hodisa bo'lib, milliy ruh mazmun bilan uyg'unlashib bir butunlikni tashkil etishi milliy xarakterda namoyon bo'ladi. Bu hodisani adabiyotshunos Ummat To'ychiev ham alohida ta'kidlaydi: "Milliy o'ziga xoslik milliy tematika, milliy xarakter va uni shakllantirish vositalarini o'z ichiga oladi"<sup>11</sup>.

Adabiyotning asosiy sharti bo'lgan badiiy obraz va timsollar Erkin Vohidov ijodida chinakam milliy ruh va shaklda namoyon bo'ladi. Zero, "Badiiy obrazdan ayri holda adabiyot ham, uning eng faol shakli sanalgan she'riyat ham mavjud bo'la olmaydi. Zero, obraz – badiiy adabiyotning mavjudlik sharti, obrazli tafakkur esa, ijod jarayonining asosiy omilidir. Milliy ruh ifodasida badiiy obrazning tutgan o'rni, ayniqsa, alohida"<sup>12</sup>. Shoир o'zbek adabiyotida yaratgan xalqchil nazmi va milliy obrazlari bilan muxlislar qalbidan joy oldi. "Kuzatish" she'rida ijodkor o'z asarlariga go'yo farzandiga nasihat qilayotgan ota obrazida namoyon bo'ladi, ularni "yolg'ondan yiroq, ziynatga ko'mmay, samimiyatga oshno" qilganini badiiy mukammlar satrlarda ifodalaydi va milliy tarbiyaning betakror qirralarini mazmunga o'ziga xos tarzda singdirib yuboradi . Asarlariga murojaat qilib, tarjimon qo'liga tushganda mana bu shartlarni unutmaslikni uqtiradi:

<sup>10</sup> Солигонов Й. "Кимда иктидор йўқлар". Инсон ўтиниг. -Т.: Ўзбекистон. 2022.Б.170

<sup>11</sup> Тўйчиев У. Ўзбек адабиётидаги бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. -Т.: Янгишраводи. 2011. -Б.450

<sup>12</sup> Тўйчиев У. Ўзбек адабиётидаги бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. -Т.: Янги аср авлоди. 2011. -Б. 453.

Ne istasa yo'q demang aslo,  
Faqt o'zni unutmang, ammo  
Mening she'rim bo'lib qolingiz.  
O'zga ruhga berilib ketmang,  
Maskov borib kerilib ketmang.

Ushbu satrlar shoirning ijodiy tutumini ifodalagani bilan ham qimmatlidir. Asarlariga o'zga tillarga tarjima etilganda ham “o'zni unutmaslik”, muallifning “o'z she'ri bo'lib qolish”, bundan ham muhimi, “o'zga ruhga berilib ketmaslik” talablarini qo'yishi shoirning yuksak mezonlarga tayangani isbotidir. E'tibor berilsa, ijodkor har bir satr, har bir so'z zamirida olam-olam ma'noni ifodalaydi. Asosiy talab milliy ruhni saqlash bo'lgani, ayniqsa, diqqatga sazovordir. She'rdagi “Maskov borib kerilib ketmang” degan satr shoirning maslagagini aks ettirishdan tashqari, ijodiy jasorat natijasi ekani jihatidan ham ahamiyatlidir. Aslida, o'sha zamonda she'rлari tarjima bo'lib Moskvada nashr etilishi har qanday shoir yoki adib uchun iftixor manbayi hisoblangan. Erkin Vohidov esa har qanday sharoitda milliy ruhni asrash talabini qo'yadi.

Shoir asarlarini boshqa tilga o'girmoqni maqsad qilgan tarjimondan quyidagi shartlarga amal qilishini so'raydi:

Soddaligin ayb etib kulmang,  
Ko'p ichida xijolat qilmang.  
O'z fe'liga xosligi qolsin,  
O'z eliga mosligi qolsin.

Hazrat Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida turkning “tezfahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq... bu hol turklarning sidq-u safo va tuz niyatidin”, shuningdek, sodda el ekanini alohida ta'kidlagani<sup>13</sup> ma'lum. Oradan besh asrdan ziyodroq vaqt o'tib, Erkin Vohidov o'z she'rлarida millatning ana shu fazilatlari aks etganini ta'kidlamoqda. Asarlari tarjimonidan odamzodga xos soddalikning ustidan kulish, uni xijolat qilish illatlaridan saqlanishni tavsiya etayotir. “O'z fe'liga xosligi qolsin, O'z eliga mosligi qolsin”, deya tarjimada she'rлaridagi milliy ruhni saqlash talabini qo'ymoqda. Shoirning “yo'qolmasin sharqona odob, to'nli, yaktakli, do'ppi, telpakli” bo'lmasa ham, faqat bo'lsin o'zbek yurakli”, degan shartlari aynan millat ruhiyati bilan bog'liq ekani jihatidan qimmatlidir.

<sup>13</sup> Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луг'атайн. – Муқоммал асарлар тўплами. Ўнтирима жиҳозлите. Ўзбек тилинчи жиҳоз. Тошкент: Фан, 2000. Б. 8

Shuning uchun ham shoir lirik asarlaridagi millatning tabiatini, urfu-dumulariga doir qarashlari o'quvchi qalbida aks-sado beradi. Xalqimiz asrlar davomida qadrlagan tuyg'ular toptalgan zamonda "*or-nonusga timsol bo'lgan Sharq*" haqida yozishi sababi shunda. Yolg'iz qolgan kezlarida Fuzuliyidan bosh ko'tara olmagan Kumushbibilarni, Ra'nooyimlarni qo'msashi boisini shuning bilan izohlash mumkin. Shoir asl tabiatidan yiroq tushayotgan millati uchun astoydil kuyinadi. Ko'nglidan kechgan iztiroblarni she'rga solar ekan, "*O'tmish! Seni sog'inib ketdim!*" deya millatning ibratli kechmishini, yuksak axloqi bilan dunyoga o'mak bo'lgan davrlarini eslaydi. Ma'naviy ildizlardan uzoqlashuv nechog'liq musibat ekanini hayotiy misollar orqali achchiq kinoya vositasida badiiy talqin etadi:

Uzun ko'ylik tasqara bo'ldi,  
Odob, hayo masxara bo'ldi.  
Qizlar taqdi kindikka uzuk,  
Ko'rguncha ko'r bo'lganing tuzuk.

Ko'rinish turganidek, shoir G'arbga ko'r-ko'rona taqlidni qoralaydi. Jamiyatdagi hodisalarni qalb prizmasidan o'tkazgan holda ularga munosabat bildiradi. Zero, chinakam ijodkorni, uning uyg'oq qalbini yon atrofidagi voqeliklar bezovta qilmasligi mumkin emas. Shu bois ularga munosabat bildiradi va boshqalarni ayni shu muammolarga ochiq nigh bilan qarashga undaydi. Zero, "Shoir zoti o'zi ishongan histuyg'ularni yozsa, boshqalar ham ishonadi. Har qanday badiiy asar zamirida – garchand ijodkorning yozganları ijtimoiylashgandek taassurot qoldirsa ham, uning ortida odam, ulkan bir qalb egasi – muallif turadi"<sup>14</sup>.

Shoir jamiyatdagi illatlarni tanqid qilishda davom etadi va bu orqali bunday holatlarga millatning munosabatini ko'rsatadi, millatning shaxsiyatini ko'rsatib beradi:

Ayl sonin olib yayradi,  
Er qizarib yerga qaradi.  
Or-nonusga timsol bo'lgan Sharq  
Uyati yo'q G'arbdan qilmas farq.  
Buni ko'rib og'rinish ketdim,  
O'tmish!  
Seni sog'inib ketdim.

<sup>14</sup>Каримов Б. Адибий фикр жавҳари. /То кунг сочнайки нур. -Т.:Ўзбекистон. 2016. - Б.143

Shoir o'z ijodiy niyatini ifodalashda 4+5 turoqli shakldan foydalangan. Odatda, barmoq vaznidagi ushbu turoq shaklida qofiya *aaba* tarzida bo'ladi. Ijodkor fikrni tezroq va ta'sirchanroq yetkazish uchun masnaviy janriga xos *aabb* tarzidagi qofiyani qo'llagan. "O'tmish" so'zi shoir ijodiy niyatiga urg'u berish maqsadida atay alohida satrga olingan. Natijada poctik mazmun va shakl o'zaro uyg'unlashib, badiiyatning mukammallashuviga xizmat qilgan. Matndagi "Ko'rguncha ko'r bo'lish" – chinakam o'zbekcha ibora. Milliy axloqqa zid holatlarga keskin tanqidiy munosabatni ifodalashda bu iboraning tanlangani beziz emas. U muallif qarashlarining ta'sir kuchini, fikrning quvvatini oshirgan. "Or-nomusga timsol" va "uyati yo'q" sifatlashlar o'rtasidagi tazod millatning o'tmishdagi yuksak maqomi va bu maqomning boy berilayotganidan taassuf tuyg'usini obrazli aks ettirgan. Ushbu she'r tahliliga oid fikrlar O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning mana bu so'zлari ayni haqiqat ekani isbotidir: "Erkin Vohidov she'riyatida adabiy mavzular xazinasiga aniq zamон va makon kaliti orqali kirib boriladi. Xalqimiz keyingi davrlar mobaynida bosib o'tgan va o'tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh tug'yonli, goh iftixonli yo'llarning manzara va ohanglari, sadolari Erkin Vohidov she'riyatida to'la mujassamdir"<sup>15</sup>.

Sharq she'riyatida vaqt bebaho ne'mat sifatida qadrlanadi. Inson hayoti – lahzalar yig'indisi, umr – orzu va armonlar majmui. Ana shu bebaho ne'mat ikki eshik oralig'i yanglig' o'ta qisqa fursatni o'z ichiga oladi. Shuning uchun har bir lahzani qadrlamoq, uni to'g'ri tasarruf etish shart. Shoir "Hayot yo'li" sarlavhali she'rida ana shu hayot falsafasini misralar qatiga yashiringan Inson obrazi vositasida mana bunday talqin etadi:

Zamon tez, fursat oz, ,  
Har lahma ziqdир.  
Har lahma ziqligi bilan qiziqdir.  
Hayot yo'li nima? Qabr toshida  
Ikki sana aro qisqa chiziqdir.

She'rda insonning hayot yo'li ikki eshik oralig'idan-da qisqa va u qabr toshidagi "ikki sana aro qisqa chiziqdir", deya o'quvchini ogohlikka da'vat etadi. Shoirning mahorati shundaki, odamzod umr yo'lini hatto uzun chiziq ham emas, qisqa chiziq deya ta'riflaydi. Vaqtini qadrlash, umrning har bir lahzasini g'animat bilish, ehtimol, butun

<sup>15</sup>Орипов А. Сўз сархи. – Т.: Ўзбекистон Миллий энсиклопедияси давлат илмий шашриёти, 2006. – Б.11.

bashariyatga xos xususiyat bo‘lmog‘i kerakdir. Lekin mansub bo‘lganimiz millat uchun bu – hayot-mamot masalasi. Inson umriga nisbatan “ikki eshik orasi” iborasining qo‘llanishi, milliy ma‘naviyatimiz quyoshi hazrat Alisher Navoiyning “*Har nafasing holidan ogoh bo‘l, Balki anga hush ila hamroh bo‘l*”, deya ogohlantirishi zamirida ham ayni haqiqat mujassam. Erkin Vohidov – o‘zbekka xos ana shu milliy fazilatni she’rlarining mohiyatiga mahorat bilan joylay olgan ijodkor. Shoир oddiy hayotiy kuzatishlardan ham katta ibrat darsini anglashga chaqiradi va o‘z hayotini misol qilib mana bunday yozadi:

Yigirmada edim o‘tgan kun,  
Bugun esa yigirma birda.  
Yoshim emas, asrimni aytdim,  
Umrim kechar ikki asrda.  
Boshqa yurtda tug‘ilib o‘sdim,  
Umrim kechar boshqa Vatanda .

Ushbu satrlarda ijodkor ikki asr kechmishlariga guvoh bo‘lganini va o‘tmish asr bolaligi, ayni damlari esa butunlay boshqa zamon ekanini talqin etadi. “*Boshqa yurtda tug‘ilib o‘sdim, Umrim kechar boshqa Vatanda*”, deganda shoир o‘zi tavallud topgan va ulg‘aygan yillarda mustamlaka yurtning farzandi bo‘lgani, endi esa boshqa VATAN – ozod va obod, jahon hamjamiyatida o‘zining so‘ziga, o‘rniga ega davlatda umrguzaronlik qilayotganiga urg‘u beradi! Bu – yangi qadamlar, yangi qarashlar maskani bo‘lgan VATAN! Bu– makondan ham kengroq tushuncha, balki mazmun-mohiyati bilan yangilangan ruhiyat olami. Shoир o‘zini ham, sergak o‘quvchini ham odil shoh Anushirvonning quli kabi har tong “*Seni buyuk ishlar kutmoqda*” deb uyg‘onishga undaydi va berilgan imkoniyat – g‘animat umrda qoladigan eng yaxshi yodgor “yaxshi ish, yaxshi so‘z va yaxshi farzand” bo‘lishini ta‘kidlaydi. Bu holat shoirning milliylik tushunchasiga kengroq yondashuvini namoyon etadi va milliylikni asosan milliy obrazlar zamiriga singdirib yuboradi. Zero, “Milliy o‘ziga xoslik makon va zamon bilangina izohlanmaydi, qahramon xarakteri tasviri bu masala markazida turadi, chunki hayot va undagi g‘oyalar inson obrazi orqali ko‘rsatiladi. Xarakter ham ichki, ham tashqi jihatdan milliy bo‘lishi shart”<sup>16</sup>. Bu – aynan millatning asl tabiatini bilan bog‘liq tushunchalar ekani jihatidan ham qadrlidir.

<sup>16</sup> У.Тўйчиев. Ўзбек адабиётинда баланийлик мезонлари ва уларининг маромлари.-Т.:Янгиосраводи.2011.-Б.451

**2. Millatning o‘z-o‘ziga baho berish salohiyati orqali milliylikning ifodalaniishi.** Erkin Vohidov she’riyatida mazmunga milliy ruhni singdirishning o‘ziga xos usullaridan biri – aytilmoxchi bo‘lgan fikrni aks ta’sir usulida berish. O‘zbek millatiga xos mahalla tushunchasi ayrim xalqlar, xususan G‘arb kishisi uchun butunlay tushunarsiz ekani ayon. Shoир “O‘g‘riga nasihat” she’rida jamiyatning ana shu uzviga doir odatlarni birma-bir aytib “noligan” otaxon tilidan “esi butun o‘g‘rilar zinhor-bazinhor” mahallaga yaqin yo‘lamasligini maslahat beradi:

Mahalla ham zamonbop  
Bo‘la qolsa qaniydi...  
Bemazalar hammasi  
Bir-birini taniydi.

Shuning uchun ham har bir uchragan salom beradi – alik olish shart. Alik olgan baloga qoladi: “Yo‘l bo‘lsin”, deb avvalo To‘sib olar yo‘lingni. Yetti pushting so‘roqlab Ezg‘ilaydi qo‘lingni”. Tabiiyki, bu hol el ko‘zini shamg‘alat qilishga odatlangan o‘g‘riga ma’qul emas. Odatda, u hech kim bilan ko‘rishmasligi, biror kishi uni tanimasligi kerak. O‘zbek mahallasida esa buning iloji yo‘q. Mana, o‘zbek xarakteriga xos xususiyatlar:

O‘rlab uyga yetaklar,  
Mehmon qilar osh bilan.  
Bundan urgani yaxshi  
Boshginangga tosh bilan..

Haqiqatan, dunyoda hatto o‘g‘riga ham mehr ko‘rsata oladigan bitta millat bor – O‘zbek! G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi qahramonlarini eslang. O‘zbek o‘z zaminidagi vayron-u obod ustiga barobar nur sochuvchi quyoshga o‘xshaydi. U hammaga mehr ko‘rsata oladi. Bu mehr esa oqibatda o‘g‘rini ana shu humarini hayotiy a‘mol deb bilgani uchun pushaymon qiladi. Mana, Erkin Vohidov she’r davomida o‘zbek xarakterini qanday ifodalaydi:

Kuzatib cho‘ntagingga  
Qand-qurs solib qo‘yadi.  
“Nasiba” deb kuydirib  
Seni tig‘siz so‘yadi.

O‘zbek ruhiyatidagi soslik va poklik qing‘ir niyatli odamni o‘z qilmishidan uyalishga majbur qilishini shoир tiniq suvratlantiradi. O‘g‘rini mehr pichog‘i bilan “tig‘siz so‘yishi”ni mahorat bilan ishonarli

talqin etadi. She'rnning xulosasi ham millat ruhiyatiga xos fazilatlar betakror tasvirlangani bilan qimmatlidir:

Chuqur ehtirom bilan  
Kavushingni to'g'rilar.  
Mahallaga bormaydi  
Esi butun o'g'rilar.

Shoirning "Siyosiy saboq" she'rida ham mahallaga xos o'zbekona manzara: garaj haydovchilariga siyosiy saboq o'tkazilishi munosabati bilan bir kungina piyoda ketishga majbur bo'lgan boshqarma boshlig'i jamoat transportida yurish azoblarini tatif ko'radi. Zo'r-bazo'r mahalla boshidagi choxonaga yetib kelgan boshliq bu yerning jannatmisol oromijonligini ilgariroq payqamaganidan hayratlanadi, "g'iybat ahli"ning "xo'jayin ishdan ketganligi" haqidagi mish-mishlaridan so'ng yangi mijozni band qilishga uringan choxonachi "*Borgan sari ochilib Sayrar Shokirvoy. Tekin qulq topilib, Yayar Shokirvoy...*" Biroq qahramonimiz Bek Bekov ahli choxona faqat shulardan iborat emasligini va nuroni otaxonlarning ko'zlaridagi sokin halovatni, unga hayotiy saboq beradigan bir hikmatni anglaydi: es-hushini tanigan kundan halol, odil bo'lib, yurt ishiga bel bog'ladi va shundan zavq topdi. Biroq "yelvizak" hayot ko'z ochib yumguncha o'tib ketibdi, ertadan to kechgacha "*majlis, saylov, nutq, yakun...*"

Manglayiga qo'l tirar,  
"Pishmagan kalla!  
Tobutingni ko'tarar,  
Axir, mahalla!  
To'y qilsa kim, so'rog'lab –  
Kirganing bormi?  
Azasida bel bog'lab  
Turganining bormi?"

Ana shunday savollar bilan Bek Bekov o'zini-o'zi taftish qila boshlaydi, mahalladan uzoqlashib, odamlarni tanimas darajaga yetganini, "unga yotdir naqadar ahli choxona,...yoshlikdagi do'stlari tarqab ketgani"ni o'ylab ich-ichidan o'kinadi. Bu o'rinda muallif milliy qiyofadan va milliy voqelikdan foydalangan holda umuminsoniy masalaga murojaat qiladi. Milliylik va umumbashariy g'oyani birlashtira oladi va bu holat muallif iste'dodini yana bir karra namoyon etadi. Adabiyotshunos E.Xudoyberdiev adabiyotda milliylik masalasining aks

etishi va uning umumbashariy g'oyalar bilan uyg'unlashuvi xususida quyidagicha fikrlar bildiradi: "Adabiyotda umuminsoniy mazmun har doim bevosita turli xalqlar hayoti manzaralarini gavdalantirish, har xil millatga mansub bo'lgan kishilar xarakterini vujudga keltirish yo'li bilangina ifodalanishi shart emas. Milliy doiradan ajralmagan, lekin butun insoniyat uchun muhim, tushunarli, tanish fikr-tuyg'ularni mujassamlashtirgan asar yoki qahramonlar ham umumbashariy ahamiyatga molik"<sup>17</sup>. Bu o'rinda:

"Yo kulbang boshqa loydan  
Solinganmidi?  
Tuprog'ing boshqa joydan  
Olinganmidi?  
Jon tikib xalq yo'liga  
Timading, biroq –  
Bir odamning ko'ngliga  
Yoqdingmi chiroq?" –

kabi misralarda ayni yuqoridagi fikrlar o'z aksini topadi. Aslida bir insonning qalbiga chiroq yoqishdek muhim ish yo'q. Muallif ayni shu tushunchani butun insoniyatga singdirishga intiladi. Lirik qahramon timsolida zamondoshlariga hayotiy-ma'rifiy saboq beradi:

"Dunyoda eng oliv fan  
Va eng mushkul fan –  
Muhimni nomuhimdan  
Ajratoq ckan..."

Eng muhim dars shu bo'ldiki, "Xalq degani goskomstat Raqami emas, U - qo'shni, xesh, do'st, ulsat, Tirik haminas..." Shoir kitobxonga eng muhim fan, eng qiyin ilm – bu odamiylik ilmi, qo'shnichilik munosabatlariiga amal qilish ilmi ekanini chiroyli hayotiy misol vositasida oddiy va sodda til bilan badiiy yo'sinda ifoda etib bergen va millatning o'z-o'ziga bahosi orqali milliylikni ifoda etgan .

O'zbek adibi O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida mahallaga berilgan ajoyib ta'rif G'arb kishisining tasavvuriga ham sig'masligi mumkin: "Kunlarning birida Amerikada chiqadigan yirik gazetening rahbari bilan hamsuhbat bo'lib qoldik. U o'zbeklar nima uchun mahallani bunchalik hurmat qilishini, nega mahalla to'g'risida maxsus Qonun qabul qilinganini so'radi. Mahalla degani qanday institut ekanini tushuntirib berishimni iltimos qildi.

<sup>17</sup> Xudoiboyberdiyev E. Adabiyotsbuносликка кириш. Т., 2008. 542.

- Men sizga mahallani tushuntirishga ojizman, janob, - dedim rostini aytib. –Uzr-ku, siz uni baribir tushunmaysiz...Hamma gap hayot tarzining qanday shakllanganida...Sizlarda bir qo'shni ikkinchisidan "Kecha uyingizga qanday mehmon keldi?" – deb so'rasa, narigi qo'shni ranjishi mumkin. Birovning uyiga kelgan mehmon bilan birovning nima ishi bor? Bizda birovnikiga mehmon kelsa, yon qo'shnisi, albatta, xabar oladi. Iloji bo'lsa, mchmonni o'zinikiga taklif qilib, oldiga dasturxon yozadi. Buyuk o'zbek olimi Beruniy bundan ming yil avval yaratgan "Hindiston" kitobida: "Biron xalqning u yoki bu udumiga baho berishda bunisi menga yoqadi, unisi esa yoqmaydi, deyishga hech kimning haqqi yo'q, negaki, har bir xalq an'analarini yillar mobaynida shakllangan va o'sha xalqning hayot tarziga aylangan", - deb yozgani bejiz emas"<sup>18</sup>.

Erkin Vohidov ushbu hazilnamo nasihat orqali o'zbek millatining dunyoning boshqa mintaqalarida uchramaydigan tanti kishilar, ularning o'ziga xos fe'l-atvorini mahorat bilan tasvirlagan. Bu jamiyatning mahalla atalmish qozonida har bir voqeа birga muhokama qilinib, birlgilikda yechim topilishini va bu barcha uchun tabiiy hol ekanini o'zbekona mutoyiba orqali san'atkorona ifodalay olgan.

Adabiy asarlarda milliy ruh masalasi millat adabiyotining yashovchanligini ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanib, busiz har qanday ijodkor o'zi mansub bo'lgan xalq ma'naviyatini, o'zligini to'laligicha ifodalay olmaydi. Erkin Vohidov she'riyati boshdan-oyoq "o'zbekcha kiyangan" she'riyatdir: ular qaysi tilda jaranglamasin, o'zi bilan millat ruhini ham olib yuradi. Shoир manzumalarini o'qib-o'rganish insonni ruhan quvvatlantiradi, ildizlari baquvvat millat kishisini tarbiyalaydi, hayotga teran ko'z bilan boqishga undaydi.

**3. Milliy shaxsiyatning poetik suvratlanishi.** Millat ruhini mukammal aks ettirish uchun, avvalo, shoир shaxsida milliy qarashlar yuksak darajada shakllangan bo'lmg'i zarur. Erkin Vohidov shaxs sifatida ham, shoир sifatida ham o'zbekka xos barcha fazilatlarni o'zida mujassam etgan ijodkor. U o'zi chuqur his etgan, ko'ngil ko'zgusidan o'tkazgan tuyg'ularnigina qalamga oladi. Shoир tabiatida hajvg'a moyillik kuchliligi bois aksar asarlarining zuvolasi mutoyiba bilan yo'g'rilgan. Shunday she'rlardan biri

"Boshindadir" ("Kulgi mushoiralari" dan) sarlavhasi bilan g'azal janrida bitilgan bo'lib, hazrat Alisher Navoiyning mashhur "O'n sakiz ming


<sup>18</sup>Хошимов У. Дафтар хөвлинишдаги битиклар. - Т.: Шарқ, 2005. Б. 64.

olam oshubi agar boshindadur..." deb boshlanuvchi g'azaliga tazmin qilingan. Buyuk salafidan farqli ravishda Erkin Vohidov g'azali hajviy ruhda yozilgan. Aruziy she'rlarning, asosan, muhabbat mavzusida yozilishiga ko'nikkun o'quvchiga bu she'riy tizimda kamalak ranglaridek xilma-xil mavzular ifoda etilgan g'azallar insho etdi. Lirik qahramon - Ota o'zi sezmagan holda "boshga chiqarib olgan" o'g'lining o'n sakkiz yoshda ham undan tushishni xayoliga keltirmayotgani tasvirini berar ekan, bu orqali shoir millat taqdirida tarbiyaning tutgan o'rniqa alohida e'tibor qaratadi. Ijodkor bunda kinoyaviy talqin usulidan foydalanadi. "O'g'ilcha"ning "nay misol shim kiyib, sandiqdayin tuqli bilan" yurishi, "hurpayib turgan savatdek sochi", "necha badfe'l bo'lsa, bari ushbu beboshinda" jam ekani sababi shc'rda quyidagicha talqin etiladi:

Yo'q ajab, yoshlikda o'g'lin  
Ota ardoqlab, suyib,  
Erkalab boshiga qo'ydi,  
Ul hamon boshindadir.

Umuman, ushbu she'rda hazil va kinoya vositasida farzandning shu holga tushishida otaning asli o'zi bosh aybdor ekani va dard-u fig'onining tub ildizlari ochib beriladi. Professor Abdug'afur Rasulov ta'biri bilan aytganda, "Erkin Vohidov hazillarida fikr va ifoda, fitrat va qiyofa mutanosibligi bor... Mehr – ko'zda, sehr – so'zda, degan gap bor. Aqli odamlar achchiq gapni ham, jiddiy talabni ham, iydirishni ham, o'ldirishni ham hazil-mutoyiba, ochiqko'ngillik bilan amalgalashiradilar. Aqli, dono fikrning ulovi hazil, kulgu, samimiylilik"<sup>19</sup>. Darhaqiqat, shoir insoniyatni tubsiz jarlikka qulatuvchi ham o'z qo'li bilan yetishtirgan "hosili umri" ekani, hamma zamonlarda ahamiyatini zarracha yo'qotmaydigan abadiy mavzu – tarbiya masalasi insoniyat qarshisida ko'ndalang turishini, "hazrati inson" ekkanini o'rajagi muhaqqaq ekanini navoiyona shaklga singdirib yuboradi.

Erkin Vohidovning 6+5 turoqda bitilgan "Zamona zayli" she'ri *abab* tarzida qofiyalangan. Ushbu poetik shakl va unga mutanosib mazmun vositasida shoir bir paytlar zo'r kitobxon bo'lgan millat farzandlarining bugungi ahvoldidan qattiq izzirob chekadi va ilm-ma'rifat sari intilishga, olim-u fozillar yurtida tug'ilib, butun olamni lol qilgan Buxoriylar, Ibn Sinolar, Xorazmiylar izlарини besuvchi millat bo'lishga undaydi:



<sup>19</sup>Расулов А. Шеър китуби, шоир китуби // Бахтийорлик – бозавол ятишик. – Т.: Шарқ, 2007. – с. 255.

O'g'lim oshno bo'ldi "Boni-Em" bilan,  
Ranjidim, maqomni tinglamaydi, deb.  
Endi xasa bo'lar o'g'lim o'g'lidan,  
Nodon "Boni-Em"ni anglamaydi, deb.

Shoir aymoqchi, "Boni-Em"ni anglash zarurati, chet tillarni bilish ehtiyoji oshib bormoqda. Biroq bu milliy madaniyatimiz durdonalari bo'lgan mumtoz maqomlarni, ularning asosi sanalgan g'azallarni unutish hisobiga bo'lmasligi zarur. Mumtoz maqomlar –inson ruhiyatini poklovchi beqiyos omil. Erkin Vohidov she'riyatida mumtoz adabiyotning ulkan ta'sirini sezamiz. Bu, avvalo, shoirning ulug' ustozlardan olgan saboqlari samarasidir.

Erkin Vohidov bolalik xotiralaridan birida shunday yozadi: "...O'ylasam, ustozlardan omadim kelgan ekan. Yettingchi-sakkizinchisinfdayoq G'ayratiy to'garagiga borib, bu donishmand ustoz saboqlarini eshitdim. U kishi bizni yosh bola demay, Sa'diy, Hofiz, Bedil, Navoiy, Fuzuliy g'azallarini forsiy, turkiy tillarda yoddan o'qib berar va biz ularni anglab yetmasak-da, yuksak she'riyatni his qillardik, bilishga intilardik. Keyinchalik Mirtemir seminari, Abdulla Qahhor suhbatlari bizga dorilfunun bo'ldi. Alixonto'ra Sog'uniy hikmatlarini ul zotning o'z tillaridan eshitish menga nasib qildi"<sup>20</sup>.

Erkin Vohidovning ustozi domla G'ayratiy o'gitlarida mumtoz adabiyotga e'tibor xususida shunday deyiladi: "O'tmishda yaratilgan she'riyatni bilmay, uning qonuniyatlarini o'r ganmay adabiyotga qadam qo'yish kishini sharmanda qilishi mumkin. Bunday "shoir"ning ijod maydonidagi harakati suzishni bilmagan odamning hovuz shaloplatishi kabi kulgilidir"<sup>21</sup>.

Shunday ekan, tomirlarida ulug'lar qoni oqayotgan vorislar ham bobolarga munosib avlod bo'lmog'i shart. Yo'qsa, shoirning Zavqiy g'azaliga o'xshatmasi – "Qo'lingni pardalar qilding..." she'rida aytilganiday:

Mumtoz shoir qaytsa tirilib,  
O'zga baytlar aytib ketardi.  
Qo'lni yuzga pardalar qilib,  
Zamoniga qaytib ketardi.

<sup>20</sup>Расулов А. Шеир копур, шоир копур... /Бадиийлик – бозавол ялгылтиқ. – Ташкент: Шарқ, 2007. – Б.255.

<sup>21</sup> Эркин Вохидов сабоқлари. Сўнбоши. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриети, 2016. Б.145.

Adabiyotshunos olim Akbarali Sabirdinov Erkin Vohidov she'rlari tahlilida yosh avlodning ajdodlar micosiga munosabati borasida shunday deydi: “Tezkor davr o'zgarishlarining yosh avlod dunyoqarashiga ta'siri va ushbu ta'sirning turli avlodlar tafakkurida yuzaga keltirgan ayirmasi – otalar va bolalar muammosini vujudga keltirganligini shoir “Hozirgi yoshlar” (1973) she'rida yengil humor va bezozor ifodalarda yuz yoshlardagi qariya tilidan bayon etadi. Qariya o'tgan asrning 70-yillari yoshlariga nazar tashlar ekan, ular tutumlaridagi yutuq va nuqsonlarni tahlil etib, bobolar mehnatini qadrlashga chaqiradi. Qariyaning tanbehi quyidagi satrlarda yuqori nuqtaga chiqadi:

Yana der:

Bo'sh qolsak tunlar bo'lib jam  
Chordarvesh o'qirdik qurshab tanchani.  
Bular tanimaydi Huvaydoni ham,  
Erta-yu kech o'ylar kino, tansani.  
Aqli kirarmikan bularga bir kun.  
Kim biladi qachon quyila boshlar!  
Og'ir kun ko'rmadi  
Balki shuning-chun

Yengilroq o'sdimi hozirgi yoshlar?<sup>22</sup> –

tarzida she'r bandlari davomida kinolar buzayotgan kapalakmijoz, bordi-keldi odatidan yiroq bemehr, og'ir kun ko'rmay, yengil o'sgan ba'zi yoshlar tanqidi beozor humor vositasidagi ifodalarda aks eta boradi”.<sup>23</sup>

Millatning axloqi, ma'naviy butunligi ajdodlardan meros fazilatlar tufaylidir. Modomiki, hayot davom etayotgan ekan, shoir – nurday pok, ishqday bezavol avlod yetishnog'ini orzu qiladi va “Kamolot” she'rida mukammallikning bosqichlarini shunday ta'riflaydi:

Kamolotning bosqichi bisyor:  
Maktab, litsey, so'ng dorilfunun...  
Yigirma yil jon chekmoq darkor  
O'rgatmoqni o'rganmoq uchun.

<sup>22</sup>Вохидов Э. Сайлшым. Неки жисудлик. Биринчи жыл. Мухаббатнома. –Тошкент: Г.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. Б. 211-212.

<sup>23</sup>Сабирдинов А. Эркин Вохидов шеърларинда даврининг долларб музиммолари талқини. Республика онлайн толмий амалий конференция материяллари. Гулистан, 2020 йил. Б.22.

To'rtlikda aks etgan fikrga ko'ra, kamolot bosqichlari ko'p nuqtalarda davom etadi. Aslida, dorilfunundan so'ng ko'p nuqta qo'yilishi bejiz emas. Chunki kamolot doimiy o'qib-o'rganishda, inson o'zini muttasil ravishda isloh etishidadir. She'r tagmatniga shoir qalbining tub-tubida yotgan badiiy-estetik ideal – o'z millatini dunyoning taraqqiy etgan xalqlari darajasida, kelajak avlodlarni komillik maqomida ko'rish orzusi singdirib yuborilgani uning ma'rifiy qimmatini oshirib yuborgan. Komillik esa xayrli amallarni ko'paytirish bilan yuzaga chiqadigan darajadir. Shoir o'zi aytganidek:

Yaxshi ish, yaxshi so'z va yaxshi farzand –  
Qolari – shu. O'tdi-ketdi qolgani.

Ayni masalaga shoir "Bolalar" she'rida boshqacharoq – mutoyiba usuli bilan yondashmoq istaydi. Abadiy davom etuvchi masala – otalar va bolalar dunyoqarashidagi ziddiyatga bola shaxsi nuqtayi nazaridan qaraydi:

Bizni hadeb tergaysiz nechun,  
O'zingizda yo'qmi bolalik?  
...Biz gohida shokolad uchun  
Yashirmaymiz, bo'lamiz ayyor.  
Axir siz ham shon-shuhrat uchun  
Nimalarga bo'lmaysiz tayyor?

Aslida bolalar tilidan aytigan bu so'zlarda hayotning achchiq haqiqatlari yotadi. Bolalar-ku shokolad uchun ayyorlik qilishini ko'pchilik biladi. Biroq kattalarning qandaydir maqsadlarni ko'zlab qilayotgan xatti-harakatlari ba'zan insonni qo'rqitadi. Shoir ayni shu hayotiy haqiqatni badiiy tarzda ifodalab beradi. Ayni shu o'rinda muallifning hayotiy qarashlari, insoniy prinsiplari namoyon bo'ladi.

Hayot ajdodlar va avlodlar almashinuvni bilan davom etarkan, doimiy o'zgarishda bo'lgan olamda bir kun bizlar ham sizga yetib olamiz, „bolalikka qaytasiz siz ham“ va ana o'shanda:

Oshno bo'lar sizga xayolot,  
Bizga esa...  
Biz – oilalik...

Bu aksiomasifat muammo "bolalik – komillikning o'zidir" degan yechim bilan yakun topadi: "Bolalik – bu asli kamolot, Kamoli umr esa – bolalik".

Tarbiyaning eng muhim bosqichi bo'lgan bolalik haqida shunday fikrلайди shoир. Zero, boladagi haqning haq, nohaqning nohaq cketнини qо'rqmasдан har kimga, har qachon aytа olishга kuch berадиган beg'uborlik,adolattalablik, samimiylik, dil va tilning birligi komillikkа olib boruvchi ko'priknинг ibtidosidir.

O'zbek millati farzand tarbiyasini tug'ilmasdanoq boshlagan millat. Ayniqsa, bola tarbiyasida qiz farzandlar alohida e'tibor talab qiladi. Qizlar yaralishdan nozik xilqat bo'lgani bois ularni chtiyot qilib, hamisha ko'z oldida nazoratda tutish, ularni o'z yo'rig'iga solish, farzand tarbiyasida qattiqko'llikni ba'zan haddan oshirib yuborish millatimiz tabiatiga singib ketgan xususiyatlardan. Shoир o'zbek ayolini olamda hech bir millatning qolipiga tushmaydigan o'zigagina xos uyatchanlik, andisha, ibo kabi fazilatlar timsoli sifatida, millat onasi sifatida ardoqlaydi. Hatto ishq bobida qiz bolaning "guldck yaralgани", ishq iztiroblarini ko'tarolmasligi, qattiq sevib qolishi hayoni-da yo'qotar holatga olib kelishi mumkinligidan ogohlantiradi:

Qiz bolaning poyiga  
Zanjir cket hayosi.  
Qiz sevgisi sim-sim dard,  
Bo'lmas ekan davosi –

kabi ifodalarida millat qizlarining tom ma'nodagi qiyofasini, shaxsiyatini ochib beradi. Abdulla Oripovning "Erkin Vohidov she'riyatida adabiy mavzular xazinasiga aniq zamon va makon kaliti orqali kirib boriladi. Xalqimiz keyingi davrlar mobaynida bosib o'tgan va o'tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh tug'yonli, goh iftixorli yo'llarning manzara va ohanglari, sadolari Erkin Vohidov she'riyatida to'la mujassamdir"<sup>24</sup> degan fikrlaridan kelib chiqadiki, chindan ham Vohidov she'riyatida davrning barcha voqe'liliklari o'z badiiy ifodasini topadi. Jamiyatning eng sharafli kunlari, odatlari qatorida millatning shaxsiyatida mavjud bo'lgan kamchilik va nuqsonlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Millatning yutuqlari bilan faxrlansa, uning kamchiliklaridan qayg'uga tushadi va bu tuyg'ularning har birini o'z ijodiga ko'chiradi. Jumladan, uning

Qiz-u yigit – teng demang,  
Zinhor-zinhor teng emas.  
Qizga olam keng demang,  
Unga olam keng emas...

<sup>24</sup>Орипов А. Сўз сеҳри. Т. Ўзбекистон миллий энсиклопедияси. Б.10

kabi misralarida shoirning jamiyatda ayołning o'rni, unga munosabat haqida tom ma'noda o'zbekona qarashlari ifodalanadi.

Yigit yonsin, qalbini  
Alanga qil, gulxan qil.  
Qizni guldek yaratding,

Ko'nglini ham gulshan qil.

Shoir to'rtlik shaklidagi she'rlarida ham milliy ruhni betakror ifodaladi. U yaratgan obrazlarda xalqona urf-udum, tutum, axloqiy me'yorlar negizida millatning asl tabiatini aks etdi. Mehmondo'stlik qoniga singib ketgan o'zbekning qiziq fe'li bor: farzand qanchalar shirin bo'imasin, eshik qoqib kelgan mehmon izzati uchun saqlagan ne'matlarni bolasidan-da yashirishini shoir yengil kulgi bilan ifodalaydi:

Meva berma bolangga,  
Asra mehmon xolangga.  
Mahkam berkit, yashavor,  
Qoraytirib tashlavor!

Izohga hojat yo'q: axir go'daklikdanoq bolasiga SABR tushunchasini singdirmoqchi bo'lgan o'zbekmiz bizlar! "...tabiatan quvnoq, hazil-mutoyibani xush ko'radigan, boshqalarning hazillaridan zavqlanib, yurakdan kuladigan, o'zi ham ajoyib latifalari, beozor hazillari, kutilmagan topqirligi, o'tkir askiyalari, aql bovar qilmas loflari bilan boshqalarni ham ko'zidan yosh chiqquncha kuldiruvchi xushchaqchaq odam, ...kulgiga moyilligi ko'pchilik asarlarda aniq szilib turadi" <sup>25</sup> gan Erkin Vohidov ushbu yo'nalishdagi asarlari tagmatnida milliy xarakterni, teran hayot falsafasini betakror badiiy aks ettirdi.

Odatlarimizdan yana biridagi kulgili holat "Bizning motam" she'rida aks ettiriladi:

Ahli ayol bog'lagan bcl,  
Ichkarida to'kar yosh.  
Tashqarida tumonat el  
Yeng shimarib urar osh.

Aza marosimida bunday ko'rinishga ko'p bor duch kelamiz-u, biroq buni tabiiyday qabul qilamiz. Shoir bu kabi kontrast vaziyatlarni keltirib, hayotning achchiq-chuchuklari yonma-yon yurishiga, shodlik va qayg'u ketma-ket klichesli, hayot shunday davom etaverishiga ishora

<sup>25</sup>Иногомов Р. Шоир бўлниш исон эмас. – Ташкент: Адабиёт ва санъат, 1996. – Б. 64.

qiladi, “kimga aza, kimga to'y” ekaniga diqqat qaratadi. Shu bilan birga, atigi to'rt misrali she'rda butun boshli millatning poetik suvratini mahorat bilan chizadi.

Ulug' ma'rifatparvar jadidlardan Mahmudxo'ja Behbudiy qariyb 100 yil avval “Bizni kemirguvchi illatlar” maqolasida “Bizni kemirguvchi illatlar deganda, zahm-u maraznimi gumon etarsiz? Yoinki sil, silariya va maxavliknimi dersiz? Yo'q, andin ham yamonroq va andin ham jonxarosh,...bizni inqirozg'a va tahlikag'a va jahannamg'a yumalaturg'on to'y, azo ismindagi ikki qattol dushmanni derman...Biz...kosirona bir suratda to'y va azo degan yo'q bo'lishimizg'a sabab bo'lgan odatlarga bor-u yo'qimizni sarf va isrof etarmiz...sag'irlar merosini yirtish, azoyi, sadaqa, xayrot, bilmayman, nimalar ujrasi deb, qarzdan vorisidan ilgari taqsim qilib olarimiz. Beshtolti ma'raka va xudoyi, 8-10 jum'a oqshomi deb butun mahalla va qishloq xalqig'a palov berarmiz. Oning g'ani yaqini..."obro'y" etarman deb, isrof va barbod etar. Natijada, bechora varisa darbadar..." “Bizni kemirguvchi illatlar” degan odatlarimiz shu to'y va ta'ziya ismindagi devonaligimizdan iboratdurdur".<sup>26</sup>

Darhaqiqat, millat taraqqiyotiga g'ov bo'lib, uning tanazzuliga sabab bo'lguvchi odatlar xalqimiz orasida qanchalik ursga kргgани оynaday ravshan. Bir asrdan ortiq vaqt o'tganiga qaramay yangidan yangi “bid'at” holatidagi xurofotlar hayotimizdagи to'y va aza marosimlarida mustahkam o'rин egallamoqda. Ayniqsa, kelin izlab yurgan sovchilar uchun yozilgan dasturxonga qo'yilishi “shart” hisoblangan chet elning “falon” nomdagi idish-anjomlari bo'lishi, “kim o'zar”ga anvoyi noz-ne'matlар bilan to'ldirilishi, kelin emas, go'yoki xazina yoxud tilla baliq qidirib yurganday surishtirishlar odatiy holga aylanib borayotgani millat ma'naviyatining sayozlashib borayotganidan nishonadir. Bu kabi g'ayriinsoniy xususiyatlar bugungi kitobxon avlodni tarbiyalash ishiga, mukammallik sari aniq maqsad qo'ygan va ilm-u ziyoga intiluvchi yoshlar axloqiga ziddir. Insoniyat boshiga ulkan falokatlar keltirgan 2020-yil pandemiyasi (COVID) odamizodning haddan oshgan ho-yu havaslarini jilovlab qo'ydi, eng ajablanarlisi, bu hol hashamatdan charchagan xalq uchun sariyog'day yoqib tushdi.

“To'y va ta'ziyаг'a sarf qilinaturg'on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovro'poyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro'y va rivoj topar. Yo'q,

<sup>26</sup>Бехбудий М. “Ойна” журнами, 1915 №11, 13-сон, Б.338-342.

hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur" <sup>27</sup>, - deb yozganda Mahmudxo'ja Behbudiy janoblari naqadar haq edi!

Adabiyotshunos olima G. Muhammadjonova "Nega yapon yuz yil yashar" she'ri tahlilida "Milliy urf-odat, qadriyat tushunchalarini noto'g'ri talqin qilib, dabdababozlikka, isrofgarchilikka yo'l berish, shu orqali o'zining boshqalar nazarida e'tirof etilish istagi naqadar beima'ni va mantiqsiz ekanligi"ni ta'kidlab, "bunday fikr bilan hayot kechirish asli millatning fojeasidir"<sup>28</sup>, - deydi.

Millat kamoloti haqida qayg'urish shoir misralariga singib ketgan. U xalqini "muzaffar, barkamol, tafakkur yurtida" ko'rmoq istaydi. Biroq uning orzulariga yetmoq ko'p uzoqqa o'xshaydi, negaki shoir ko'rgan "sehr-u mo'jizalar mamlakati"da

"Dushanba boshlari og'rimas nahor,  
Kechikib kelmaslar ishga ertalab.  
Bunda tama qilmas  
Hech kim do'stidan.  
Bu yurtda bo'lmaydi fitna, g'iybatlar.  
Hech qachon "K-14" "D-5" ustidan  
"B-3"ga yozmaydi yumaloq xatlar.

Bu – kibernetika instituti, temirtan daholar sultanati. U yerda "majlisbozlik yo'q, hech kim soatlab ma'ruza aytmaydi va asablar torini tahqir – o'qlar uzmaydi, ko'ksin ushlab yiqilguvchi ham yo'q bunda:

Chunki ular faqat – temir daholar,  
Insoniy dahodan hali ko'p yiroq.

Xalqimizning sevimli shoiri Abdulla Oripov "Temir odam" she'rida ham shunday mavzuni ko'targan: XX asr mo'jizasi sanalgan robot qarshisida turib, ilmda eng so'nggi kashfiyot, aqlii, qusurdan xoli zot, deya ta'riflangan temirdan yasalgan odam timsoli haqidagi shov-shuvlarni keltiradi:

Shaxmat ham  
o'ynarmish,  
Yer ham qazarmish.  
Rosmana yuvarmish yuz-u qo'lini.  
Hadis-u hisobdan adashmas emish,  
Hattoki sanarnish  
Somon yo'lini.

<sup>27</sup> Бехбудий М. "Оғиз" журнали, 1915 йил, 13-сон.

<sup>28</sup> Мухаммаджонова Г. Шеърият шукуни. - Фарғона, 2020. - Б.11.

Ammo... uning qalbi yo'q! Na nafrat, na ishqni anglaydi! To'lg'onolmas, yig'lamas, kulmas – unda insonlikdan asar ham yo'qdir! Yig'layotgan go'dakni yupatolmasa, yulduzlarning hidini bilmasa, gulning so'lishidan bag'ri tirnalmasa – uning daholigidan ne naf?!

Abdulla Oripov bilan bir zamonda yashab, hamnafas bo'lgan Erkin Vohidov she'rlerida millat va jamiyat ravnaqiga to'siq bo'layotgan illatlar ayovsiz tanqid qilingan. Har ikki shoir odamzodga xos his-tuyg'ular, shodlik va qayg'ular, dunyo mojarosi begona bo'lgan "temirtan daholar" ga achinish hissi bilan qaraydi:

Odamzod nafasi tegmasin uchun  
Ularni shishaga solib qo'y mishlar.  
Temirlarga yotdir o'kinch va ko'z yosh,  
Dunyo mojarosi  
Ularga abas.  
Bizning nizolarga bermaslar bardosh,  
Chunki ular – temir, odamlar emas.

Har ikkala ijodkor ijodidagi ikki she'rga e'tibor qaratsak, shakl o'rtasida o'xshashlikni kuzatishimiz mumkin. Shakl – to'rtlik. Biroq ularning ikkalasida ham sindirilgan misralar uchraydi. Muallifning bundan ko'zlagan badiiy maqsadi bor. Jumladan, R.Mullaxo'jaeva "Shoirning she'rni an'anaviy to'rtliklar shakliga solmay, o'ziga xos misralarga ajratishi bevosita mazmunni kuchaytirib, yanada ta'sirchan etishga, u tuygan his-hayajonni, o'ylab, idrok etgan fikrni to'liq ifodalashga xizmat qil"<sup>29</sup> ishini yozadi. Shu jihatdan E.Vohidov ham misralarni sindirar ekan, bu shakl orqali ma'noning yanada kuchayishiga, mazmunning teranlashuviga erishadi.

Xalqimizning buyuk ijodkorlaridan biri Anvar Obidjon E.Vohidov ijodi xususida fikr bildirar ekan, shunday so'zlarni aytadi: "Eng katta xarsang ham tog' bo'lolmaganidek, nechog'li zo'rligidan qat'i nazar, bitta adib adabiyot yaratolmaydi. Shuni yaxshii bila turib, elatning dong'ini jahonga yoyishdagi muhim omillardan bo'lgan milliy adabiyotning manfaatini shaxsiy shon-shuhratidan yuqori qo'ya olishga hamma adib ham o'zida yetarlicha kuch topa olavermaydi. Bunga kuch topa olish uchun o'zining ertasidan ko'ra, yurti va xalqining charog'on kelajagini ko'proq o'ylashga, shu yo'lda kuyinib yashashga odatlanmoq kerak"<sup>30</sup>. Erkin Vohidov chin ma'noda milliy adabiyotning dong'ini dunyoga yoyishni o'zining bosh maqsadi deb bildi. Shu jihatdan ham

<sup>29</sup>Муллахужаева Р. Тафсир янгиликлари. Т., Мухаррир. 2019. Б.92.

<sup>30</sup>Обиджонов А. Халқка керак бўлиши баҳти. //Тоқуёш соғиғийи нур. Т., Ўзбекистон. 2016. Б.17

Erkin Vohidov she'riyatida, qay bir mavzu talqin etilmasin, milliy ruh ifodasi yetakchilik qiladi. Millat ruhini mujassam ctgan azaliy urf-udumlar, xayrli an'analar, bebaho qadriyatlar shoir lirik asarlarida o'ziga xos ifodalangan. Xalqimizning orzulari, armonlari ohorli obrazlarda tasvirlangan. Millatning o'z-o'ziga tanqidiy ruhida qaray olish salohiyati butun ko'lami bilan talqin qilingan. Bunda poetik mazmun va shaklning mukammal uyg'unligiga erishilgani shoirning yuksak mahorati natijasidir.

## 1.2. Milliy ruh talqinida poetik shaklning vazifasi

She'riyat mazmunni ma'lum bir poetik shakllar asosida ifodalashi jihatidan adabiyotning boshqa turlaridan farq qiladi. Muallif badiiy maqsadini ifodalash uchun o'ziga xos shakl tanlaydi yoxud shakl yaratadi. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev shakl va mazmun masalasini quyidagicha izohlaydi: "Adabiy asarning mazmuni uning mohiyati, shaklini esa mohiyatning namoyon bo'lish tarzi sifatida ham tushuntirish mumkin. Boshqacha aytganda, mazmun – ijodkorning ochun haqidagi o'ylari, voqelikdagi biror hodisaga fikriy va hissiy munosabati. Shakl esa ana shu munosabatning ifodalanish tizimi va yo'sinidir. Bundan ham jo'nroq ifodalansa: mazmun – bu yozuvchining nima degani bo'lsa, shakl uning qanday deganidir"<sup>31</sup>. Shaklning o'zgarishga uchrashi mazmunga nisbatan qiyinroq bo'lgani bois, o'zbek adabiyotida shakliy o'zgarishlar jarayoni asta-sekinlik bilan yuz berdi. Buni R.Mullaxo'jaeva ham alohida ta'kidlaydi: "O'zbek she'riyati tarixidagi yangilanishlar jarayoni kuzatilsa, XX asr davomida keskin o'zgarishlar ro'y bergenligi ma'lum bo'ladi"<sup>32</sup>, deb yozadi. Shu jihatdan Erkin Vohidov ijodida ham ayni shunday shakl bilan bog'liq hodisalar va ularda milliy ruhning aks etishi mavjud bo'lgani holda biz ularni ikkiga ajratib tahlil qilamiz:

- An'anaviy shakllarga milliy ruhni singdirish hodissasi;
- Shakllarning noan'anaviyligi zamirida milliylikning aks etishi;

*An'anaviy shakllarga milliy ruhni singdirish hodissasi.* Erkin Vohidov ijodida shaklning an'anaviyligi zamirida mazmunning badiiyatidagi novatorlik yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir shakllarga milliy ohanglarni, til va uslubni singdirib, badiiyatning o'ziga xos

<sup>31</sup> Йўлдошев К. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалдик, 2016. Б.123

<sup>32</sup> Муллахўжасев Р. Тафаккур янгилашини. Т., Мухаррир. 2019.Б.84

ko'rinishini yaratadi. Aslida "Voqelikda mavjud narsalarning bari o'zining tashqi ko'rinishi (shakli) va shu shakl orqali anglashilayotgan mohiyatiga (mazmuni) ega. Shu bois ham "shakl" va "mazmun" kategoriyalari umumfalsafiy xarakterga ega bo'lib, ular voqelikni (narsani) idrok qilishda muhim ahamiyatga molik ilmiy abstraksiyalar sanaladi. Abstraksiya deyishimizning boisi shuki, shakl va mazmun qabilidagi bo'linish shartli, negaki ular – yaxlit bir narsada har vaqt birlikda mavjud bo'lган va bir-birini taqozo etadigan ikki tomon. Zero, shakl narsaning biz bevosita ko'rib turgan, his qilayotgan tomoni bo'lsa, ayni shu shakl bizga o'sha narsaning nima ekanligini – mazmun-mohiyatini anglatadi<sup>33</sup>.

Erkin Vohidov poetik shakl vositasida mazmunning mo'jizaviyligini ko'rsatib bera olgan ijodkordir. Zero, o'zbek adabiyoti ijodiy an'ana va uning muttasil yangilanishi hisobiga poetik takomilga erishib kelayotgani ayon. Mumtoz she'riyat an'analarining munosib davom ettirilishi, birinchidan, millat badiiy-estetik tafakkurini muntazam ravishda yuksaltirish imkonini bersa, ikkinchidan, ijodkorlarning yangi yetuk avlodlari yetishmog'ini ta'minlaydi. O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ijodi, shu jihatdan, zamonaviy o'zbek adabiyotida alohida o'rinni tutadi.

Shoir lirikaga milliy ruhni singdirishda mumtoz she'riyatimizning yetakchi tizimi bo'lган aruzdan mohirona foydalandi va g'azal, qasida, muxammas janrlarida barakali ijod qildi, tatabbu va tazmin vositasida salaflar ijodiy tajribalarini poetik sintez qildi. Milliy she'riyatimizni yangidan yangi shakllar bilan boyitdi, bu jarayonni o'z tajribasidan o'tkazdi. Ijodkor rango-rang poetik shakl va mazmunni mushtarak unsur sifatida badiiy bog'liqlikda ifoda eta oldi. Inson ruhiyati manzaralarini ijodiy tadqiq etish jarayonida shoир mumtoz adabiyot an'analaridan samarali foydalandi. Ham aruzda, ham barmoqda barcha imkoniyatlarni ishga solib, shakliy g'alizliklarsiz milliy adabiyotimiz dasturxoniga ravon misralardan she'riy guldstalar tuhfa qildi.

Mumtoz adabiyot janrlaridan g'azal, qasida va muxammas XX asr adabiyotida, xususan, Erkin Vohidov ijodida o'zining munosib o'miga ko'tarildi. Shoир, ayniqsa, uyg'onish davrining yetakchi janri bo'lган g'azalga zamonaviy, jilodor ohang berib, mavzu doirasini kengaytirdi, falsafiylik va milliy ruh ifodasini chugurlashtirib, badiiy teranlik bilan qalam surdi, vohidovona originallik va badiiy joziba bilan boyitdi. Bu

<sup>33</sup> Куроғов Д. Адабиетшуносликка кіріш. – Т.Фат, 2007. Б.86.

jarayonlar shoirning “She’r aziz olam aro” she’rida shunday ifoda etiladi:

She’r zulolidan simirdim  
Bir piyola to’ldirib.  
Voh, ko‘rindi menga har bir  
Qatrasи ummon qadar.

She’rning an’anaviy shaklidan foydalangan holda bitilgan ushbu bandda milliy ruh ramzi bo’lgan bir poetik detal bor – piyola. Bunda she’r zulolidan simirmoq, ayniqsa, “piyolani to’ldirib simirish” – haqiqiy sharqona, aniqrog’i, turkona ifoda. Istiora ostida yashiringan fikr – inson ko’ksini to’ldirib simirishidan qanday qoniqish hosil bo’lsa, ijod lazzatidan shunday zavq va lazzat tug’ilishi va bu tuyg’u o’quvchiga ham yuqishi betakror talqin etiladi. Qolaversa, shoir an’anaviy shakllar vositasida novatorlikni ko’rsata oladi. “Shakl ustida gap ketganda ko’pincha, biror ijodkorning boshqa bir san’atkordan o’rgangani, masalan, shakl bobida uning tajribalarini o’zlashtirgani, qandaydir an’analarini davom ettirgani haqida gapiriladi; tabiiyki bu gaplarga “ijodiy o’zlashtirish”, “ijodiy davom ettirish” iboralari ilova qilinadi... Sirtdan qaraganda ijodkor shunchaki mavjud shakllardan foydalanayotganday, tayyor an’analarni, tajribalarni davom ettirayotganday tuyuladi. Aslida esa haqiqiy ijodkor tayyor shakllarni butunlay yangidan kashf etadi. Bir qaraganda Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab an’anaviy aruzda, g’azalda, binobarin, g’azalning muayyan tayyor qoliplarida ijod etganday bo’lib ko’rinadi. Aslida bu daho shoirlarning har biri o’sha an’anaviy aruz, g’azal bag’rida, “tayyor qolip”lar doirasida o’z aruz va g’azal shakllarini yaratganlar”<sup>34</sup>. Shu jihatdan Erkin Vohidov g’azallaridagi an’anaviy aruz zamiriga o’zining eng nozik va milliy tuyg’ularini singdirib yuboradi.

Ijodkorning har bir she’rida – u xoh aruzda bo’lsin, xoh barmoq vaznida – o’quvchining xayoliga kelmagan nozik badiiy topilmalarni kashf etadi, o’quvehini lol-hayron etadi. Boisi: “Bugungi o’zbek she’riyati o’z vazifasi jihatidan ham, shaklu shamoyili va mazmuni bilan ham jiddiy o’zgarishlarga uchradi. Ko’z o’ngimizda yuz ochayotgan bu nafis olam – bizning o’zligimiz, xalqimizning milliy ongi, madaniyati, ma’naviyati, qadriyati mafkurasi bilan chambarchas bog’liqdir. Endilikda biror bir she’riy asarga baho berilar ekan, faqat davr talabigina mezon qilib olinmayotir, balki uzoq yillik lirik tajribalar tarixi ham,

<sup>34</sup> Норматов У. Кўнгилларга кўчсан шеърият. Ўзбекистон миллий китубхонаси. Т. 2006. Б.11

mazmun yo‘nalishi ham nazarda tutilyapti. Zero, zamon voqeligidan xoli she‘r bo‘limgani kabi qadimgi an’analardan ajralib qolgan shc’r ham yo‘qdir”<sup>35</sup>. Ayni sifrlar, bizningcha, Erkin Vohidov ijodi xususiyatlarini o‘zida to‘liq aks ettira oladi. Shoir ijodi an’ana va novatorlik (ham mazmun, ham shakl jihatidan) ustiga qurilgan latif adabiy inshootdir. Bu noziklik, latiflik, albatta, shoir shaxsida mujassam bo‘lgan qator fazilatlar in’ikosidir. Erkin Vohidov haqidagi xotiralarda uning nozik fahm-farosat egasi, did borasida o’tkir fasohat sohibi ekanligi eslanadi. Shoirning sobitqadamlik, zahmatkashlik, adolatsevarlik va rostgo‘ylik, katta bilim va ma’rifatga egalik, oljanoblik, vazminlik va bardoshlilikning timsoliga aylangan lirik qahramoni ijodkorning shaxsiy xususiyatlarini o‘zida jamlagan poetik obrazdir. Shoirning ba’zi she’rlarida uning shakl va mazmun haqidagi qarashlari yaqqol namoyon bo‘ladi:

Aruziy barmoqni  
To‘pori, deydi,  
Sen pastsan, men sendan –  
Yuqori, deydi.  
Barmoq uni ko‘hna –  
Xarobasan, der,  
Parvozlar asrida  
Arobasan der.

Ko‘rinib turibdiki, bu o‘rinda shoir ikki obrazni bahsga kirishtirish orqali aslida ularning qadim tarixi borligi bilan bog‘liq adabiy-estetik qarashlarini “ma’noning zid mazmunidan” foydalangan holda o‘ziga xos talqin etadi. Garchi ushbu munozara jarayonida aruz barmoqni to‘pori, barnoq esa aruzni xaroba desa ham, aslida, muallif misralar tagmatnida ularning o‘tmish va kelajakni tutashtiruvchi badiiyat dudonalari ekanini ta’kidlaydi:

Men esam  
O‘tmish-u kelajak aro  
O‘rta yo‘lda qolgan bechoradirman.  
Ular yuragimda  
Qilsa mojaro,  
Kclishtirmoq bilan ovoradirman.

<sup>35</sup> Солижонов Й. Адабиёт хиёбони. Фарғона, 2020. Б.8.

O'zini o'tmish bilan kelajak orasida qolgan bechora, deb ta'riflash orqali shoir ijod konsepsiyasini ifodalaydi. Bu konsepsiya uning zimmasiga ulkan mas'uliyat – ko'hna aruzni yangilash vazifasi yuklatilganini anglatishi bilan qimmatlidir. "Shu bilan birga aruzni butunlay iste'moldan chiqarib bo'lmasligini Cho'lponning o'sha «Qalandar ishqisi» she'ridan ham, Habibiy, Chustiy, 60- yillarga kelganda esa, masalan, Erkin Vohidov, Jamol Kaimol, Abdulla Oripov ijodlaridagi go'zal g'azallardan ham tushunsa bo'ladi. Biroq, baribir, davr boshqa edi. U o'zini eng maksimal darajada aks ettira oladigan shakl – o'z libosini talab qilayotgandi"<sup>36</sup>. Ayni shu talabning ifodasi o'laroq Erkin Vohidov she'riyatida an'anaviy shakllarning zamirida milliylikning aks etishi yangilanish jarayonining dastlabki bosqichi edi, deyish mumkin.

An'anaviy adabiy shaklinig zamiriga milliy tuyg'ularni, fikrlarni singdira olish Vohidov she'riyatining eng xarakterli jihatidir. Zero, shakldan asta-sekin mazmunga nazar tashlar ekanmiz, uning ijodidagi badiiy kashfiyotni, eng muhim esa milliylikni ko'ra boshlaymiz. "...tahlilda shakldan mazmun sari borilsa, asarning badiiy qatlamlariga chuqurroq kirish inkoni paydo bo'ladi. Chunki badiiy asarning go'zallik qirralari ko'proq shaklda namoyon bo'ladi va bu hol ilmiy tahvilni chegara bilmas darajada teranlashtirish imkonini beradi. Shaklning qirralari kashf etilgani sari undan chiqadigan badiiy mazmun chuqurlashib, xilma-xillashib boraveradi"<sup>37</sup>. Ayni shu fikrlar tasdig'i ini Erkin Vohidov ijodida kuzatamiz.

Shakllarning an'anaviyligidan novatorona foydalanish, ularga milliy mazmunni singdirish, yangi shakllar ifodasida ham milliy mazmunni saqlab qola bilish E.Vohidov she'riyatining o'ziga xos jihatlaridan biridir. Ayni shu xususiyatlarga ko'ra uning she'riyati an'ana va yangilik orasidagi badiiyat namunasidir. Shu jihatdan adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdam Erkin Vohidov ijodini *intellektual she'riyat* namunasi sifatida baholaydi. Zero, olim ta'kidlaganidek, "Oltmishinchchi yillar Erkin Vohidov va Abdulla Oripovning yillari edi. Oltmishinchchi yillarning yangiligi Abdulla Oripov va Erkin Vohidov bo'ldi... She'riyat bu yillar va, ayniqsa, oltmishinchchi yillarning ilk paytlari volyuntarizm va rasmiyatbozlik tugal shakllangan biryoqlamalik asoratlaridan qutulish pallasiga kirib kela boshlagan

<sup>36</sup> Ҳамдамов У. Тошкент: Янги аср авлоди. 2002. Б-62 Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеъриятини баланни тафаккур таърижининг ижтиёён-психологик хусусиятларини: фил.фак.докт... дисс. - Т., 2018.

<sup>37</sup> Йўлдошев К. Балпий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. Б.123

edi”<sup>38</sup>. Ayni shu holatlar an'anaviy shakllar mohiyatining tamomila yangilanishiga turtki bo'ldi. Erkin Vohidovning “Po'lat” deb nomlangan she'ri ayni intellektual lirikaning namunasi bo'lib, o'zida ummummilliy va umumbashariy mazmunni ifodalaydi. Shaklning an'anaviyligi asnosida milliy g'ururimiz bo'lgan she'riyatning beqiyos tasviri va ifodasini beradi. Shoir an'anaviy bandli she'r shakli tizimidan foydalanib, milliy ruhni eng baland pardalarda aks ettiradi.

U dastavval oybolta bo'Idi,  
So'ng zambarak bo'lib quyuldi.  
Qilich ham u, miltiq va nagan,  
U bomba ham bo'lib portlagan.  
Lekin olgan jahonni faqat  
Pero bo'lib quyulgach po'lat.

**Shakllarning noan'anaviyligi zamirida milliylikning aks etishi** shoirdan alohida ijodiy salohiyatni talab qiladi. Chunki bir vaqtning o'zida noan'anaviy shaklni qo'llash va unda milliy ruhni ifodalash osonlikcha amalga oshib qolmaydi. Zero, badiiy ijodda "...yangilik favqulodda amalga oshiriladigan ish emas. U muayyan tayyorgarlik, milliy va ma'naviy asos ham talab etadigan jarayon"<sup>39</sup>. Shu jihatdan Erkin Vohidov ijodida an'anaviy shakllarga milliy ruhni singdirish hodisasi qaysidir ma'noda shakllarning noan'anaviyligi zamirida milliylikning aks etishiga zamin tayyorladi. 60-yillarda yaratilgan “Bosh tebratar soat kafgiri”, “Bong uring” kabi she'rlarda ayni shu holat, shakllarga yangicha yondashuv kuzatiladi.

Dod soling,  
ne kechar holimiz,  
Alamdan  
jonimiz  
qiynoqda.  
Olamda  
topilmas  
molimiz –  
Vaqtimiz  
yonmoqda,  
yonmoqda...

<sup>38</sup>Хамдамов У. Тошкент: Янги аср эвлоди, 2002. Б.62

<sup>39</sup>Davlatova A. Milliy uyg'oniish davri o'zbek adabiyotidagi estetik ideal muammosi. Тошкент. 2011. Б.49

Bu o'rinda misralarning sindirilishiga guvoh bo'lamiz. Aslida she'r an'anaviy to'rtlik band tizimida bo'lsa-da, shoir mazmunning yanada kuchayishi, hislarning ta'sirliroq ifodalananishi uchun shu usuldan foydalananadi. Misralarning bu shaklda berilishi lirk kechinmaning yanada jonliroq ifodalinishiga yordam beradi.

Bu she'rda shoir vaqt topilmas xazina ekanligini, insoniyatning umri bekorga sarf bo'layotganini afsus bilan ifodalar ekan, she'rning zamirida didaktik mazmun seziladi. Ishda shaklning an'anaviyligi zamiriga didaktik mazmun singdirilgan she'rlarni tahlil qilgan edik. Ayni she'rlarda ham didaktik mazmun ruhi seziladi. Faqat ularda didaktik mazmun yangi shakllarga intilish asnosida namoyon bo'ladi. Ayni shu didaktik mazmunning akslanishi Erkin Vohidov ijodidagi yangicha shakllarda ham milliylik elementlarini namoyon etadi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov Erkin Vohidov ijodidagi ayni shu shakliy yangilikka intilish xususida shunday fikrlarni bildiradi: "Shoirning bu davr she'riyati shaklidagi izlanishlari ham diqqatga sazovor. Hayotga yaqinlik, hayot hodisalarining asl mohiyatiga intilish, gumanizm motivlarining chuqurlashuvi tufayli, bir tomondan, hayotni o'z shaklida, rangida ko'rsatishga, hayotni bor holicha, dag'allikkari bilan berishga intilish, publisistik ifoda kuchli"<sup>40</sup>.

**Mumtoz janrlarni grafik jihatdan yangicha shakllantirish.** Erkin Vohidov mumtoz adabiyotning an'nalarini davom ettirish barobarida, shakliy jihatdan yangilik qilishga intiladi. Mumtoz adabiyotdagi an'anaviy shaklga ega bo'lgan g'azal janrini grafik jihatdan yangilaydi. Buni adabiyotshunos I.G'ofurov ham alohida ta'kidlaydi. "Erkin Vohidov iqtidorining qudratil bilan aruzni yangiladi"<sup>41</sup>. G'azalning shakliy tuzilishida milliy uyg'onish davri an'analarini davom ettiradi. Milliy uyg'onish davrida g'azalning shaklini bandli tizimga solish an'anasi paydo bo'lgani holda E.Vohidov ijodida ham ayni shu jarayon ko'zga tashlanadi. Zero: "U yoki bu shoirning chinakam iqtidori, salohiyatiga baho berilar ekan, avvalo, nima(lar)ni tasvirlashi emas, qanday shakllarda ifodalashiga alohida e'tibor qaratilgani beziz emas"<sup>42</sup>. Mumtoz adabiyotga yondashuv, undagi mazmun-mohiyat an'anaviy xarakterga ega bo'lishi barobarida, milliy ruhiyatni ham o'zida badiiy jihatdan mukammal tarzda aks ettiradi. Shaklni esa barmoq vaznidagi

<sup>40</sup>Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърият. Т. ўзбекистон милий кутубхонаси. 2006. Б.17.

<sup>41</sup> Гафуров И. Биз Эркин Воҳидов ижодини нега севачиз? Инсон йўлип. Т.Ўзбекистон. 2022. Б.137

<sup>42</sup> Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеъритида поэтик мазмун ва шаклни излаштирилар. Т. 2018. Б.121.

bandli tizimga moslaydi. Uning “Kimda iqtidor yo‘qdir...” deb nomlangan g‘azali tuzilishiga e’tibor qarataylik:

Kimda iqtidor yo‘qdir,  
Ilm ila hunar zoe,  
Iqtidor berurman deb  
Chekma ranj, ketar zoe.

Bandli tizimda bo‘lsa-da, she‘r vazni aruzda hamda qosiyalanish tizimi ham g‘azalga muvofiq. Aslida g‘azalning shaklini tiklasak, qosiyalanish tizimi yanada oydinlashadi:

Kimda iqtidor yo‘qdir, ilm ila hunar zoe,  
Iqtidor berurman deb chekma ranj, ketar zoe.

Birinchi band *a-a* tarzidagi qosiyalanish tizimiga ega. Ikkinci baytga e’tibor qaratamiz:

Kimda asli tole yo‘q, naqdi ham ketar qo‘ldan,  
Berganing bilan bo‘lmas oltin-u guhar zoe.

Shoir buni ham yuqoridagi baytdagi kabi bandli tizim shaklida bersa-da, *b-a* qosiya aslida uning baytli shakldagi g‘azal ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Shaklning bu kabi ifodasi muallifning adabiyotdagi yangicha izlanishini, shakliy yangiliklar asnosida lirik kechinmani yorqinroq ifodalab berishini, tuyg‘ularning yanada bo‘rtib, qirrador bo‘lib akslanishini ko‘rsatib beradi. Mazmunda esa milliy ruh, milliy kayfiyat, milliy tarbiya yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Erkin Vohidov g‘azallarining deyarli barchasida ayni shu grafik shakllanish kuzatiladi. Shoir shakliy rang-baranglik orqali she‘ming ruhini ham, mazmunini ham, ohangini ham yangilaydi.

## I BOB YUZASIDAN XULOSA

Erkin Vohidov she‘riyatida milliy ruhning badiiy tasviri yo‘nalishidagi tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-nazariy umumlashmalarni chiqarish mumkin:

1. Shoir she‘riyatida poetik mazmun va milliylik o‘rtasidagi uyg‘unlikning badiiy talqini quyidagi ilmiy tasnif asosida tahlil etildi: 1) milliy ruhning urf-odat, an‘ana va qadriyatlar vositasida ifodalanishi; 2)o‘zbek ruhiyatining lirik ifodasi millatning o‘z-o‘ziga baho berish salohiyati orqali voqelanishi; 3) milliy shaxsiyatning badiiy suvratlanishi. Natijada shoir ijodida poetik mazmun va badiiy talqin

uyg'un aks etgani, ijodkor lirk asarlarida uning estetik ideali – o'z millatini dunyoning taraqqiy etgan xalqlari darajasida, kelajak avlodlarni komil maqomda ko'rish ifodalanganani aniqlangan.

2. Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruh ifodasi shoirning ijodiy tutumi darajasiga yuksalgani kuzatiladi. Buni birgina "Kuzatish" she'ri misolida ham ko'rish mumkin. Ushbu she'rida shoir asarlariga go'yo farzandiga nasihat qilayotgan ota obrazida namoyon bo'ladi va nazmiy asarlari uch estetik talab asosida ijod etilganini bildiradi: yolg'ondan yiroqligi; ziynatga ko'milmagani va samimiyatga oshno ekani. Asarlariga uch muhim talabni qo'yadi: o'zga tillarga tarjima etilganda "o'zni unutmaslik", muallifning "o'z she'ri bo'lib qolish", bundan ham muhimi, "o'zga ruhga berilib ketmaslik". Bu o'rinda asosiy talab milliy ruhni saqlash bo'lgani, ayniqsa, e'tiborga molik. She'rdagi: "Maskov borib kerilib ketmang" degan satr shoirning maslagagini aks ettirishdan tashqari, ijodiy jasorat natijasi ekani jihatidan ham ahamiyatlidir. Aslida, o'sha zamonda she'rlari tarjima bo'lib, Moskvada nashr etilishi har bir shoir yoki adib uchun faxr hisoblangan. Shunisi qimmatliki, Erkin Vohidov har qanday sharoitda milliy ruhni asrash talabini qo'yadi.

## II BOB. MILLIY RUHNING OBRAZ VOSITASIDA IFODALANISHI

### 2.1. Ijodkor lirikasidagi milliy ruhni ifodalagan yetakchi obrazlar

Milliy ruh ifodasida poetik obraz tasviri alohida o'ringa ega. Chunki adabiyotni, ayniqsa, uning eng faol va tez yangilanish xususiyatiga ega turi bo'lgan she'riyatni obrazdan, obrazli tafakkurdan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Poetik obrazdan ayri tushsa, adabiyot mohiyatini yo'qotgan bo'lar edi. Erkin Vohidov kabi zamonasinining san'atkor shoirlari ijodi, ular asarlarida milliy ruh ifodasi badiiy obraz va poetik tafakkur takomili bilan chambarchas bog'liq holda bo'lishi tabiiy. Zero, badiiy obraz – adabiyotning asosi. Obrazli tafakkur bo'lmagan joyda adabiyot ham bo'lmaydi. Chinakam ijodkor asarlari obrazning qabariqligi, yorqinligi bilan alohida ajralib turadi. Erkin Vohidov she'riyati buning yorqin misoli. Ulug' shoir yaratgan obrazlar she'riyat muhiblari ongu shuurida mudom yashab kelayotgani sababi ham ularning o'quvchi ko'ngliga yaqinligida, kitobxon ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'la olishidadir. "Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlaniib, hissiy idrok etish mumkin bo'lgan shaklda ifodalangan aksi"<sup>43</sup>. Obraz muallifning badiiy maqsadini oshib beruvchi eng kuchli adabiy unsurlardan biridir. Muallif obraz zamiriga o'z tuyg'ularini, o'y-fikrlarini singdirib yuboradi. Shu jihatdan obrazlar tamoman milliy xususiyatga ega bo'la oladi. Aniqroq qilib aytganda, har bir millatning o'z obrazi mavjud. Uning yaratuvchisi esa, shubhasiz, ijodkordir. Ayni shunday obrazlar zamirida millatning xususiyatlari yashaydi. Muallif milliy ruhni poetik obraz zamiriga singdirar ekan, bunda o'z-o'zidan xalqning an'analariga, qadriyatlariga, muqaddas deb bilgan tushunchalariga murojaat etadi. Ammo obrazning chinakam qudrati milliy xarakter vositasida umumbashariy mohiyatni ham anglata bilishida namoyon bo'ladi. Erkin Vohidov ijodidagi obrazlar, shubhasiz, ayni shunday kuchga ega. Ular sof o'zbekona obrazlar, ularda millatning ruhiyati, millatning nafasi aniq bo'y ko'rsatib turadi. Ammo bu milliy ruhdagi obrazlar dunyo adabiyoti o'qirmanlari uchun yelkasida odamiylik, vijdon,adolat, mehr-muhabbat kabi tuyg'ularni ko'tarib turadi va shu tariqa milliy ruhga ega bo'lgan umumbashariy obraz qiyofasiga kiradi.

<sup>43</sup>Куронов Д. Адабийёт пазаригаси асослари. – Тошкент: "Akademimashi", 2018. – 15.90

Erkin Vohidov ijodida bir necha obrazlar milliy ruhning poetik voqelanishida yetakchi xususiyatga ega. Ishda ularning bir qanchasini tahlil etdik va milliy ruhning ifodalananishiga ko'ra quyidagicha guruhlarga ajratdik:

➤ Inson obazi vositasida milliy ruhning poetik voqelanishi;	"Inson" qasidasi, "Arslon o'rgatuvchi"
➤ Do'st obazi vositasida milliy ruhning poetik voqelanishi;	"Do'stlarga maktub", "Iltijo", "Yolg'izlik istagi", "Do'stlaring bo'lsin", "Do'stlik sharti"
➤ Ota-onal obazi vositasida milliy ruhning poetik voqelanishi;	"Sharq ertagi" "Nido"
➤ Bola obazi vositasida milliy ruhning poetik voqelanishi.	"Shum bola"

Bu obrazlarda milliy ruh, o'zbekona nafas yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, uning birgina *Inson obazi* ham milliy, ham unumbashariy kuchga ega ekanligi bilan o'zbek adabiyotida alohida o'ringa ega. "Erkin Vohidov estetikasida insonning ma'naviy kamolotiga alohida urg'u beriladi. Shoirning nuqtayi nazariga ko'ra, inson tirikligining ma'nosи, hayotning mazmuni, sharoit va muhitdan qat'i nazar, takomillashtirishga intilishdan iborat. Ma'naviyatni, tiriklikni go'zallashtirish barobarida hayotni va jamiyatni yanada go'zallashtirish bosh muddaodir"<sup>44</sup>. Adabiyotda inson obazi haqida so'z ketganda har bir she'riyat ixlosmandining ko'z o'ngidan, eng avvalo, shoirning "Inson qasidasi" o'tadi. Shoirning nazdida inson yaratiqlar ichida eng ulug'i va sevimlisidir:

Sobit-ul sayyorada, inson o'zing, inson o'zing,  
Mulki olam ichra bir xoqon o'zing, sulton o'zing.

Ijodkor nazdida, inson - buyuklik timsoli. Olloh uni buyuk qilib yaratgan. Ayni she'rning mazmuni inson obrazining ulug'ligiga qaratilganini tilshunoslar ham alohida ta'kidlaydilar: "Har misrada "o'zing" so'zi takrorlanib, uning takror holda qo'llanishi ma'noni

<sup>44</sup> Рахимжонов Н. Бедорлик саодати.. Иносип ўзининг. Т.Ўзбекистон. 2022. Б.178

ta'kidlaydi, kuchaytiradi. Bu she'rda "o'zing" so'zi yordamida inson fenomeniga urg'u berilgan, unga e'tibor qaratilib, uning qadr-qimmati, olamdag'i, jamiyatdagi o'rni alohida ta'kidlangan"<sup>45</sup>. Ammo Ollohning eng ulug' yaratig'i tiriklik ko'yida o'zining asl vazifasini unutadi. Tirikchilikning quliga aylanadi. O'zining qudratidan mosuvo bo'ladi. Bu holat shoirning sinchkov nigohidan chetda qolishi mumkin emas. Shoirning bu kabi tuyg'ulari uning "Arslon o'rgatuvchi" she'rida o'z aksini topadi. Bilamizki, arslon hayvonot olamining shohi. Unga mutelik xos emas. Ammo hayotning g'irrom o'yin-u hiylalari oldida u ham ojiz va muallif buni arslonning tilidan shunday ifoda etadi:

Haloi kuchga zavol bergen,  
Hiylaga qudrat, –  
Meni bandi qafas etgan  
Dunyoga la'nat.

Ammo arslon kabi qudratli inson ham hayotning tirikchilik degan tuzog'i qarshida ojiz. Shoir ayni shu tasvirni nihoyatda jonli tasvirlaydi. O'quvchi ko'z o'ngida hayotning bor ko'rinishi namoyon bo'ladi:

Garchi arslon o'ynataman.  
Garchi men – Odam.  
Oy so'ngida qand kutaman  
Xo'jamdan men ham.

Ayni shu o'rinda muallif butun insoniyat fojiasini bayon etadi. Garchi bu she'rdagi inson obrazi zamirida milliy ruhdan ko'ra ko'proq umumbashariy xarakter ifodalangandek ko'rinsa-da, biroq uning tub mohiyatida o'zbek hayotining, o'zbek odamining tirikchilik ko'yida yelib-yugurish, mehnatga o'z umrini bag'ishlash kabi xususiyatlari yotadi. Zero, "Milliylik zamirida insoniylik turadi, u umuminsoniylik bilan uyg'un"<sup>46</sup>. Ayni shu jihatdan shoir ijodida inson obrazi to'laligicha milliy koloritni o'zida aks ettirishga xizmat qiladi. E. Vohidov ijodida "... insonning ma'naviy – intellektual kamolotiga alohida urg'u beriladi. Shoirning nuqtayi nazariga ko'ra, inson tiriklikning ma'nosi, hayotning mazmuni qanday sharoitda va muhitda bo'lishidan qat'i nazar, o'z shaxsida komillik xislat-xususiyatlarini muttasil takomillashtirishga intilishdan iborat"<sup>47</sup>. Shu jihatdan, shoir inson obrazining eng kuchli, qudratli tomonlarini ham tasvirlashni aslo unutmaydi:

<sup>45</sup> Кеппнерова Г. Ўзбек башини иуткида шиттеза. ф. ф. н. дисс.... Т. 2000. Б.19

<sup>46</sup> Тўйчиев У. Ўзбек адабиётидаги бадиийлик мезонлари ва уларининг маорумлари. -Т. Янги сар шалоли. 2011. -Б.451

<sup>47</sup> Рахимжонов Н. Эркин Вохидовиппиг адабиёт-эстетик карамаларига доир. То күш соғтайти шур. Т.Ўзбекистон. 2016. Б.471

Nihoyat, biz fursatni quvib,  
Qamchi soldik g‘ayrat otiga.  
U har qancha yelib, yugurib  
Yetolmadi inson zotiga.

Shoir insonning asl kuchi uning mehnatida, g‘ayratida ekanini yozadi. Insonning o‘zi istasa, buyuk ishlar qilishi mumkinligini badiiy aks ettirar ekan, o‘zbek xarakterining intiluvchanlik, mehnatsevarlik kabi xususiyatlarini ko‘rsatib beradi.

Erkin Vohidov ijodida *Do’st obraz* alohida ahamiyatga molik va tom ma’nodagi milliy xarakter tashuvchi obraz hisoblanadi. Shoirning qator she’rlarida do’stlik, sadoqat, xiyonat haqidagi qarashlar o‘zbek millati xarakterining o‘ziga xos tarzda yanada ravshanroq ifodalangani jihatidan ham qimmatlidir. “Do’stlarga maktub”, “Iltijo”, “Yolg‘izlik istagi”, “Do’stlaring bo‘lsin”, “Do’stlik sharti” kabi qator she’rlarida teran falsafiy mushohadalarini milliy ruh va go’zal badiiyat uyg‘unligida ifoda etadi.

Do’st bilan obod uying gar bo‘lsa u vayrona ham,  
Do’st qadam qo‘ymas esa vayronadir koshona ham...

kabi misralari qaysidir ma’noda do’stlikning madhiyasiga aylanib ulgurgan deyishimiz mumkin. Shoir do’st obrazini yaratishda bu obraz zamiriga o‘zbek xalqi uchun eng qadri bo‘lgan insoniy tuyg‘ularni singdirib yuboradi. G‘azalning ilk bayti – matla’si adabiyotimiz xazinasida “shohbayt” darajasida mashhur bo‘ldi. Qolaversa, shoir ijodidagi bu obraz to‘la ma’noda milliy ruhiyatni ifoda etishga yordam beradi:

Do’st qidir, do’st top jahonda, do’st qancha bo‘lsa oz,  
Ko‘p erur bisyor dushman bo‘lsa gar bir dona ham.

G.Qo‘ylieva ayni shu misralarni tahlil etar ekan, undagi milliylik masalasiga alohida e’tibor qaratadi: “Shoir she’rlarining har satridan xalqona ohang, maqol va matallar paydar-par bo‘y ko‘rsatib turadi. “Do’st achitib gapirar, dushman kuldirib”, “Boshingga qilich kelsa ham to‘g‘ri gapir”. Sham yalovi o‘tkirligidan parvona ham dosh berolmay jon berishini tasvirlab, rostgo‘y do’stlarning ta’na-dashnomalaridan aslo qochmay, parvona misol taslim bo‘lmaslikka chorlaydi ”<sup>48</sup>.

Erkin Vohidov ijodini kuzatish jarayonida shoirning do’st obrazi zamiriga iymon-e’tiqod masalasiga doir milliy va umumbashariy

<sup>48</sup>Кўйинева Г. Дўст кидир, дўст топ жаҳонда. Эркин Вохидов шеърларида даврнинг долзарб муаммалари талкни. Республика онлайн ижтимоий амалий конференция материяллари. Гулистон, 2020 йил. Б.65

qarashlarning ham mahorat bilan singdirib yuborilganiga guvoh bo'lamiz. Shoir ijodida Hadisi shariflarning mazmunini badiiy talqin qilish va buning natijasida millat ruhiyatini betakror ifodalash ijobiy natijalar bergen. Qur'oni Karimda mana bu mazmunda oyat kelgan: "O'sha kuni kishi o'z birodaridan qochadi. Yana onasi va otasidan ham, xotin va o'g'llaridan ham (qochur). (Chunki) u kunda ulardan har bir kishida o'ziga yetarli narsa (tashvish) bo'lur" (Abasa surasi, 34-37-oyatlar). Ayni shu kunda uning suyangani faqatgina do'sti bo'la olishini barchamiz bilamiz. Muborak hadislardan birida do'stlik va sadoqat borasida shunday deyiladi: "Qiyomat qoyim bo'lganda, uning dahshati sabab insonlar o'z yaqinlaridan ham qochadi". Rivoyat qilishlaricha, Qiyomatda hisob-kitob pallasida bir bandanining amal daftari tarozida tortilganda zarra miqdoridagi savob kamlik qiladi va jannatga kirishiga yetmay qoladi. Shunda yuqoridagi oyati karimada ta'kidlanganidek, yaqinlaridan yordam so'rар ekan. Najot chiqmagach, Alloh yo'lida do'stlashgan insonini ko'rib qoladi. Bor gapdan xabar topgach, u o'zining savobidan berib, do'stini og'ir ahvolda qoldirmaydi. Shunda Alloh taolo farishtalarga: "Sizlar guvoh bo'linglar! Men ularning ikkisini ham mag'firat qildim! Jannatimga kiringlar!" - deydi . Erkin Vohidov Qur'oni karim va hadisi sharif ilmini egallagan ijodkor sifatida she'rlarida buni

Jon nadir, ikki jahonni sadqa qil,  
Do'st senga aytgan bir og'iz so'z uchun

kabi ifoda shaklida badiiy talqin etadi. Ikki jahonni – foniylar boqiy dunyosini-da do'stga baxshida etgan insongina Haq yo'lida o'zidan kechib, yo'ldoshiga manfaat yetkazishga harakat qiladi. Zero, haqiqiy, beg'araz muhabbat insonning o'ziga emas, o'zgalarga yaxshi bo'lishini istab qilinadigan harakatlardan iborat bo'ladi. Shoir ayni shu tuyg'ularning barchasini do'st obrazi vositasida ochib beradi.

Bu bir kam olamda "do'sti sodiq" topmoqlik o'ta mushkul ish. Atrofingda parvona bo'lganlarning qanchasi "Gohi dushmanlik qilurlar, qo'l siqib do'stona han!". Biroq shoirning oljanob qalbi, o'zbekona tanti xarakteri, oftob singari mehr nuri bilan har qanday mushkulot hal bo'lishiga ishonadi.

Do'sti sodiq yo'q ekan deb, o'rtanib kuyma valck,  
Mehr uyin keng ochsang, Erkin, do'st bo'lur begona ham.

„Ikki jahonni sadqa qil“ she'rida esa shoir do'st uchun mehr nima, jon nima – ikki jahonni nisor etmoqqa tayyor: *Jon nadir, ikki jahonni sadqa qil, Do'st senga aytgan bir og'iz so'z uchun baytida "ikki jahon"*,

“sadqa qilmoq“, “bir og‘iz shirin so‘z“ iboralari milliy ruhni yanada kuchaytirishga yordam bergan. Zero, ma’naviyatimiz asoslari bo‘lgan axloq mezonlarimizda birligina shirin so‘z, birligina tabassum ham sadaqa hisoblanishi ma’lum. Do‘stlik umumbashariy tushuncha bo‘lib, milliy ruh bilan oziqlangan shakli o‘ziga xos belgilar – kishi baqoga erishgan mahalda, hech bir jon o‘z manfaati uchun zarar qila olmaydigan lahzalarda sodiq do‘stgina kuniga yarashi kabi oqibatlar bu tuyg‘uning milliy xarakterini yanada yorqinroq aks ettiradi.

O‘zbekning o‘zbekligi - uning odamjonligi, odamoxunligi bilan. Muqaddas Kitobimizda do‘st-u yorlar, qo‘shnilarga munosabat haqida talaygina hikmatlar bayon etilgan. Kechirimlilik, yomonlikka yaxshilik qilish – xalqimizning eng ulug‘ fazilatlaridan biri. Shoир ayni shu milliy xususiyatlarni “Bevafo do‘stlarga” she‘ridagi bevafo do‘st obrazi orqali ochib beradi:

Bitmadi peshonamizga  
Do‘sti sodiqkim, bu xil  
Bizga beparvo, o‘ziga  
Mahliyolardan bo‘lak.

Muallif hayotda sodiq do‘st topmagani, do‘stlarning o‘ziga mahliyo yekanini, qolaversa, yangi sodiq do‘st izlasa-da, eski insofsiz do‘stlar duch kelaverganini badiiy ifoda etadi:

Izladim har necha, lekin,  
Topmadim bir yangi do‘st,  
Eski ul insofsiz, ammo,  
Beriyolardan bo‘lak,-

desa-da, undagi insof va adolatga limmo-lim to‘lgan qalb yomonlik qilib o‘ch olish fikridan yiroq. Aksincha, *Do‘st xato qilsin, qatoridan xato, lek, qilmasin*, - deya o‘zbek xalqining asl tabiatiga – olijanoblik, tantilik xislatlariga sodiq farzand ekanini namoyon qiladi.

Milliy xususiyatlarimizni ko‘rsatib turgan ushbu poetik obrazlar xalqonalik shoир ijodiga xos timsollarni yangilashda ham ijod konsepsiysi asosiga milliy ruh ifodasini qo‘yadi.

Erkin Vohidov ijodida milliy ruhning poetik obraz orqali ifodalinishida *ota-onा obrazi* alohida ahamiyatga ega. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, bu obrazlar tom ma’noda o‘zbek ota-onasi timsolidir. Ularda o‘zbek xalqiga xos eng milliy jihatlar bo‘y ko‘rsatadi. Ota va ona obrazi o‘zbek adabiyotida E.Vohidov ijodida o‘zining chinakam badiiyatini namoyon etdi deyish mumkin. Bu obrazlarning eng go‘zal namunasi shoирning “Nido” dostonida uchraydi va to‘laligicha milliy

qiyofa kasb etadi. Aslida dostonning o'zi to'laligicha o'zbek hayotini, uning maqsad va ruhiyatini o'zida aks ettiruvchi asardir. Unda shoir qo'llagan ifodalar, til va uslub milliy ruhni yorqin tarzda aks ettirishga yordam beradi. Asarning milliy hususiyatlari haqida Sh. Nazarxonova quyidagicha fikr bildiradi: "Doston matnida maqol (Otang bolasi bo'lma, Odam bolasi bo'l; Ustunga zo'r kelar qulasa ustun), duo (Qosh ko'zlarining otangga o'xshar... O'xshamasin umring, iloyim), bolalar so'z o'yinlari (Tarqalamiz uy-uyigayu tepe to'yga) kabi folklor janrlari bir butun holatda birlashadilar. Maqol ohangida hikmat, duo ohangida niyat yaraladi"<sup>49</sup>. O'z-o'zidan E.Vohidov ijodining gultoji hisoblanmish "Nido" dostonida milliy qadriyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, dostondagi ota va ona timsoli tom ma'nodagi o'zbek ota-onalarining timsolidir.

Dostonda *ona obraz* vositasida fidokor, umrini farzandlariga baxshida etgan o'zbek ayoli qiyofasi namoyon bo'lar ekan, shoir muhabbat, mehr, sadoqat, fidoyilik haqidagi qarashlarini ayni shu obraz zamirga singdiradi. Onaning farzandiga aytgan:

Orom ol, men senga  
Allalar aytay.  
Tongda peshonangdan  
O'pib uyg'otay, -

misralarini o'qib, har bir o'quvchining ko'z o'ngidan erta tongda farzandlari peshonasidan o'pib uyg'otadigan onasi o'tadi va ayni shu holatdan har bir o'zbek o'z oilasining qiyofasini ko'z oldiga keltiradi. Ona tilidan aytilgan:

Sen uchun, men uchun,  
O'z uchun emas,  
Faqat o'zbek va yo  
Rus uchun emas,  
Butun Yer – undagi  
Bor avlod uchun,  
Dunyoda eng qutlug'  
E'tiqod uchun  
Uzoq o'lkalarda  
Qon kechib hozir  
Otang hayot uchun  
Jang qilayotir, -

---

<sup>49</sup>Назархонова Ш. Эркин Вахидов достопиарнида фольклор оҳанглари. То күёш сочигайкин нур. Т.Ўзбекистон. 2016. Б.271

kabi misralarda qaysidir ma'noda butun onalar va hatto butun millat dunyoqarashi namoyon bo'ladi. Zero, o'zbek xalqiga xos bag'rikenglik, o'zaro mehr-muhabbat ona tilidan bayon etiladi. Bu o'rinda ona obrazida milliy ruh yashaydi. U farzandining yorug' kelajagiga ishonch bildiradi, ona qalbi bilan uning baxtli kunlariga ishonadi.

Sen bizlar ko'rganni  
Ko'rnagaysan hech,  
G'urbat yo'llaridan  
Yurmagaysan hech, -

misralarida nafaqat porloq kunlar umidi, qolaversa, duogo'y o'zbek onasi qiyofasi ifodalanadi. Asardagi ona obrazi xususida T.Dadaboyeva quyidagicha fikr bildiradi: "Hayotning eng og'ir damlarida ham yonimizda turguvchi vafodor do'stimiz – shubhasiz, onalarimizdir. Uning ham ayni damda o'z g'am-tashvishlari bor. Shunga qaramay, ko'nglidagi azob-uqubatlar orasidan bosh ko'targan mehr-muhabbat g'unchasini farzandiga tutishda o'zida kuch topa olgan onaga tasannolar aytging keladi"<sup>50</sup>.

Dostondagi markaziy timsollardan biri *Ota* obrazi ham asarda o'ziga xos tarzda aks etadi. Shoир o'ziga xos uslubda ota qiyofasini chizadi. Dostonda ota deyarli so'zlamaydi. Lekin asar boshidan so'ngigacha ota obrazidagi eng nozik jihatlarni o'quvchi anglab boradi. Ota obrazidagi mardlik, vatanparvarlik, odamiylik asar mazmunida yashaydi. Ota obrazi urush davridagi chinakam o'zbek otalarining qiyofasini o'zida aks ettiradi.

Bobolarning hikmati  
Hayotga yorug' yo'ldir.  
Otang bolasi bo'lma,  
Odam bolasi bo'l, der.  
Bu so'zni ilk bor menga  
O'rgatgan otam edi.  
Men otam farzandiman,  
U esa odam edi.

Xalqimizda: "Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l", degan maqol bor. Ijodkor ayni shu maqoldan ota obrazini yaratishda maqsadli foydalanadi va maqolni badiiy davom ettiradi: "Men otam farzandiman, U esa odam edi". Ayni shu ifodada otaning chinakam qiyofasi namoyon bo'ladi. Ota

<sup>50</sup> Дадабоева Т. Низо достонида қаҳрамон руҳинги орқаси давр мухитининг тифодалайти. Э.Воҳидовининг сўз кўшиш маҳорати. Республика оплшиби илмий амалий конференция материялари. Гулистон. 2020. Б.88

– odamiylik timsoli. Farzand barcha fazilatlarni o‘z otasidan olgan va o‘rgangan. Asarda ijodkor ota obrazini yaratish ekan, ayni shunday boshqalarning tilidan otaning milliy qiyofasini ochib beradi. “*Onam boshimni silab, O‘xsha degan otangga*”, “*Mening mardlik maktabim, Jonfido otam edi*” kabi ifodalar ota obrazining to‘laqonli shakllanishiga asos bo‘ladi. E.Vohidov ijodida ota va ona obrazi poetik obraz darajasiga ko‘tarilgan va u an’anaviylik bilan bir qatorda o‘zbek adabiyotidagi tamomila yangi, faqatgina E.Vohidov uchun xos bo‘lgan obrazlar sirasidandir. Jumladan, “*Sharq ertagi*” she’rida farzandiga ertak aytayotgan ona aslan o‘zbek onalarining tipik qiyofasini ifoda etadi. She’rni o‘qir ekanmiz, barchamizning ko‘z o‘ngimizdan uzun kechalarda bizga alla aytib bergen onalarimiz gavdalananadi: “Men ertak so‘ylayin, shirin tushlar ko‘rib, Sen, dilbandim, orom ol bir zum” ifodasi yodimizga o‘z onalarimiz bilan bir qatorda “*Nido*” dostonidagi ona obrazini ham keltiradi. Go‘yo bu asarda “*Nido*” dostonida aytilmay qolgan ona so‘zlari mantiqan davom etgandek tuyiladi:

Uxla, jonim erkam,  
Uxla, ko‘zim nuri.  
Qo‘zichog‘im, ko‘zlarining yum.  
Men ertak so‘ylayin,  
Shirin tushlar ko‘rib,  
Sen, dilbandim, orom ol bir zum.

Yana o‘sha ona timsoli! Farzandiga ertak so‘zlab, uni yupatayotgan, hayotning yovuzliklaridan asrayotgan, ertaklar vositasida farzandi qalbini uyg‘otayotgan o‘zbek onasining qiyofasi. Bu asarda ham yovning zulmi, vahshati haqida so‘z boradi. Faqat ona bu zulmlarni obrazli tarzda ifodalaydi:

Uzoq-uzoqlarda,  
Ko‘k dengizlar uzra  
Tomchilardan o‘q qilar bulut.  
Dahshat bilan kelib  
Tog‘ ustiga so‘ngra  
Qoyalarga do‘q qilar bulut.

Ammo onaning ertagi barcha ertaklardagi kabi yakun topadi. U farzandini yorug‘ kunlar umidi va ishonchi bilan o‘stiradi. Ayni shu o‘rinda millatimizga xos bo‘lgan bardosh, yaxshiliklarga umid,

ezgulikning g' alabasiga ishonch ona obrazi zamiriga singdirib yuboriladi.

“Mana quyosh chiqdi,  
Olam nurga to'lib  
Bulut uzoqlarga yo'qoldi.  
Etaklari uning  
Pora-pora bo'lib

Qoyalarda chuvalib qoldi”, -

kabi yakunning o'zidayoq nafaqat o'zbek xalqi uchun, qolaversa, butun bashariyat uchun xos bo'lgan yaxshilikka umid g'oyasi o'z aksini ko'rsatadi. Shoir ona obrazi vositasida milliy qiyofani, milliy xarakterni, an'analar zamirida yangilanayotgan millat qiyofasini ko'rsatib beradi.

Erkin Vohidov ijodida ona sadoqat, bardosh, mehr-muhabbat timsoli bo'lib, o'zbek millati xususiyatlarini o'zida mujassam etsa, ota obrazi mardlik, jasorat, odamiylik, halollik timsolidir. Aslida farzandning kamolotga yetishida otaning o'rni beqiyos. Farzand odamiylik ilmini, haqiqat kurashini otadan o'rganadi. Ota farzand uchun tarbiyaning namunasidir. Shoir ayni shu tuyg'ularni juda yaxshi ilg'aydi. “Nido” dostonida ta'kidlaganidek, u mardlik ta'limenti, odamiylikni otasidan o'rgangan. Bugun esa u o'z otasidan olgan insoiylik ta'limenti farzandiga o'rgatmoqda. Endi uning o'zi ota. Endi uning yelkasida ham farzand tarbiyasidek mashaqqatli vazifa turibdi:

“Bugun qarabsizki,  
men ham otaman,  
mening ham o'g'lim bor –  
umid yulduzim”.

Ota sifatida u o'zi ko'rmagan baxtli kunlarni farzandi ko'rishini, u yetimagan niylarga yetishini tilaydi. Unga jahondagi eng laziz narsalarni muhayyo etishni istaydi. Kiprigiga zarra qayg'u inmasligini, baxti bekam bo'lishini tilaydi. Lekin ota sifatida tirikchilik ko'yida:

“Bila olarmikin  
Nadir bu dunyo,  
Yeta olarmikin  
Hayot qadriga?!” -

deya xavotirga tushadi. Shu sabab ham u farzandiga: “Olamni yelkada ko'tarmoq

uchun, Dunyoga keldi, bilsang, erkaklar ”, deya erkaklikning, otalikning mas'uliyatini tushuntiradi. Garchand tanlagan yo'li qanchalik

og‘ir va mashaqqatli bo‘lmasin, o‘z yo‘lidan - chinakam insoniylik yo‘lidan qaytmaslikni uqtiradi:

Mayli, mushkul bo‘lsin sen tanlagan yo‘l,  
Tole ham, mayliga, kelmasin oson.  
Faqat odam qadrin bilar odam bo‘l,  
Bo‘l inson dardini bilguvchi inson.

Muallifning farzandiga nasihatni zamirida chinakam o‘zbek qiyofasi, ruhiyati yotadi. Shoir xalqimizga xos eng ulug‘vor fazilatlarni farzandi qalbiga jo etishni istaydi va ijodidagi *ota obraz* vositasida o‘zining badiiy maqsadini ifoda etadi.

E.Vohidov ijodida obrazlar vositasida milliylikning aks etishini “*ota, ona, bola*” uchligi bilan bog‘lash mumkin. Bu uchlik o‘zbek mentalitetidagi o‘tmish, bugun va kclajak qiyofasini aks ettira olishi bilan xarakterlidir. Yuqoridagi she’rlarda ota-onan obrazni vositasida milliylikning ifodalaniishi xususida so‘z borgan bo‘lsa, bola obrazni ham ayni shunday xarakterdagi obrazlar sirasidandir. Zero, shoir nazdida bolalar millatning o‘zligini o‘zida namoyon etuvchi ertalaridir. Ularni millatning g‘ururi, or-nomusi sifatida ulg‘aytirish, mard va jasur qilib tarbiyalash har bir ota-onaning vazifasidir:

Bolalarni shaytonlardan qo‘rqitmangiz,  
Bobov keldi deb ko‘rpaga berkitmangiz.  
To ulg‘ayib duch kelganda “bobov”larga,  
O‘xshamasin itdan qo‘rqqan soqovlarga.

Odatda, xalqimizda kichkina bolalarni uxlatish uchun “ana, bobov keldi” tarzida qo‘rqtib uxlatish odati bor. Shoir bu holatni qoralaydi. Farzandlarni mard va botir qilib tarbiyalash joizligini, dushman qarshisida mardlarcha turishga o‘rgatish kerakligini xalqning o‘z voqelikliklaridan kelib chiqqan holda tushuntirib beradi. Biroq mardlik, qo‘rmaslik kabi fazilatlarni andishasizlik va shaddodlik bilan aralashtirib yubornaslikni ta’kidlaydi:

Bolalarni shaddodlikka o‘rgatmangiz,  
Rahmsizlik, bedodlikka o‘rgatmangiz.  
To ulg‘ayib, duch kelganda insonlarga,  
O‘xshamasin andishasiz shaytonlarga.

Ko‘rinib turganidek, shoir bolaga o‘zbekona tarbiya usulini, andisha va odobni bolalikdan, yoshlikdan singdirish joizligini ta’kidlagani holda milliy xususiyatlarimizning lirikada o‘ziga xos tarzda akslanishiga erishadi. Zero, bola qalbi ko‘zgudan-da tiniq. Unda hamma narsa boridek ko‘rinadi. Bola tarbiyasi aslida insonning ko‘zgusidir. Bolaning

tarbiyasida ota-onaning qiyofasi namoyon bo'ladi. Shu bois ham: "Jamiyatda sodir bo'ladigan hodisalar dastavval bolalar yuragida aks sado topadi. "Aldagani bola yaxshi" deymiz, lekin bolalarni aldarbo'lmaydi. Kattalar yolg'onga, soxtalikka ko'nishi mumkin, lekin bola qalbi ko'nmaydi. U kattalarning va'da berib bajarmasligini, birovga bir gapni, boshqa odamga ikkinchi gapni aytishini, so'zi bilan qilar ishi o'rtasida tafovut bo'lishini ko'tarolmaydi. Bunday holga u chidamaydi, yuragi vayron bo'ladi"<sup>51</sup>. Bola yuragining vayron bo'lishi jamiyatning tanazzuliga-da sabab bo'lishi mumkin. Jamiyatdagi illatning bola obrazida aks etishi jihatidan shoiring "Shum bola" she'ri nihoyatda katta ahamiyatga ega. Yangi zamon "Shum bola"si tilidan aytilgan:

Fazilatim ko'pdir, yana  
Aybimni ham aytganman.  
Lekin endi yangi zamon,  
Men yolg'ondan qaytganman.

"Adabiyot hayot darsligi sifatida o'z vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi uchun juda yuksak estetik qimmatga ega bo'lishi, ya'ni badiiy jihatdan mukammal va barkamol bo'lmoq'i kerak. Hayotni yuzaki tasvirlagan, chuqur va salmoqli fikrlardan xoli bo'lgan, sun'iy va uydirma voqealar asosiga qurilgan o'rtamiyona asarlar hech qachon kitobxonning hayotida biron sezilarli iz qoldirmaydi"<sup>52</sup>, deb yozganida Ozod Sharafiddinov naqadar haq ekanligi Vohidovning ayni shu she'rida o'z ifodasini topgandek bo'ladi. Zero, bu she'r hayotning chinakam qiyofasini ochib berishi asnosida o'quvchini tarbiyalaydi, kamolot sari yetaklaydi. Jamiyatdagi muammoni bola obrazi orqali yoritib berar ekan, o'qirmanga fojianing asl kuchini anglatgandek bo'ladi:

Chunki endi yolg'onnéni hech  
Aybgina deb bo'lmaydi.  
Aldaganni balo urmas,  
Aldangan ham o'lmaydi.

Aslida, yangi zamon "shum bolasi" tilidan aytilgan bu fikrlar orqali shoir millatning sojiasini ifodalaydi. Millatning ruhi, millatning ertasi bola ruhiyatida yashashini inobatga olgan shoir millat qiyofasini, milliy an'analarni bola obrazida poetik tarzda ifodalaydi.

Shoir imkon qadar har bir obraziga milliy ruhni, qiyofani singdirishga intiladi va ayni shu holat Erkin Vohidov ijodidagi obrazlarning umrboqiylik xususiyatini ta'minlaydi. Zero, "san'atkor

<sup>51</sup> Вохидов Э. Бола калон – бегубор олам. Т.Шарқ. 2018. Б.140

<sup>52</sup> Шарифидинов О. Оламингъ калби. –Ташкент. Манзария, 2014. – Б.43.

ijodida, uning chinakam asarida milliylik va umuminsoniylik bir vujuddan oziqlanadi. Milliylik qanchalik chiqur va yorqin ifodalalarni, unda umuminsoniy xislattlar shunchalik ulug' va ta'sirchan qudrat kash etadi, million-millionlarni insoniylik yo'lida hamkorlikka chorlaydi, qalblar va onglarni birlashtirib egzilikka, komillikka yetaklaydi”<sup>53</sup>.

Xulosa qilib aytganda, E.Vohidov ijodidagi *Bola, Inson, Ota-onu, Do'st* kabi obrazlar tom ma'nodagi milliy xarakterga, milliy qiyofaga ega bo'lgan obrazlar sirasidan bo'lib, ularda shoirning Vatan va millat taqdiriga munosabatini, muhabbatini o'zida namoyon etadi. Muallif an'anaviy obrazlarga yangicha ruh, yangicha g'oya yuklaydi. Ularda o'zbek qiyofasi, o'zbek ruhiyati yashaydi, qolaversa, umumbashariy mazmunni o'zida aks ettirishi bilan yanada yuksak badiiyat kasb etadi. Laylo O'sarovaning: “Shoirlik iste'dodining tabiatи borliqdagi o'zgalar ilg'ay olmagan, hatto ilg'ashi mahol bo'lgan qonuniyatlarni, sirsinoatlarni anglay bilish va mahorat bilan badiiy talqin etishda yaqqol namoyon bo'ladi”<sup>54</sup>, kabi fikrlari ayni Erkin Vohidov uchun aytigandek nazdimizda. Boisi shoir obrazlar zamiriga jamiyatdagi eng nozik masalalarni singdirib yuboradi, obrazlar vositasida inson qalbining hamma ham ilg'ashi dushvor bo'lgan inja tuyg'ularini aks ettiradi va o'zining chinakam shoirlik pozitsiyasini namoyon etadi.

## 2.2. Milliy ruhning Vatan va xalq obrazlarida aks etishi

Haqiqiy ijodkor, odatda, chinakam vatanparvar va millatparvar bo'ladi. Chunki ana shu ikki fazilatsiz badiiy ijodni ham, ijodkor shaxsiyatini ham tasavvur etish qiyin. Chinakam shoir yoki adib hech qachon xudbin bo'la olmaydi. Iste'dodning asl tabiatи Vatan va millatga muhabbatni taqozo etadi. Erkin Vohidov butun vujudi hamda qalbi bilan Vatani va xalqini sevdi. Ona yurtga, jonajon xalqiga bo'lgan muhabbatini yuksak badiiyat namunasi hisoblangan asarlarida chin ixlos bilan vasf etdi. Shuning uchun ham shoir ijodida Vatan va xalq obrazlari yetakchi mavqega ega. Olim I.G'afurov Erkin Vohidov she'riyatida Vatan va Xalq mavzusining ifodalaniishi xususida alohida to'xtalgani holda, quyidagi fikrlarni bildiradi: “Erkin Vohidov she'riyatida vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak axloqiylik va mumtoz ma'nodagi adab muhitini yaratadilar, shu ma'noda, uslub hosil qiluvchi unsurlar kabi she'r mundarijasi ichida harakat qiladilar”<sup>55</sup>.

<sup>53</sup> Умурев Х. Адабийшунуслик низарияси. Т. Ҳилк мероси. 2004. Б. 98

<sup>54</sup> Усарова Л. Аблулла Орипов шеъриятидаги миллий рух ифодаси: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2020.Б.87

<sup>55</sup> Гафуров И. Юлдуз шуъласи. Нисон ўзиниг. Т.Ўзбекистон. 2022. Б.108.

Ko'rinib turibdiki, bu mavzu shoir ijodida hattoki uslubning xususiyatlarini o'zida aks ettirgan mukammal mavzu darajasiga ko'tariladi, obrazning o'ziga xos elementlarini ifodalaydi.

"San'at va adabiyotdagi obraz jonli harakati, jozibadorligi va yorqinligi bilan o'zida hodisaning qonuniyatini asosli va chuqur mujassam qilgani va hokazo xususiyatlari bilan farq qiladi. Demak, adabiyotga hayotning hanuma (inson, narsa-buyum, hayvon, hodisa, predmet, o'simlik; ko'chma ma'no beruvchi so'zlar, iboralar, leksik resurslar, ifoda vositalari kabi) unsurlari kirar ekan, kirganda ham san'atkori ongi va qalbida jilolanib, boyib, kattalashib, eng muhim, insonlashib muhrlanarkan – ularning barchasini obraz deb yuritish qonuniyatdir"<sup>56</sup>. Ayni shu o'rinda obrazning insonlashuvi degan ifoda e'tiborimizni tortadi. Bu sifatni obrazning jonli bir butunlikka aylanishi deb qabul qilish mumkin. Boisi obraz ta'sir kuchiga ega. Obraz insonni yig'latishi, kuldirishi, o'yga toldirishi, yaxshilikka chorlashi mumkin. Shu jihatdan obraz tirik organizm, go'yo bir inson bajargan funksiyalarni bajarish imkoniga ega. Bunday kuchga faqatgina badiiy mukammal obraz ega bo'la oladi. Shu jihatdan Erkin Vohidov ijodida Vatan va xalq obrazi qaysidir ma'noda tirik organizmga aylangan. "Hayotda bir-biriga aynan o'xshaydigan odam, barg, qor uchquni bo'limganidek, xislatlar ham, fazilatlar ham betakror ekan, badiiy obrazlar olami ham xuddi hayot kabi turfa xildir. Shunga binoan, obrazlar rang-barang, boy, ko'p qirralidirki, bu o'z navbatida, har bir obrazning xarakterli aniq qiyofasi, o'ziga xos original qilig'i, odati, o'yi, orzusi, tili, muhokamasi, mushohadasi, ma'naviyati, madaniyati, salohiyati bo'lishligini taqozo qiladi; individualashirish qonuniyatini ishga tushiradi: o'ziga xoslik kashf etiladi, ta'kidlab ko'rsatiladi, esda qoladigan qilib tasvirlanadi. Ana shundagina individual obraz jonliligi va tabiiyligi, hayotiyligi va betakrorligi bilan kitobxon qalbidan joy oladi"<sup>57</sup>. Shoir ijodidagi Vatan va xalq obrazlari ayni shunday katta kuchga ega.

Erkin Vohidov she'riyatidagi Vatan va Xalq obrazlari tipik qiyofaga ega. Ularda millatning qiyofasi, orzu-umidlari, armonlari aks etadi. Bu obrazlar o'zbek millatining yoshlarini, keksalarini – butun millat qiyofasini ochib beradi. Zero, adabiyotdagi eng o'lmas mavzulardan biri Vatan mavzusidir. Bu mavzu necha asrlik taraqqiy bosqichiga ega. Adabiyotshunos olim U.Hamdam ayni shu mavzuning

<sup>56</sup>Умуроев Х. Адабиётшунослик натарнеси. Т.Шарқ. Дарсланк. 2002. Б.30  
<sup>57</sup>Уша асар. Б.31

taraqqiy bosqichi xususida quyidagicha fikrlarni bildiradi: “Cho’lpon yuragi o’rtanib va yuraklarni o’rtatib kuylagan, Oybek va Hamid Olimjonda yuksak pafos bilan tarannum etilgan Vatan mavzusidagi she’rlar zanjirini olaylik. Axir, Abdulla Oripovning «O’zbekiston» yoki Erkin Vohidovning «O’zbegin» singari o’zligimiz, yurtimiz haqidagi yuksak taronalar aynan yuqoridagi an’analarning davomi sisfatida dunyoga kelgan. Chunki she’riyatda «Vatan» mavzusi o‘z-o‘zidan bino bo’lgan emas, balki badiiy tafakkur tarzida sodir bo’lgan muayyan harakat-o’zgarishning mahsuli bo’lib tug’ilgan. Insonning o’zi yashab turgan makonni Vatan darajasida anglash uchun ham u ana shunday ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshidan kechirgan bo’lishi zarur”<sup>58</sup>. Olim bir qancha she’rlar qatorida Erkin Vohidov she’riyatidagi “O’zbegin” qasidasini alohida ta’kidlamoqda va bu she’rni badiiy tafakkur tarzida sodir bo’lgan o’zgarishning natijasi o’laroq baholamoqda. Chindan-da ushbu lirik asarda tamomila yangi nafas, yangi ruh seziladi, chinakam o’zbekning, millatning qiyofasini badiiy aks ettiradi.

Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o’zbegin ,

Senga tengdosh Pomir-u, oqsoch Tiyonshon, o’zbegin.

Millat va Vatan qiyofasi ortiqcha bo‘yab-chaplashlarsiz, alqovlarsiz, nihoyatda samimiyl badiiy til vositasida tasvirlanishiyoq o‘quvchi ko‘z o‘ngida 60-yillar she’riyatining o‘ziga xos qiyofasini namoyon etadi, Vatanga muhabbatning o’zbekona ifodasini ko‘rsatib beradi: “60-yillargacha she’riyatda urf bo’lgan “ura-

urachilik” o‘rnida butunlay boshqa bir mohiyatli poeziya – mung to‘la bir she’riyat tug‘ilib keldi. Bu she’riyat yana insonparvar va haqiqatparvar bo’lib maydonga tushdi. 60-yillar avlodi she’riyatining bosh xususiyati ana shunday edi”<sup>59</sup>.

Erkin Vohidov to’plamlarini varaqlaganda, ayni shu kabi balandparvozlikdan holi turli shakl va turli mavzularda bitilgan

<sup>58</sup>Хамдамов У. Бадий тафаккур таррижи. Яшни аср айлоди, 2002. Б.62.

<sup>59</sup>Уша жойда. Б.62.

<sup>60</sup>Уша жойда. Б.62.

<sup>61</sup>

Шароғиддинов О.Талант ва маъсуллик. Сўз сеҳри. Э.Вохидов хаётига чиёғитар. – Т., 2006 . Н.5.

she'rlarda O'ZBEK nomining mangulik sahifalariga muhrlanganini kuzatish mumkin. Haqiqatan, shoir butun borlig'i bilan o'zbekning, O'zbekistonning farzandi. She'rlaridan birida samoga uchish taklif qilinsa, o'zi bilan butun VATANini olib uchishini, uning tog'lari-yu bog'lari, bir kaft tuprog'isiz, kuy-navosisiz, Hofizning munojoti-yu Navoiy va Fuzuliy she'rlarisiz uchmoqqa rozi emasligini ona yurtga muhabbat sifatida izhor etadi.

Shoirning ko'plab satrlari qo'shiq bo'lib, xalq mulkiga aylangan. E.Vohidovning qaysi she'ri yoki dostonini o'qimaylik, unda ijodkor o'z xalqining fidoyi farzandi sifatida bo'y ko'rsatadi. "Agar Vatanga muhabbat o'zi mansub xalqqa muhabbatdan kelib chiqishining anglanishi ilk qadam bo'lsa, bu she'rlarda Vatan muhabbatiga sabab bo'lgan hadaf konkretlashadi"<sup>60</sup>. Demakki, Erkin Vohidov ijodida uning Vatanini sevishga sabab bo'lguvchi eng muhim qiyofa bu millat qiyofasidir. Ayni shu sababga ko'ra shoir ijodida Vatan va millat obrazi doim yonma-yon keladi va ijodkorming yuksak iste'dodi namoyon bo'ladi. Vatan va millat qiyofasini betakror obraz sifatida gavdalantiradi. Shu sabab atoqli adabiyotshunos olim va munaqqid Ozod Sharosiddinov shoirning iste'dodiga yuksak baho berib, "Erkinning talanti avvalo shunda ko'rindiki, u shoirlikning eng zarur xislatiga – shoirona tafakkur qilish, obrazlar bilan o'ylash qobiliyatiga ega",<sup>61</sup> deb yozgan edi. Darhaqiqat, shoir o'ziga xos obrazlar vositasida tafakkur yuritadi, shu sabab she'rlaridagi shiralilik va jozibadorlik o'quvchini o'ziga rom etadi. Ayni shu joziba uning xalq va Vatan haqida yaratilgan she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoirning o'z yurti bilan bog'liq she'riyatida mazmun, shakl betakror badiiyat asosida yuzaga keladi. Bunday she'rlarda ijodkor she'riyatining badiiyatini qaysidir ma'noda tanlangan obraz, uslub, til va mavzu ham ta'minlab beradi.

Uning she'riyatidan xalqning chinakam qiyofasini, ruhiyatini topish, anglab olish aslo mushkul emas. Jumladan, bir she'rida shoir Vatanni sevishni shundai ifodalaydi:

Qulluq qil demasman.  
Yurt tuprog'in o'p.  
Unga qullar emas, fidolar kerak.  
Uning sen-u mendek shoirlari ko'p,  
Buyuk elga endi daholar kerak.

She’rda Vatanga muhabbat o’ziga xos usulda ifoda etiladi. Muallifning so’z qo’llash bilan bog‘liq mahorati ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. “qulluq” va “qul” so‘zini vositasida shoir o’ziga xos badiiyatni yuzaga keltiradi va shu bilan bir qatorda aslida o‘zbekning farzandi qanday ekanligini, xalqning o’ziga xos fe’li-atvorini namoyish etadi. Zero, qulluq qilib yashash ham, qullikka ko‘nish ham chinakam o‘zbekka xos emas. Bunday illatlar uning ruhiyati uchun begona. Bu elga chinakam fidoiylik va shoirlilik yarashadigan xususiyatdir. Muallif tilidan aytilgan: “*Uning senu mendek shoirlari ko‘p*” ifodasidanoq millatning adabiyotga bo‘lgan munosabatini, shoirlilik va she’rga havas uning qonida borligini ko‘rish mumkin.

Erkin Vohidov ayni shu qisqa hajmda millatning, xalqning qiyofasini chizish barobarida uning orzularini va asl ildizlarini ham badiiy jihatdan mukammal tarzda ochib beradi. Shoir juda ko‘plab she’rlarida so‘zlarni mahorat bilan qo’llagani holda badiiy kashfiyot qilish barobarida millatning qiyofasini va qalbini ko‘rsatib beradi. Zero, asarning ham, obrazning ham asl kuchi badiiylikdadir. Shu bilan bir qatorda obrazlilik ham badiiylikning muhim qismidir. Buni adabiyotshunos Dilmurod Quronov ham alohida ta’kidlaydi: “Obrazlilik badiiylikning birlamchi sharti sanalib, u vogelikni badiiy obrazlar orqali idrok etish, badiiy obrazlar vositasida fikrlash demakdir. Obrazlilik san’atning o‘zak xususiyati bo‘lib, u yo‘q joyda badiiylik ham mavjud emas”<sup>62</sup>. Ko‘rinib turganidek, obrazlilik va badiiylik o‘zaro uyg‘unlikda vujudga keladi. Erkin Vohidov lirikasida ayni shu badiiylik va obrazlilik mukammla holatda ifodalanadi. Uning “Beqasam” sarlavhali she’rida ayni shu jihatlar ko‘zga tashlanadi:

Askar shinel kiyar ichganda qasam,  
Qishlog‘iga qaytib kiyar beqasam.  
Ona yurtga qasam ichgan u kunni  
Unutmas kiyganda beqasam to‘nni.

She’rdagi “qasam” va “beqasam ” kabi so‘zlarning istifoda etilishi, qosiya sifatida tanlanishi shoirning so’z qo’llash mahoratni ko‘rsatsa, yurtga qaytib beqasam kiyganida ichgan qasamni unutmaslik ifodasida esa millatning, uning o‘g‘lonlarining va umumlashma obraz sifatida butun xalqning sifatini ko‘rsatib beradi, millat ruhiyatini aksantiradi. Aslini olganda esa: “Erkin Vohidovning o‘nlab she’riy to‘plamlarida Vatan, millat, uning erki, ozodligini ifodalovchi asarlar o‘rin oldiki,

<sup>62</sup>Д. Куриев. Адабиёт таупослиқ лугати. Академиянапр. 2010. Б.45

bularning zamirida lirk qahramonning ruhiy-ma'naviy iztiroblari, o'zlikni anglashga bo'lgan intilishlari go'zal tashbehlar asosida talqin etilgan”<sup>63</sup>.

Erkin Vohidov vatan mavzusini takrir, talmeh san'atidan foydalangan holda betakror misralarda ochib beradi:

Qadim ona bu tuproq  
Turkiston bir, vatan bir  
Bizga jondan azizroq  
Turkiston bir, Vatan bir.  
Al-Beruniy yodi bor,  
Yassaviy faryodi bor,  
Qoshg'ariy ijodi bor,  
Turkiston bir, Vatan bir.

Ijodkor mumtoz she'riy san'at vositasida qaysidir ma'noda Cho'lpon, Fitrat, Qodiriy kabi ijodkorlarning Vatan haqidagi qarashlarini aks ettiradi.

Shoir shu elning chinakam farzandi sifatida uning fazilatlaridan sevinadi, qusur va kamchiliklaridan esa og'rinadi. Shu bois ham ijodkor o'z xalqining ko'zgusi bo'lishni istaydi. Uning qusurlarini tuzatishga urinadi. Ba'zan achchiq til bilan, ba'zan esa yengil mutoyiba bilan xalqimizga xos kamchiliklarni tanqid qiladi. Shoirning “O'zbek bo'lish oson emasdир” she'ri ayni shu mazmun betakror badiiy talqin etilgani bilan alohida ajralib turadi. Inson bolasi har ishning uddasidan chiqishi mumkin, buning uchun g'ayrat va qunt qilsa bo'lgani, uning qonida “bor fe'l – himmati baland, fayz-baraka shu fe'lga monand,...fanda ustoz, hunarda komil”. Biroq unda qator qusurlar ham borki, bu millatning taraqqiyotiga g'ov bo'lib, orqaga tortib turadi. Bu xalq “bolasiga makka, mosh berib, doshqozonda yurtga osh berib, yeguvchimas, yediruvchi xalq” bo'lgani uchun ham “o'zbek bo'lish oson emas”.

Og'iz ochmas kam-u ko'stidan,  
Hasadgo'y ko'p lekin do'stidan.  
Oshini yeb kular ustidan,  
O'zbek bo'lish oson emasdир.

Garchi she'r ifodasida yumor ruhi sezilsa ham, ushbu satrlar shoir qalbidagi iztirob mahsuli ekani yaqqol anglashiladi. Adabiyotshunos olim Naim Karimov Erkin Vohidov ijodidagi ayni shu jihatga alohida

<sup>63</sup> Насиров А. Эркин Вохидов лирикасида Ватан маълуси. Э.Вохидовининг сўз қўллаш маҳорати. Республика оиласи тарбия таҳсилотининг маданият министринига овсанчиликни амалий конференсия материалылари, Гулистон, 2020, Б.35.

to'xtaladi: "Erkin Vohidov o'zbek xalqi bosib o'tgan murakkab tarixiy davrning murakkab sahifalariga nazar tashlaganda ham mavzu-masalani hajviy bo'yoqlar bilan talqin qilishning ustasi farangi bo'lgan"<sup>64</sup>. Kam-u ko'stidan og'iz ochmaslik – o'zbek xarakterining xos xususiyati. Chunki u tabiatan qanoatli, istihola tuyg'usi kuchli bo'lgan xalq. Begonaga dardini dasturxon qilish o'zbek mentaliteti uchun begona. Do'stidan ko'ra unga hasad qiluvchilar ko'pligi sababi ham, ehtimol, shu bilan bog'liqdir. "*Oshini yeb kular ustidan, O'zbek bo'lish oson emasdир*" – bu misralar zamirida millat uchun kuyinish, qayg'urish hissi silqib turibdi. Asta-sekinlik bilan O'zbekning fazilatlari haqida yozishga o'tarkan, ijodkor sifatida bu jihatlarni ham badiiy ifoda etishga muvaffaq bo'ladi:

Millat hissi borki, kurashar,  
Millatman deb jam bo'lib yashar.  
O'z yo'lini tanlagan bashar,  
O'zbek bo'lish oson emasdир.

Shoir keyingi davrda o'zbek xalqi qalbida millat hissi borligi bois taraqqiyot uchun kurashayotgani, birdamlik tuyg'usi kuchayayotgani, o'z yo'lini tanlagani haqida yozar ekan, satrlar tagmatnidan orzulari ushalayotgan ijodkorning ko'ngil sururi anglashiladi.

Vatanida yangi bir vatan  
Qurayotir o'zbek qaytadan,  
Oson emas, takror aytaman,  
O'zbek bo'lish oson emasdир.

Haqiqiy ijodkor millat baxtini o'z baxti deb biladi. O'z xalqini dunyoning mutaraqqiy millatlari safida ko'rmoq istaydi. Erkin Vohidov ham "Vatanida qaytadan yangi bir vatan qurayotgan o'zbek" uchun quvonadi. Bu kabi tuyg'ularini izhor etar ekan, "*O'zbek bo'lish oson emasdир*" misrasi tamomila o'zgacha ma'no kasb etadi.

Erkin Vohidov har bir she'rini, har bir satrini yurak amri bilan, qalb ehtiyoji o'laroq qog'ozga tushiradigan salohiyatli ijodkorlar sirasiga kiradi. Aslida "She'riyat davrning aks-sadosi degan qarash keng tarqalgan. Unda muayyan asos bor. Biroq, chinakam she'riyat davrning aks-sadosi bo'lishi bilan barobar, uning o'zi ham butun boshli o'ziga xos davr, badiiy olam yaratishga qodirdir"<sup>65</sup>. Shu jihatdan shoir avvalo, yozayotganlarini o'zi his qilgani holda, o'zining badiiy olamini yaratadi. Dard bilan ulg'aygan dil izhorlari yurak qoni bilan lolagun bo'lib,

<sup>64</sup> Каримов Н. Эркин Вохидов ва Абдулла Ориповнинг Берлинидаги ижодий кечаси. Инсон йўзиниг. Т.Ўзбекистон. 2022. Б. 305.

<sup>65</sup> Норматов У. Шонкрунинг дарли – эл-юртнинг дарди. Инсон йўзиниг. Т.Ўзбекистон. 2022. Б.93.

o'quvchini ham beixtiyor o'zining g'amiga – millat va xalq g'amiga sherik qiladi. Undan sizib chiqayotgan ohanglar – iztiroblar mevasi. Taniqli shoir Sirojiddin Sayyidning quyidagi satrlari Erkin Vohidov ijod lahzalariga har jihatdan muvofiq keladi:

Ulug' shoirlarning qalbi siyohdon bo'lgan,

Yozsa, yurak qoni bilan yozgan, siyoh – qon bo'lgan

"Og'riqli savollar" she'rida shoir zamondoshlari xarakteridagi loqaydlik, moddiy ne'matlarga o'chlik, dunyoni faqat huzur-halovatdan iborat deb bilish, tirikchilik g'amini hayotining asosiy ma'nosiga aylantirish kabi illatlar bois qalbida kechgan og'ir o'ylarni qalamga oladi. Natijada millatning ertasidan xavotir hissi shoir qalbida iztirob uyg'otadi:

Choyxonada oshxo'rlikni baxt deb bilgan og'ayni,

Shu bir kunlik halovatni naqd deb bilgan og'ayni...

Avvalo, she'rdagi *og'ayni* murojaati e'tiborimizni tortadi. Bu murojaat aslida sof o'zbekona muhitni yodimizga soladi. Boisi, xalqimiz o'rtasida "oshna-og'aynichilik" degan tushuncha bor. Bu holat, albatta, ijobjiy xususiyatlarga ham ega. Ammo og'aynilar bilan qorin g'amida yashab, hayotning mazmunini yoddan chiqarish, faqatgina halqum deb yashash sojiadir. Shoir ayni shunday qorin g'amida yurgan og'aynilarga murojaat qiladi.

Qumursqadek tiriklikdan o'zga g'ami bo'limgan,

Dil olami, ishq olami, ruh olami bo'limgan,

Imonni ham, vijdtonni ham qurban qilgan halqum deb,

Seni xayol qildimmi men kuyganimda xalqim deb?...

Seni deya tiladimmi yuraklarga hurriyat?

Sening uchun istadimmi yurtimga men istiqlol?

Shoir *qorin g'ami, bir kunlik halovat, qumursqadek tiriklik g'ami* kabi tushunchalar *dil olami, ishq olami, ruh olami* singari yuksak tuyg'ular qarshisida hech narsaga arzimasligini, vatandoshlari turmushning mayda tashvishlariga o'ralashib qolganidan ko'nglida kechgan hasratni o'ziga xos tashbehtar, istioralar vositasida ta'sirli ifodalaydi. "Halqum" va "xalqim" so'zlaridagi shakliy ohang jihatdan yaqinlikni san'atkorona qo'llab, millat taraqqiysi yo'liga to'siq bo'layotgan illatlarni keskin qoralaydi. "*Imonni ham, vijdtonni ham*" halqum deya qurban qilganlardan nafratini yashirib o'tirmaydi. "*Seni deya tiladimmi yuraklarga hurriyat? Sening uchun istadimmi yurtimga men istiqlol?*" – deya bunday kimsalar ustidan adabiy hukm o'qiydi.

Bu kabi savollar bilan to'lib-toshgan bezovta yurakning alamlari she'r so'ngida hayqiriqqa aylanadi:

G'ofil xalqim! Tinglarmanmi sening na'ra - uningni,

Ko'rmanmi zuluklardan ozod bo'lgan kuningni?

Oradan ko'p ham o'tmay, shoir elining istiqlol nashidasidan sarmastligini ko'rish baxtiga muyassar bo'ldi. Biroq ayrim insonlarning fe'lida inqilob yuz berishi mushkul.

Erkin Vohidov haqidagi xotiralarda uning nozik fahm-farosat egasi, did borasida o'tkir fasolat sohibi ekanligi eslanadi. Shoirning sobitqadamlik, zahmatkashlik, adolatsevarlik va rostgo'ylik, katta bilim va ma'rifatga egalik, oljanoblik, vazminlik va bardoshlilikning timsoliga aylangan lirik qahramoni ijodkorning shaxsiy xususiyatlarini o'zida jamlagan poetik obrazdir.

Erkin Vohidov asarlarida hamisha bir qizil chiziq bor: bu shoirning millat g'amida jonsarakligi, xalq tashvishida, uning ertasi uchun qayg'urishida o'z halovatini tan olmasligi aks etgan misralardir.

...To tirikman, seniki bo'lsin

Umrим, she'rim, yuragim, jonim! -

satrlaridagi fidoyilik shunchaki moddiyatga nisbatan jon berish emas! Bu shunchaki uni sevib, ardoqlab, muhabbatini izhor qilib yashash emas! Bu shu xalqning non-tuzini yeb katta bo'lgan bir insonning yelkalarida turgan ulug' mas'uliyat! Ertaga avlodlari ajdodlariga munosib bo'lishi uchun umrini sarbag'ish etgan fidoyi, vatanparvar bir shaxsning qalb iztiroblari! Shoirning qalbi, "gapga ko'nmas" yuragi "tramvay yo'li" singari chizib qo'yilgan yo'ldan yurishni istamaydi, chunki "u yurak bo'lib tug'ilgan isyon", u - isyonkor yurak - muallifning

Talpinma, ey ko'ngil,

Sen gapga ko'ngil!

Axir makonimiz tramvaydadir!

deya qaytarishlariga bo'ysunmaydi, hayotdagи nomuvofiqliklarga qarshi bosh ko'targisi, qog'ozdagи farmonlarning hayotda ham ijobatini ko'rgisi keladi, xalq baxtini - HURRIYaTini ko'rish uning bosh maqsadi:

Bas, yetar yolg'on saodat, yolg'on erk, yolg'on vatan

Hurriyat zavqini chin surmoqni istaydir ko'ngil.

Shoir Vatani hurriyatga erishsagina baxti butun bo'lishini yaxshi angraydi. Shu sabab ham hurriyat shunchaki qog'ozda yoxud og'izda

bo'imasligi kerakligini, hurriyatni eng avvalo, inson qalbi anglashi, his ctishi jozligini yozadi. Zero, uning hayot falsafasi, kundalik shiori bu:

Odami ersang demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami!

Erkin Vohidov "*To tirikman, seniki bo'lsin Umrim, she'rim, yuragim, jonim!*" misralarini bitar ekan, hazrat Navoiy kabi elga mehr qo'yib, el-ulus baxtini o'z baxti, g'amini o'z g'ami deb bildi va Vatanini, xalqini komil baxt og'ushida ko'rsam, degan ulug' niyat bilan yashadi, buning uchun har kuni, har lahzada kurashdi, qalamidan millat erki, hurriyatini insho qilgan manzumalar yog'ildi va bu soflik beruvchi naysonlar xalq, millat ko'ksida milliy G'URUR tuyg'usini ulg'aytirdi.

Uzoq hayot yo'lin o'tdim-u bosib,

Olam haqiqatin ayladim yakun.

Kim erk, hayot uchun jang qilsa har kun,

Erk-u hayot uchun o'sha munosib.

Anglash mumkinki, erk va hayot uchun har kun jang qilib, muttasil ravishda kurashgan shoir Vatanni ko'klarga ko'tarib madh etish, o'zini chin vatanparvar sifatida namoyish etish fikridan uzoq bo'lgani aniq. Hayot haqiqatini ifodalash – shoit estetik tutumining asosini tashkil etadi.

Professor Nurboy Jabborov Navoiy hazratlarining elparvarlik ruhida yozgan misralari tahvilida shunday yozadi: "O'zi mansub bo'lgan ulug' elga mehr qo'yish, el-ulus baxtini o'z baxti, g'amini o'z g'ami deb bilish shaxs kamolotining muhim shartlaridandir. Komillik timsoli bo'lgan hazrat Navoiy asarlarida bu g'oya yetakchi mavqeda turadi. Birgina misol:

Erur chun olam ichra joh foni, yaxshi ot boqiy,

Bas el komin ravo ayla o'zungni komron ko'rgach.

Ya'ni mansab, martaba-yu, mol-dunyo – vaqtinchalik, yaxshi nom esa abadiy. Shunday bo'lgach, o'zingni komron ko'rgan, ya'ni baland mavqega erishgan chog'ingda o'zgalar hojatini ravo aylamoqni odat qil – mana, ulug' donishmand nima demoqchi! Aslida, haqiqiy elparvarlik ham shuni taqozo etadi".<sup>66</sup>

Elining taraqqiy etishi uchun, uning jahon xalqlari qatorida o'ta yuksak ma'naviyat va ma'rifatli bo'lishi uchun, hayotda mayda tashvishlar, gap-so'zlardan baland pog'onalarda yurishi uchun kuyunib yozadi shoir. Erkin Vohidov "Darddoshlik", "Dangasalar", "Nega yapon

yuz yil yashar...”, “O’zbek Navoiyni o’qimay qo’ysa”, “Sen menga tegma”, “Hazrati Hizr va zamon ayoli”, “Aql topmading” kabi qator she’rlarida millat taraqqiyotiga g’ov bo’lib, uni arzimas tashvishlar bilan yuksak cho’qqilar sari intilishdan chalg’ituvchi ikir-chikirlar bilan band bo’lmaslikka chaqiradi. *Ko’z-ko’z qilib uy qurgan, tom yopsa-da nafs og’zin yopolmagan, qo’li hech kitob ushlamagan qahramonini*

Yashamading dunyoda hisob,  
Pul topding-u hikmat topmading,-

deb muztar qiladi.

“XX asr boshida ma’rifatparvar shoirlarimiz millat oyog’iga zanjir o’laroq, uni jaholatga tortgan ko’pgina urchodatlarga qarshi keskin kurashgan. Ular bu nuqsonlarni millat yuziga ochiqdan ochiq, achchiq tilda aytgan”.<sup>67</sup>

Shoir —o’zbekona urchodatlarga, to’y-ma’rakalar hayot tarziga aylangan millat farzandi. Biroq INSON atalmish buyuk zot aziz umrining kattagina qismini — qaytmas lahzalarini — ana shu hoyu havaslarga sarf etib yuborayotgani avlodlar oldidagi mas’uliyatni mensimaslik, hayot imkoniyatlarini boy berish, behuda isrof etishdir. Erkin Vohidov millat taraqqiyotiga g’ov bo’lib, ma’rifat gulshani o’rniga g’aslat o’chog’i atrosida kuymalanayotgan elga achinish tuyg’usi bilan quyidagi misralarni tizadi:

Qumursqadek tiriklikdan o’zga g’ami bo’limgan,  
Dil olami, ishq olami, ruh olami bo’limgan,  
Imonni ham, vijdonni ham qurban qilgan halqum deb,  
Seni xayol qildimmi men kuyganimda xalqim deb?

Iymonni hayot dasturining bosh mezoniga mengzash azal-azaldan o’zbek xalqining yashash qoidalardan mustahkam joy olgan. Toki iymon yo’qotilar ekan, insonning yorug’ olamga topgan amallaridan tariqcha naf yo’q. Navoiy g’azaliyotining musaffo havosidan nafas olgan ijodkor iymon xususida ulug’ shoirning tafakkuriga monand fikr yuritadi.

Boqiy olamda ham yuksak martabalar sohibi bo’lmish mo’tabar ajdodlar, avvalo, iymon sobitligi sabab ikki olam saodatiga erishganlar. Iymon sustligi, nomukammalligi bois zamondoshlarining turfa xil qilmishlaridan norizo shoir millat yuksalishi yo’llida ulug’ maqsadlar bilan harakatlanishga undaydi. Shoiri davronni tashvishga solayotgan

<sup>67</sup>. Бу обод кунларга сайдик сог’омон...” Ўзбекистон Қаҳрамоноти халқ шоирин Эркни Воҳидов билан Шуҳф Мухиддин сўхбати. “Тифаккур” журнали, 2011 № 3. Б. 5.

ayrim kishilarning tutgan ishlari, xatti-harakatlari jon fido qilib “xalqim” deyishiga arzimasligidan kuyib-yonadi.

Umrida hech qilgan emas mulkdan o‘zga bir niyat,  
Seni deya tiladimmi yuraklarga hurriyat?

Muallif yurak hissiyotlarini qog‘ozga tushirar ekan, o‘zi e’tirof etganidek, “Aslida she’r nasihat, targ‘ib-u tashviq emas, yurak tebranishlari ekanini unutamiz”.<sup>68</sup> Ana shu yurak sadolarini anglash uchun, millat mulkiga aylantirish uchun, har bir o‘zbekning qalbidan joy olishi uchun bugun qator-qator ijod maktablari ochilib, ularda millat faxriga aylanishi kerak bo‘lgan iste’dodlar asl adabiyotimizning ildizlaridan suv ichib tahsil olmoqdalar.

“She’riyat dunyo darajasiga, adabiyot darajasiga chiqqan paytdagina katta she’riyat bo‘ladi, deb o‘ylayman. She’riyat umumixalq mulkiga aylansa, uni dehqon ham o‘qisa, akademik ham sehridan bahramand bo‘lsa, har biri o‘zlari darajasida tushunib yetsa, men o‘sha she’riyatni hurmat qilaman”<sup>69</sup>”, - deb ta’kidlaydi shoir. Adabiyotning ulkan ummonlaridan babra topgan va milliy adabiyotimizni ham jahon adabiyoti sahnalarida jaranglashga loyiq deb bilgan shoir “Men xalqimga hamisha kamolot tilayman. Shu zamonda yashab turganlar orasida yuksak fikrlilardan bo‘lishini, shunday darajaga erishishini va kitobga, jahon adabiyotiga munosabati, madaniyatga munosabati yuksak bo‘lishini orzu qilaman”, deydi. Bu tilak butun o‘zbek millatini asrlar osha ruhlantirib, baland cho‘qqilarga undaydi. Zero, shoir aytolmagan so‘zlari, o‘z vaqtida yozolmagan she’rlari uchun o‘ksinadi, afsuslanadi:

Agarchi ismmim Erkin,  
Erki yo‘q, bandi kishan bo‘ldim.  
Ko‘zim bog‘liq, dilim dog‘liq,  
Tilim yo‘q, besuxan bo‘ldim.

Ayni misralar orqali shoirning millat va vatan oldidagi mas’uliyati aniq namoyon bo‘ladi. U Vatan taqdiriga o‘zini dahldor deb bilgani holda, mustabid tuzum davridagi ruhiy holatini nadomat bilan yoritib beradi. Vatan haqida so‘z ketar ekan, shoir qalbida faxr, mas’uliyat, og‘riq kabi tuyg‘ular yonma-yon yashaganiga guvoh bo‘lamiz. U millatning nafaqat, shoiri, balki farzandi, fuqarosi ekanini har bir she’rida yaqqol ko‘rsatib turadi. “Ona xalqiga faqat she’rigina emas, balki o‘zi ham kerakligini chuqur his etib yashash istagi Erkin

<sup>68</sup> Эркин Ваҳидов сабоқлари. Сўзбоши. Алишер Навоийномидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси шашриёти, 2016. . Б. 93.

<sup>69</sup> Эркин Ваҳидов сабоқлари. Сўзбоши. Алишер Навоийномидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси шашриёти, 2016. . Б.161.

Vohidovni hamisha ana shu avlodning oldingi safida yurishga undadi. Shoir ijodining ilk qadamlaridan ijodkorlik va fuqarolik mas'uliyatini chuqur his etib, uning zalvorli yukini ongli ravishda zimmasiga ortgan holda yashab va ijod qilib keldi”<sup>70</sup>.

Shoir - hassoq qalb egasi. O'zbek xalqiga xos fazilatlarning jami unda mujassamday go'yo. “Unga ilhom, fasohat va fazl nurlari ergashib yuradi...Allaqanday insoniy joziba, nazokat, madaniyat va odob-ikrom unda tug‘ma tarzda shu'lalanib turardi”, - deb yozadi adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov “Mangu latofat” asarida.<sup>71</sup> Shoir kitoblarini varaqlar ekansiz, har bir she'r, har bir misrada ana shu jozibani his etasiz. “Iltijo” she'riga diqqat qilinsa, tirkilik va undagi har ne'matga: hayot atalmish mo'jiziy qudrat, qalbda jo'sh urgan vatan mehri, maslak-u e'tiqod, yorug' ishonch uchun, hayotini “to'lug‘ va raso” qilgan she'riyat uchun, qalbini yondirgan muhabbat va do'st-yorlari uchun shukronalik izhor etadi.

Ijodkor lirikasini poetik shakl yangilanishi va milliy ruh ifodasi uyg'unligiga ko'ra ikki guruhga ajratilib tahlil etish mumkin:

1) an'anaviy shakllarga milliy ruhni singdirish; 2) shakllarning noan'anaviyligi zamirida milliylikning aks etishi. Shoir asarlarida milliylik xossalaring badiiy talqini, birinchidan, milliy ruh ifodasida mumtoz nazmning yetakchi tizimi bo'lgan aruzda samarali ijod qilgani va uni davr she'riyati talablariga ko'ra yangilagani, ikkinchidan, g'azal, qasida, muxammas kabi mumtoz poetik janrlar imkoniyatlaridan san'atkorona foydalangani, uchinchidan, ushbu janrlarga novatorona yondashib, ularni grafik jihatdan yangicha shakllantira bilgani, to'rtinchidan, tatabbu va tazmin vositasida salaflar ijodiy tajribalarini poetik sintez qilganikabi tamoyillar vositasida namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi.

## II BOB YUZASIDAN XULOSA:

- Erkin Vohidov she'rlaridagi obrazlarni milliy ruh ifodasi xususiyatlarga ko'ra to'rt guruhga ajratib o'rganish mumkin: inson, do'st, ota-onha va bola obrazlari. Ushbu obrazlar o'zbek ruhiyatini to'laqonli aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur obrazlarning asosiy xususiyatlari, birinchidan, millatning asl tabiatini, o'ziga xos tiynatini mujassam etishi bilan izohlansa, ikkinchidan, umumbashariy ahamiyatga ega ekani jihatidan ahamiyatlidir.

<sup>70</sup> Солижонов Й. Сиддиккон Мўминов. Эркин ўтлинигман, Ватан!. Фарғона, 2016. Б.10

<sup>71</sup> Гафуров Иброҳим. “Машгулитафат”. Т., . Б.89.

- Milliy ruhning poctik vogelanishida badiiy obraz asosiy o'rinni egallaydi. Erkin Vohidov she'rlaridagi obrazlarni milliy ruh ifodasi xususiyatlariga ko'ra to'rt guruhga ajratib o'rganish mumkin: inson, do'st, ota-onas va bola obrazlari. Ushbu obrazlar o'zbek ruhiyatini to'laqonli aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur obrazlarning asosiy xususiyatlari, birinchidan, millatning asl tabiatini, o'ziga xos tiynatini mujassam etishi bilan izohlansa, ikkinchidan, umumbashariy ahamiyatga ega ekani jihatidan ahamiyatlidir.

- Erkin Vohidov she'riyatidagi Vatan va xalq obrazlari tipik qiyofaga ega. Ularda, birinchidan, millatning surati va siyrati, orzu-umidlari hamda armonlari aks etsa, ikkinchidan, xalqi zamondan, taraqqiyotdan ortda qolayotgani bois shoir qalbida kechgan o'kinch va iztirob badiiy talqin etilgan. Jumladan, "Qulluq qil demasman. Yurt tuprog'in o'p..." satrlari bilan boshlangan she'ridda shoir "Unga qullar emas, fidolar, Buyuk elga endi daholar kerak"ligini ta'kidlar ekan, "qul" va "qulluq" so'zlari orqali shoir o'z idealidagi o'zbek obrazini yaratadi. Xalqining ozod va ma'rifatli bo'lishi bilan bog'liq orzularini ifodalaydi. Millatining "bolasiga makka, mosh berib, doshqozonda yurtga osh berib, yeguvchimas, yediruvchi xalq" bo'lgani uchun ham "o'zbek bo'lish oson emas"ligini ta'kidlagan shoir o'zbek xarakterining xos kamu ko'stidan og'iz ochmaslik, do'stidan ko'ra hasadgo'y, oshini yeb, ustidan kulguvchilar ko'pligi haqida yozar ekan, yuragini og'ir bir dard kemiradi, qalbini iztirob yaralaydi. Bu esa, shoirning xalq obrazi talqiniga differensial yondashganidan dalolat beradi.

### III BOB. MILLIY RUH TALQINIDA XALQ TILI VA MUMTOZ POETIK IFODANING ESTETIK VAZIFASI

#### 3.1. O'zbek ruhiyati ifodasida xalq tilining ahamiyati

Xalqona til millat ruhiyatini ifodalashda alohida ahamiyatga ega. Chunki bunday ifoda uslubi, birinchidan, poetik mazmunning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchidan, o'sha mazmunning yengil, xalqona ohangda bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, badiiy asardagi g'oyaning o'quvchi qalbi va shuuriga tezroq yetib borishida muhim o'rinni tutadi. "Adabiyotshunoslik lug'ati" mualliflarining fikricha, "Uslubda namoyon bo'lувчи ijodiy individuallik badiiy asarning barcha sathlarida (badiiy matnning tuzilishi – ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari – poetika) birdek ko'zga tashlanadi. Ya'ni uslub badiiy shaklning unsuri emas, balki unga xos xususiyatdir. U asardagi shakl unsurlarining o'z holicha emas, balki muayyan qonuniyat asosida yaxlitlikka birikishini ta'minlaydi, har bir unsurning butun tarkibidagi mohiyati va funksiyasini belgilaydi" <sup>72</sup>. Ushbu nazariya xalqonalikka nisbatan qo'llansa, unda xalq tiliga xos ifoda tarzi, voqelikni tasvirlashning xalqona yo'li, xalq ruhini mujassam etishi ravshanlashadi.

Eng avvalo, Erkin Vohidov ijodida xalqonalikni hosil qiluvchi jihatlami quyidagicha tasniflash mumkin:

- ✓ Vazn
- ✓ Til
- ✓ Shakl
- ✓ Badiiy vositalar (mutoyiba, maqol, hikmat va h.z)

Ayni shu vositalar Vohidov she'riyatidagi xalqonalikni ta'ninlovchi eng muhim jihatlardir. Avvalo, Erkin Vohidov asarlarining tahlili uning chinakam vatanparvar, o'zbek xalqining jonkuyar, fidoyi farzandi, millatparvar shoir bo'lganidan dalolat beradi. Shu jihatdan uning ijodida xalqonalilik yetakchilik qiladi. Ijodkor yuksak ideallarni ko'zlab yashadi, bu yo'lda buyuk Alisher Navoiyni o'ziga ustoz deb bildi. Ulug' mutafakkir san'atxonasidan milliy ruh ifodasi borasida munosib saboqlar oldi. Asarlarida Vatan va millatning yorug' istiqboli haqidagi

<sup>72</sup>Курилов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Ташкент: Академкнип, 2013. – Б. 341.

orzularini betakror badiiyat bilan ifodaladi. Taraqqiyotga to'siq bo'lувчи illatlardan kuyindi, ko'ngil iztiroblarini yolqinli satrlarda talqin etdi. Shoir Vatan va xalq tushunchasini bir-biridan ayro tasavvur etolmaydi. Uning uchun xalqi, millatining to'ylari-yu azasi, shodmon va qayg'uli kunlari Vatan tushunchasi bilan uyqashib ketadi. Tanti va olijanob, zakiy va so'zga usta odamlarimiz bilan bir qatorda xiyol afanditabiat kishilarning borligi uning uchun hajviy uslubdag'i manzumalar yaralishiga ilhom beradi. Shoirlikning shunday chtiroslis, hayajonli lahzalarida tanti xalqimizning ajabtovir qiliqlari sabab "Donishqishloq latifalari" yarałgan bo'lsa ne ajab?!

Har bir davrning o'z muammolari bo'ladi. Bir davr uchun kulgi sanalgan voqeа-hodisalar boshqa davr uchun jiddiy hisoblanishi mumkin. Adabiyot bu muammoлarni hal etishda ba'zan o'tkir kulgi - satira yo'lidan borib, ba'zan yengil mutoyiba - humor orqali ta'sir qiladi. Hajviyot jamiyatni isloh qilishda, tartibga solishda, qadriyatlarimizni saqlashda milliy munosabatlarimizning muhim xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek xalqi - zarif tabiatli, o'tkir zakovatli, hazilga o'ch xalq. Shu sabab eng qadimgi davr og'zaki adabiyotimizda ham hajviy yo'nalishga katta e'tibor berilgan. Zero, kulgi ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lib, xalqimiz yaratgan og'zaki adabiyot namunalarida kulgingining inson aqli va ruhiga quvvat berishi o'z isbotini topgan.

"Hajv hayotimizni bezaydigan, ruhlarimizni yengillatadigan va shu bilan birga, hayotimizdagи illatlarni turkilab, yo'ldan chiqqanlami ko'pchilik orasida po'stagini qoqadigan g'oyaviy qurol hamdir"<sup>73</sup> – deb yozadi xalqimizning sevimli yozuvchisi Said Ahmad. Darhaqiqat, adabiyot o'z oldiga hayotning ijobiy jihatlarini ko'rsatish, ularni tarannum etishni maqsad qilib oladi, jamiyatda uchrab turadigan illatlarni fosh etishni o'zining muhim vazifasi deb biladi.

Erkin Vohidov hajviyotini ming-minglab kitobxonlarga suyukli qilib turgan elituvchi kuch ham aynan o'sha – mohirlik va soddalikdir. "Donishqishloq latifalari" turkumidagi she'rлar Erkin Vohidovning nafaqat jiddiy – sof lirik va teran falsafiy she'rлar muallifi, balki usta hajvchi shoir sifatida ham qalami o'tkir ekanini namoyon qiladi. Shoirlarning "Donishqishloq latifalari" turkumi o'zbek hajviy she'riyati takomilida alohida o'rин tutadi. Adabiyotshunos A.Rasulov "Erkin

<sup>73</sup>Сайд Ахмад. Сайлавма. Уч жилдлик. Учинчи жилд. Т., 1982. – Б 558.

Vohidov she'rlari qalbga darhol yo'l topadi. Lekin shoir yaratgan she'riy olamga yo'l olish oson emas. Bir qarasangiz, shoir g'azallari oppa-oson: gul, g'uncha, sayil, rubobning ikki tori, gulchehralar, qorxat... bir qarasangiz, Donishqishloq latifalari. Matmusaning hazil, (tagi zil) qilmish-qidirmishlari”<sup>74</sup>, deya yozar ekan, “Donishqishloq latifalari” turkumining tub mohiyati anchayin chuqur ekanligini ta'kidlaydi. Lekin ayrim tadqiqiy maqolalarni, zamondosh shoir-u adiblarning ba'zi e'tiroflarini istisno qilganda, “Donishqishloq latifalari”ning badiiy-estetik qimmati, o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarini nechog'liq mujassam etgani, ushbu turkumda poetik shakl va mazmun mutanosibligi, ijodkorning hajviy obraz va xarakter yaratish mahorati singari masalalar alohida tadqiq etilgan emas. Ushbu dissertatsiya ishida shoirning hajviy obraz va xarakterlar orqali milliy ruhni ifodalash mahorati ham tahlil etiladi.

Shoirning hajvchilik mahoratiga ayni yo'nalishdagi asarlari bilan e'tirof qozongan Anvar Obidjon mana bunday ta'rif bergan edi: “...hajviy roman yoki qissada yangicha qiyofa yaratganlar behisob, ammo she'riyatda bunday hollar sanoqli. Erkin Vohidov she'riyatda Matmusa talqinida o'ta o'ziga xos obraz yarata olgan”<sup>75</sup>.

Avvalo, badiiy qahramonning o'ta soddaligini unga tanlangan xalqchil ismdan ham anglash mumkin. Ismlarda millatning o'ziga xosligini ko'rsatib turuvchi xususiyat borki, bu – arablarda Abdulloh, Abdurahmon, ruslarda Ivan, Aleksandr bo'lgani kabi. Biznin' o'zbekona soddalik Muhammad ismini qo'shib hosil qilingan atoq otlarni Mahamat, Mamat tarzida qisqartirib chaqirish, Matqovu Matyoqub, Matjon tarzida qisqartirishlar ham o'zbekning o'ta soddaligidan darak. Bu holatlar dangasalik tufaylimi yo so'z tejash natijasimi? Nima bo'lganda ham, Matmusa isimi shoir aytmoqchi bo'lgan fikrni ifodalash uchun juda qo'l kelgan, sababi o'bekning SODDADILLigini eng avval ismidagi kamtarlik, kamsuqumlik ham ko'rsatib turadi.

Shoir o'zbek xalqiga o'zining ajoyib tabiatini ko'rsatib, nafaqat samimiyl kulgi uyg'otadi, balki zukko kitobxonni millatning bebaho xazinasini yo'qotib qo'yish xavfi turgan bir kezda uning taqdiri haqida o'ylashga undaydi. Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborovning:

<sup>74</sup> Расулов А. Шеър колур. шоир колур. Тафаккур. 2005, 4-сон.

<sup>75</sup> Обиджон, Анвар. – Эркагт Вохидов. Табассум. -Т.: Алишер Навоийномизлари Ўзбекистон Milliy кутубхонаси изашриёти, 2013. – Б. 3.

“Matmusa timsolida Erkin Vohidov millatga oyna tutib, o’zligini anglashga chaqirganini yozadi”, deya ta’kidlashi shundan<sup>76</sup>.

“Donishqishloq latifalari” allaqachon she’rxonlar-u hajvsevarlarga yod bo’lib ketgan. Ammo bular shunchaki, ichakuzdi rivoyatlarning she’rga solingan shakli emas. Balki shoir bu turkum orqali istibdod hukmon, dahriylik mafkurasi to’rda, milliy qadriyatlar chetga surilgan bir davrda vatandoshlari ko’nglini ko’tarish, taqiqdagi haqiqatlarni aytish, shu bilan birga, fc’l-atvorimizdagil illat va nuqsonlarni kulgi, kinoya, hajv, ishora vositasida muolaja qilish niyatini o’z oldiga qo’yan. Shuning uchun shoir “dushmanni kuldirib, do’stni yig’latgan, ezilib ketgan qalbga nim tabassum hadya etib erkin nasas oldirgan”<sup>77</sup>, - deb yozadi adabiyotshunos Vafo Fayzulloh.

San’atga oshno xalqimiz madaniyati tarixidan ma’lumki, o’zbek xonadonlari milliy cholg’u asboblarisiz - doira, nay, g’ijjak, ayniqsa, dutorsiz bo’limgan. Sababi, dutor o’zbekning baxtli kunlarida ham, musibatli onlarida ham hamroh bo’lib, qalbida jo’sh urgan quvonch-u, alamli g’amni yengib o’tishiga yordam bergen. O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida bola otasining dutorini sindirib qo’yib, o’ta talabchan otaning so’roqlariga qanday javob berishni bilolmay, qo’rquvdan padari qarshisida ilojsiz qolganda frontga ketib qaytmagan yaqinlaridan judo bo’lgan Zebi xolaning nomi, dutorning shu ayol tufayli doimiy joyidan olinganligi vaziyatni yumshatadi: “Zebi bo’lsa, mayli...”

Zebi xola farzand dog’ini, yurakdagagi ayriliq o’tini bosish uchun dutor bilan sirlashadi, alamlarini dutor ohangi bilan yozganday bo’ladi. Milliy qadriyatlarimizdan bo’lgan ushbu cholg’u asbobi Nodira-yu Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Charxiy va ustoz Habibiy domlaning xonadonlarida ham o’zbekona tokchalar tepasida qoziqqa ilib qo’yilgani, ruh tashna bo’lgan kezlarda qo’lga olinib, “sayratilgani”ga ham shubha yo’q. Bu masalaning bir tomoni bo’lsa, ikkinchi tomonidan, shoir Matmusaning dutori timsolida “kerak pardani topolmay sarson bo’lgan” zamondoshlarini hushyorlikka, ziyaraklikka undaydi. Erkin Vohidov “Matmusaning dutori” hangomasida dutor chalishga qiziqqan, biroq qunt, ixlos yo’qligi sabab atrofdagilarga kulgi bo’lgan humoristik obraz

<sup>76</sup> Жабборов Н. Миллый руҳининг бетакрор ифодаси /“Эркин Воҳидов ижодининг маъниавий ҳаётининг тарзи ва аҳамияти” мавзуларига Республика илмий анжумани материяллари. – Т., 2017. – Б. 71.

<sup>77</sup> Файзуллоҳ. Вафо. Аталин ҳисобатни излаб...//Шарқ ўлдузи, 2016, 2-сон. – Б.168.

orgali noshud kishilar ustidan kulgi uyg‘otadi. Shoir hajvlarini tadqiq qilgan adabiyotshunos Yo‘ldosh Solijonov yozadi:

“Erkin Vohidov latifalaridagi tandir, dutor, qalpoq, lagan, eshak singari detallar Matmusa shaxsi bilan yonma-yon turib, rivojlana borib, qahramon xarakterini, turli tomonlardan yorituvchi obraz darajasiga ko‘tariladi”<sup>78</sup>:

“Bobong qo‘li dutorda  
Yugursa yugurgandir.  
Sho‘rlik kerak pardani  
Topolmay qidirgandir.  
Endi men chalganimda  
Og‘zingni yum, jim, depdi.  
Bobong parda qidirgan,  
Men uni topdim”, depti.

Darhaqiqat, Y. Solijonov ta’kidlaganidek, detallarning xalqona ruhiyatni ifodalashda o‘rnii nihoyatda muhim.

Professor Nurboy Jabborov fikricha, muallif xalqimizning so‘zları zalvarli shoiri zamonlari, buyuk allomalari bisyor bo‘lgani bilan ularga munosib avlod bo‘la olmayotgan zamondoshlariga qarata Matmusa timsolida “oyna tutib”, har bir o‘zbek xonadonida ajdodlar an'anasi davom etmog‘i lozimligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Shoirning o‘zi bu haqda shunday deydi: “Donishqishloq latifalari”ni o‘qib, hamma kuladi. Vaholanki, men ularni yig‘lab yozganman. Aql-idrokka zid, teskari ishlarmiz el boshiga kulfat va uqubatlar keltirib yotgani sir emas-ku! Kosasi teskari qurilgan charxpalaklar kammi? Bir pardani tutgancha qolavergan, bir xil ohangni qo‘ymay chalabergan matmusalar ozmi? O‘zimiz yaratgan qoliplarni tandirday kiyib olib, yo‘lni ko‘rolmay osmonga qarab ketayotgan hollarimiz yo‘qmi? Bular kulgili ishlarma achinarli, ofatli hodisalar”<sup>79</sup>.

Oddiy tuproqdan yasalgan tandirni o‘zbek xalqi mo‘jiza det biladi, unda tabarruk qilib ko‘ziga surtadigan non yopiladi. O‘zbek qaynoqqina non-kulchalar, anvoyi xil somsalar uzilib, qo‘li kuyib, tandir otashidan tanasi ham yayrab, har gal tandirga “kirib-chiqqach”, qo‘ni-qo‘sniqsiiga ham “issiqqina nondan oling” deya mulozamat qilib

<sup>78</sup> Солижонов Й. Рухиатни ёритган шеърнот. Шарқ юлдузи. 2013. 2-сон.

<sup>79</sup> Эркин Вохидовнинг 1988 йили мухлислар бисми бўлган сунбатидан

hayot kechirgan. Begona yurtlarda bir kundayoq qadrdon go'shasini sog'ingan.

“Parijning eng go‘zal restoranlarin

Bitta tandiringga alishmasman men”, –

deb ona bag‘ri kabi qaynoq tandirni ko‘klarga ko‘targan xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf o‘zligini naqadar baland notalarda kuylaydi. O‘zbekligidan, milliy qadriyatlaridan boshi baland shoir Abdulla Oripov ta‘biri bilan aytganda, “G‘afur G‘ulom tuygan g‘urumi” tuyadi.

Erkin Vohidov “Matmusaning tandiri” hangomasida tandir o‘zbek xonardonining doimiy ehtiyoji bo‘lgani bois atay bozorga borib, uni xarid qilgach, eshakka avval o‘zi minib, so‘ng tandirni kiyib olgan, bu kashfiyotidan “og‘zi qulog‘ida” bo‘lgan donishqishloqlik “alloma” ning - yo‘lni ko‘rolmay, osmonga termulgancha, o‘z uyini so‘rashdan orlanib, hali-hanuz qidirib yurgan Matmusaning, aniqrog‘i, yuzlab Matmusalarning holidan kuladi:

Ketib borar tavakkal,  
Ko‘kka qarab “Tangrim!”-der.  
“Meni qilma sharmanda,  
Eshagimga aql ber“.

Bu kulgi ostida millat taqdiridan xavotirga tushish, uning kelajagi uchun qayg‘urish yotibdi, aslida. Shoir xato qilish ayb emas, uni tuzatishdan uyalish katta nodonlik ekanini uqtirmoqchiday go‘yo. Butun boshli millatni to‘g‘ri yo‘lni yo‘qotgan Matmusaga o‘xshatib, sho‘rolar maskurasida kimga ergashishni-da bilmay sarson bo‘lgan butun boshli XALQ haqida achchiq haqiqatlarni shu yo‘l bilan aytmoqchi bo‘ladi shoir. “Ko‘pchiligimiz Afandining soddaligidan kulib qo‘yaqolamiz. Aslida, buning zamirida ulkan fojia yotganini, bunda o‘zligini, o‘zini taniyolmasdan yashayotgan kimsaning achinarli holati bayon etilganini kamdan-kam odam anglab yetadi”<sup>80</sup>, - deb yozadi Anvar Obidjon.

O‘quvchi “Donishqishloq latifalarini”ni o‘qib, dastlab Matmusaning devonalarcha qilgan qiliqlaridan qah-qah urib kuladi. Keyin esa chuqur o‘yga toladi. Aslida, Matmusa o‘zining soddaligidan “g‘ururlanib”, boshqalar uchun “ermak”ka aylangan, bundan zarracha ham o‘ng‘aysizlanmaydigan, haqiqatda esa o‘zining fojiasini anglamayotgan, o‘zligini yo‘qotib borayotgan ODAM ekanini tushunib yetadi. Chunki

<sup>80</sup> Обиджон Анвар. – Эркин Вохидовнинг “Табассум” тўпламига сўзбоши. -Т.: Аттишер Навоний номидаги Ўзбекистон Миллий китобхонаси нашриёти, 2013. - Б.4.

shoir Matmusa tushgan vaziyatning tub mohiyatini anglamay kulayotgan bizdek nodonlarga nimtabassum bilan:

Ayo, do'stlar, adashgan  
Matmusadan kulmaylik.  
Matmusadek o'zimiz  
Tandir kiygan bo'lmaylik, -

deb tanbeh beradi. Chindan ham Matmusa kim? U, aslida, o'z davrida kommunistik mafkura tandirini kiyib olib, ko'zlagan manzil-makoni, maqsad-muddaosi noma'lum bo'lgan o'zimiz emasmi? Darvoqe, Erkin Vohidov latifalaridagi tandir, dutor, qalpoq, lagan, eshak singari detallar Matmusa shaxsi bilan yonma-yon turib, rivojlana borib, qahramon xarakterini turli tomonlardan yorituvchi obraz darajasiga ko'tariladi.

"...U biz ilgari ko'rmangan qiziq holat vositasida hammamizni o'z ustidan (millatning ustidan emas!) kuldirdi, ko'nglimizdagি ozmi-ko'p g'ubor tarqaldi-keldi... Biz uchun asosiysi – gapning yilt yangiligi, hodisa mahorat bilan tasvirlab berilganligi...", - deb yozadi Ne'mat Aminov". Darhaqiqat, sevimli shoirimiz "yilt yangi" gapni o'zgacha tafakkur, yangicha nigoh bilan qalamga oladi va o'z ijodiy niyatini mahorat bilan badiiy talqin etadi.

Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" turkumi o'zbek hajviy adabiyoti rivojida alohida o'rin tutuvchi noyob poetik hodisa. Murakkab va ziddiyatli davrda yashagan shoirning asl haqiqatni aytishda qo'llagan o'ziga xos badiiy usuli. Ushbu turkumning milliy ruh ifodasidagi o'mini yanada churqurroq tadqiq qilish adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Quyidagi jadval xalqona til borasidagi ayni fikrimizni ifoda etadi:

"Taqdirga ko'nmoq", "boshim olib ketarman", "xamirdan qil sug'urmoq"	Matmusaning tandiri
"hayyo hayt deb yo'l oldi", "ketib borar tavakkal"	Tandir kiygan Matmusa
"Daryoni teskari oqizmoq"	Matmusaning charxalagi
"Ish ko'zini bil"	Matmusaning lagani
"Yaxtak, mahsi, kalish, chopon" "Belbog'ida osig'liq nosqovog'i yarashgan", "qo'lda taqya"	Matmusaning haykali
"Simiramiz suv kelsa, tosh kelsa kemiramiz"	Matmusaning Amerika ochishi
"Bir tovuqqa ham don, ham suv	Matmusaning qo'shig'i

kerak”	
Chaqmoqday yigit	Matmusaning qalpog‘i
“Oyning o‘n beshi qorong‘u, o‘n beshi yog‘du bilan”	Oyning o‘n beshi...
“ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar”, “to‘nini chappa kiymoq”, “men sen ga tegmayman, sen menga tegma”	Tush

Zero, asar tili sodda va ravonligi jihatidan xalq og‘zaki ijodidagi folklor narnunalarini o‘quvchi yodiga solish barobarida, ifoda uslubi ham xalqona mutoyiba, hazillarga tayanadi.

Xalqimiz o‘zidan chiqqan buyuk insonlarni ulug‘lab, ba’zan kechikib bo‘lsa ham, qadrini baland ko‘taradi. O‘z navbatida xalqi, millati ulug‘lagan insonlar ham shu yurt, el, millat uchun jonini fido qiladi. Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi o‘z davrida tazyiq va tuhmatlar qurboni bo‘lgan alloma adiblar zamonlar sinovidan muvaffaqiyat bilan o‘tdilar. Ular boshdan kechirgan dahshatli qatag‘on kunlari o‘tmish soyasida qolgan bo‘lsa-da, sho‘rolar davrida ijod etgan buyuk iste’dodlar boshida ham siyosat qamchisi o‘ynab turganini xotiralar aks etgan sahifalardan bilish mumkin.

Erkin Vohidov o‘sib, ulg‘aygan muhit adabiyotga, ziyoga tashna insonlar muhiti bo‘lganini sezish qiyin emas. Bu el “Fuzuliy devonini boshiga qo‘yib uxmlaydigan, Mashrab g‘azallarini hirgoyi qilib, farzandlari qalbiga ilohiy ishq urug‘ini qadagan” xalq. Shoir “Fuzuliy haykali qoshida” she‘rida xalqining she‘riyatga shaydo el ekanini, dilbar kuylar uning qon-qoniga singib ketganini o‘zgacha maroq bilan yozadi:

Oshiqlar uxmlaydi saharga tomon,  
Fuzuliy devonin boshiga qo‘yib...  
Xalqim jondan sevar dilbar kuylarni,  
Xalqim she‘riyatga shaydodir azal...

Shu bois shoir ijodida ulug‘ ustozlar she‘riyatidan bahramandlik an‘anaviy usulda o‘z ifodasini topgan. “Fuzuliy haykali qoshida...”, Hazrat Navoiyning “Aylagin jondin judo...”, “Aylagach” radifli g‘azaliga, Boburning “Etolmay” radifli g‘azaliga, Nodiraning “Ehtiyoj” radifli g‘azaliga, Habibiyning “Tola soch” g‘azallariga bog‘langan muxammas va tatabbularda salaflar she‘riyatidan ta’sirlanish kuchli ekanini sezish qiyin emas. Bu ta’sir yolg‘iz shakliy emas,

ma'naviy ergashish hamdir. Shoir o'zini shoir deb tan olmasalar-da, Fuzuliy she'riyatiga chin oshiq ekanining o'zi yetarli, deb biladi. Erkin Vohidov ona yurtiga, ona xalqiga sodiq o'g'lon, fidoyi farzand. Bu shoir ijod yo'lining avvalida ham o'z aksini topgan. Qator she'r larida ona xalqiga muhabbat izhori erkaklik ohangi bilan qorishib ketadi:

Men jilg'aman,  
Daryo bo'lib to'lgim keladi.  
Ona yurtim,  
Senga o'g'lon bo'lgim keladi.  
Bugun senga  
Faqtatgina she'r bag'ishladim.  
Kerak bo'lsa,  
Jonni fido qilgim keladi.

She'rda xalqona ohang darrov o'quvchi qulog'iga ilinadi. Fikrlar izhori ham tanti o'zbek o'g'loniga xos: "kerak bo'lsa jonni fido qilgim keladi". Shoir o'zini opichlab, kiftida ko'tarib, boshi uzra e'zozlagan xalqning boshida parvona bo'ladi.

Lekin meni Oyga qilib teng,  
Shu'lalardan yasab koshona.  
Quyosh sari uzatgan xalqning  
Boshi uzra bo'lay parvona,

Va qayta-qayta: "*Ona-Vatan! Bir o'g'ling kabi Fido etay jonimni sanga!*"

deyishdan charchamaydi. Shoir xalq ichida, odamlar ichida bir zarra bo'lib, bir parcha bo'lib, shu xalq uchun o'zini fido qiladi.

Yo'q, halovat istamayman,  
Orom bilmas yosh jonim.  
To'lqin urgan ummoncha bor  
Yurakdag'i tug'yonom.

She'r barmoq vaznining 8,7,8,7 bo'g'inli shaklida yozilgan bo'llit odatda 8 va 7 bo'g'inli shakl og'zaki ijodidagi eng ommabop shakldir. Bunday bo'g'inli shakl xalq qo'shiqlari ohangini she'rga ko'chiradi.

Bo'ronlarga, dovullarga  
Peshvoz yurgim keladi.  
Tinchlik bilmas odatimdan  
Ozor cheksam mayliga.  
Olov bo'lib bir dam yonsam,

So'ng o'chsam ham mayliga.  
...Ammo sokin, tinch yashashga  
Sira yo'qdir bardoshim.

Muallif o'zini ardoqlagan elni tarannum etgan eng yaxshi she'ri endi yozilajagini aytib, o'tgan umridan qoniqmaslik, oldinga tinim bilmay intilish hissi bilan yashaydi:

...Eng yaxshi she'rimni yozmabman hali,  
Va lekin men uni bitmagunimcha,  
Bitib sizga taqdim etmagunimcha –  
Bir nafas halovat bilmasman aslo  
Timmasman,  
timmasman,  
timmasman aslo!

Shoir umrini, ijodini, qalb halovatini ona xalqiga nisor etadi, xalqi baxthi bo'laman shoir baxthi bo'lishi gumonligini, uni qurshab turgan insonlarning har biri shoir "umrining parchasi" ekanini, bir nafas ham xalqdan ayro bo'lolmasligini

Odamlar,  
Siz mening hayotim.  
Har biringiz umrim parchasi,

deya bayon qiladi. O'zining hayotini o'zbek millatining ruhiga o'ta yaqin timsol bo'lган parvona umriga qiyos qilib, faqat yonib yashashni – besamar asriy hayotni emas, balki oz bo'lsa-da chaqmoq kabi, zulmatni yoritgan sham kabi yonib yashashni maqsad qiladi:

Asriy hayot kerakmas menga,  
Parvonaning umri bas menga.  
Faqat yonib-yonib yashasam...

Ijodkor xira nur sochuvchi "yulduz emas, quyosh bo'lgin, azizim, quyosh!" deb hayqiradi. Chindan ham, Erkin Vohidov XX-XXI asr adabiyotida quyosh bo'lib porlagan usta san'atkor, so'z san'atining ulug' darg'asi bo'lib tanildi. Akademik shoirimiz G'afur G'ulom "Vaqt" she'rida

Aziz asrimizning aziz onlari  
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.  
Fursat g'animatdir shoh satrlar-la  
Bezamoq chog'idir umr daftarin

deb umrining "shoh satrlar-la" bezalishi lozimligini gavhar donalari kabi quyma misralarga tizadi. Agar G'. G'ulom qalami otalarcha, mehribon ustoz nasihatni ruhida tebransa, Erkin Vohidov bu masalaga

sokinlik bilan yondashib bo'lmaydi, VAQT yonib bityapti, shoshiling, degan mazmunda hayqiradi:

Bosh tebratar soat kafgiri,  
Shoshil, odam, o'tmoqdadir on.  
Har narsaning bo'lar oxiri,  
Bosh tebratib qolma so'ng, inson!

Kishilarning o'zaro muomalalarida "bo'sh vaqt" degan ibora tcz-tez tilga olinadi. Shoir xalq orasida ko'p uchraydigan ayni shu zamonaviy so'z birikmasini o'ziga xos uslubda talqin etadi. Aslida vaqtning ham isrofi bo'lib, vaqtning isrofi – umr isrofidir. Umr behuda sarf bo'ldimi – demak, odam yaxshi ishlarni amalga oshira olmabdi. Ammo aql egalari uchun vaqt hech qachon qadrsizlanmaydi. Milliy o'ziga xosliklarimizdan biri hisoblangan tong saharda turish, har ishning erta bo'lishini orzulash, bebaqo umr o'tib borishining afsus bilan eslanishi - bular hammasi vaqtini zoe qilishning oldini olish uchun qaratilgan tadbirlar. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam: "Vaqt bir qilich kabidir, agar sen uni kesmasang, u seni kesadi", deb marhamat qilganlar. Donishmand shoirimiz Erkin Vohidov ijodining boshdan oxirigacha qizil chiziq bo'lib ajralib turadigan bosh mavzulardan biri ham aynan vaqtini qadrlash mavzusidir.

O'zbek adabiyotida, jumladan, xalq og'zaki ijodida majoz yetakchi vositalardan biri hisoblanadi. Erkin Vohidov she'riyatida ezopona usullarning go'zal namunalarini uchratish mumkin. Tush – ana shunday vositalardan biri. Shoir tush detali orqali xalqning "o'zidan olib o'ziga berish" usulidan samarali soydalanadi.

...To's-to'polon, dasht,  
Chor-atrof ochiq.  
...Har kim o'ziga  
Izlar o'ljalik.  
Devpechak uchun  
Baland so'rilar.  
...Asal qutida  
Qovoqarilar.

T'asvir o'zbek xalq ertaklarini, ulardag'i voqealar tizimini yodga soladi va usslubning ravonligi, o'ynoqi badiiyat bilan o'quvchi e'tiborini o'ziga jallb qiladi. Voqealar tizimi xalq ertaklaridagi boshqa obrazlarning xatti-harakatlarini tasvirlash jarayoni bilan davom etadi.

Kiyinib ukpar,  
Cho'p ushlab qo'lga,  
Qo'shiq o'rgatar  
Qarg'a bulbulga.  
...Qo'y so'yib, yozib  
To'kin dasturxon.  
Qashqirni tozi  
Qilmoqda mehmon.

Endi esa voqealar tizimi xalq ertaklariga zid tarzda davom eta boshlaydi. Cho'chib uyg'ongan shoirning kechki majlisda aytar so'zlari – nordon gaplari, unga javoban berilajak javob yurishi – bular hammasi yuragini ezadi, haq so'zni aytish imkoniy yo'qolgan bir paytda shoir o'zi uchun eng "soz"i – ko'r-u kar bo'lishga qaror qiladi:

Eng sozi – men kar,  
Ko'rmaydi ko'zim.  
Dedim: har qalay  
Ters to'nni kiyma.  
"Men senga tegmay,  
Sen menga tegma".

Muallif "ko'zi ko'r, qulog'i kar", "to'nini chappa kiymoq", "men senga tegmayman, sen menga tegma" kabi xalqona ifodalardan foydalangan holda she'rga milliy ruhiyatni singdirish barobarida, xalq merosidan she'r g'oyasini ochib berishda mohirona foydalanadi. Shoir asl maqsadini she'rnинг yakunida bayon etadi.

Asab portladi  
Bo'ldi sabr ado.  
Meni chorladi  
Ichki bir sado:  
"Agar halolsan,  
Tilingni tiyma!  
Bitsin, yo'qolsin –  
"Sen menga tegma!"

Shoir ayni yuqorida xalq orasida yurgan fikrlarga e'tirozini she'r yakunida ifoda etadi. Zero, halol inson haqiqatni aytishi, "sen menga tegma, men senga tegmayman" qabilidagi hayot tarzidan voz kechishi shart. Ayni shu kabi fikrlar E.Vohidov tomonidan xalqona tilda, yuksak badiiy mahorat bilan aks ettiriladi.

“Erkin Vohidovning hozirgi publitsistik hamda siyosiy lirkasida zariflik, tanqidiy ohang, ma’naviy nuqsonlarga qarshi murosasiz so‘z tobora keskin jaranglamoqda. Uning bugungi she’ri hayotimizning o’tkir, achchiq, lekin illatlardan tozalashga xizmat qiladigan haqiqatlarini aytishdan, kishilarni shu haqiqatlar orqali tarbiyalashdan, ularning hissiy qarashlariga faollik bag’ishlashdan aslo cho-chimaydi,...haq so‘z bilan tarbiyalashda u rivoyatdan, latifadan, ochiq shior so‘zdan foydalanmoqda”<sup>81</sup>, -deb yozadi Ibrohim G’ofurov shoirning “Muhabbat”, “Sadoqat” to’plamlariga yozgan so‘zboshisida. Darhaqiqat, yuqorida tahlil qilingan she’rlarda xalq og‘zaki ijodiga xos badiiy detallar – tush, rivoyat, ertaklardan badiiy vosita sifatida foydalanish usuli ijodkorning maqsadini ochib beruvchi, o‘quvchiga to’la yetkazuvchi omil bo‘lib xizmat qilgan.

Shoirning “Tush” nomli bir qator she’rlari tahlilida ham shunday detal asosiy mazmun-mohiyatni ochib berishga qaratilgan. 1980-yilda yozilgan “Tush” she’rida muallifning “dahshatli” tushi bayon qilingan: emishki, qaysidir yozuvchi roman yozarmish va “men emishman unga qahramon”:

Yozar emish meni xayolan,  
Yo‘q xislatalar qo‘shib borimga.  
Hisoblashmas hech mantiq bilan,  
Sira boqmas ixtiyorimga.  
U ne desa to‘tiqush misol  
Men ham tilga jo qilarmishman.  
Jarliklardan sakrab bepisand,  
Tekis yo‘lda qoqilarmishman.

Ijodkor xalq og‘zaki ijodida keng uchrovchi tush motividan foydalangan holda ijtimoiy muhit qiyofasini ochib berishga harakat qiladi. U qaysidir asarning qahramoni, yozuvchi esa uni istagan ko‘yiga solmoqda. U yozuvchi aytgan barcha ishlarni qilmoqda, mantiqqa to‘g’ri kelsa-da, kelmasa-da. Ayni shu o‘rinda muallifning ramz va xalqona motiv zamiriga yashirgan ulkan mantig‘i namoyon bo‘la boshlaydi. Aslida yozuvchi –hayot, biz esa uning qahramonlari sifatida hayot majbur qilgan har ishni qilishga majbur qahramonlarmiz. Yoxud bu she’rda sho‘rolar davrining qiyofasini ham ko‘rishimiz mumkin. Ammo bunday yashashga ko‘nmoq qiyin:

<sup>81</sup> Гуфуров И. “Мұхаббат”, “Садоқат” тұпламаларига сүзбоши. Т., 1988.Б.5.

Bora-bora aylanib qoldim  
Bozingarning qo‘g‘irchog‘iga..  
Bu kunimdan o‘lganim afzal  
Deya qo‘lga oldimu pichoq...  
Xudo o‘zi asradi bu gal

Bir seskanib uyg‘ondim shu choq.

Shukr qilib ko‘z ochgan shoir bir romannni o‘qigach, shunday “dahshatli” tush ko‘rganligi ayon bo‘ladi. Abdulla Oripov ta’biri bilan aytganda, “O‘ylab qarasam, biz g‘alati davrlarni boshdan kechiribmiz: yaqin-yaqinlargacha ham ko‘rinishdan dubdurust odamlar, adabiyotda avval shaklmi yoki mazmunmi deya beto‘xtov tortishib yurardilar. Albatta, bu bahsning zamirida boshqa bir murod yashiringan edi. Ya’ni mahorat, san’at shart emas, yalang‘och bo‘lsa ham bizning g‘oyamizni takrorlayber! Ana shu tazyiq tufayli ne-ne iste’dod egalari o‘zlarining benazir mahoratlarini namoyish eta olmadilar. Maktab darsliklarida “Paxta tersang, toza ter, chanog‘ida qolmasin” kabi texnik qo‘llanmalar, ruhsiz gaplar she’riyat namunasi, deb taqdim etildi”.<sup>82</sup>

Ana shunday biryoqlama asar qahramonlariga o‘xshashlik – o‘z so‘zini emas, to‘tiqush kabi yozuvchining so‘zlarini takrorlovchi, yoriga qalb buyurgan samimiyoq so‘zlarnimas, balki gazetadagi rasmiy maqoladagi kabi qoliplangan nutq irod etuvchi qahramon holiga tushishdan o‘limni afzal bilgan muallif ko‘rganlari xobida yuz bergenligidan taskin topadi. Ayni paytda she’riying tagma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak, “...biz ko‘rib va his qilib turgan olam bir butundir, ya’ni tan libosi ichra ruh yashaydiki, biz ikkisini yaxlit holda mukammal xilqat deya e’tirof etamiz. Erkin Vohidov she’riyatida abadiy mavzular xazinasiga aniq zamon va makon kaliti orqali kirib boriladi. Xalqimiz keyingi davrlar mobaynida bosib o‘tgan va o‘tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh tug‘yonli, goh iftixonli yo‘llarning manzara va ohanglari, sadolari Erkin Vohidov she’riyatida to‘la mujassamdir”.<sup>83</sup>

Shoirning shu nomdag‘i ikkinchi bir she’ri 1991-yilda yozilgan bo‘lib, sho‘rolar davridagi totalitar tuzumdan milliy istiqlolning murakkab bosqichiga o‘tish davrini qisqa va lo‘nda satrlarda badiiy ifoda etadi. Hajm jihatdan uncha katta bo‘limgan ushbu she’r o‘zining badiiy-falsafiy mukammalligi bilan o‘quvchi diqqatini o‘ziga tortadi.

<sup>82</sup> Орипов А. Сўз сенчи. Эркин Воҳидов сабоклари. Сўзбошия. Алишер Навоий шомиллаги Ўзбекистон Министри кутубхонаси нашриёти, 2016. 4-й.

<sup>83</sup> Уша асар 2016. 5-б.

Bir oy bo'ldi,  
Takror-takror  
Men bir xil tush ko'raman.  
Tushlarimda mudrab yurgan  
El ichida yuraman.

Muallif yana tush motivi orqali ijtimoiy masalalarga yuzlanadi. Endi bu o'rinda xalqonalikning namoyon bo'lishi nafaqat tush, balqi ohanglarda ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Ular bilan men ham mudrab,  
Asta qadam sudrayman.  
Bu – tush, deyman,  
Uyg'on, deyman,  
Uyg'onolmay mudrayman.  
Har tun shu hol,  
Falak bergen  
Bu ne balo qiynoqdir.  
Ey Xudoyim,  
Ey Xudoyim,  
Kechang buncha uzoqdir?!

Ushbu she'rdagi "mudrab yurgan el" - bu o'zi tanlagan yo'llin yo'qotgan, o'zligini yo'qotgan millat singari mudrab borayotgan el go'yo. "Qo'rquv sultanati"da ushlab turish va kurtak otib kelayotgan o'zlikni anglash jarayonlaridan chalg'itish uchun totalitar tuzum "uchinchi jahon xavfi" to'g'risidagi safsatalardan mudrashmi bu?! Turg'unlik yillarida aytildagan haqiqatlardan bordan boshi aylanib qolgan xalqning mudrog'imi yo?! Shoирning uyg'onolmay qiynalishi zamondoshlarining uyqudan, g'aflatdan uyg'onishi bilan bog'liq jarayon, bu holat yillar davomidagi muttasil g'ofillik, johillikning natijasi o'laroq endi bong urib ulusning uyqusini tarqatish, ko'zini ochishga qaratilgan jiddu jahdning debochasi deyish mumkin. "Men, masalan, kommunizm g'oyasi bilan yashagan zamonni jaholat dunyosi, jaholat olami, deb bilaman. Faqatgina jaholat. Chunki bu – xalqimizni o'zimizning klassikamizdan bexabarlikda tutish davri bo'ldi",<sup>84</sup> - deydi Erkin Vohidov Shukur Qurbon bilan suhbatlardan birida. Shoир asarlariga diqqat qiladigan bo'lsak, majoz vazifasida ishlatalgan tush detali o'z vaqtida aytilishi lozim bo'lgan va millatni uyg'otishga sa'y qilingan badiiy vosita sifatida Vohidov asarlarining siyosiy-ijtimoiy

ahamiyatini yanada oshiradi. Milliy ruhni namoyon qiladigan xalq og'zaki poetik ijodida bunday detallar ko'plab uchraydi va ijodkor ulardan o'z o'mida va o'z vaqtida samarali soydalanadi.

Umuman olganda, Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruhning ifoda usuli ikki xil: xalqona til va mumtoz poetik usullar ekani kuzatiladi. Qaysi uslub va usulda yozishidan qat'i nazar, shoir ijodida teranlik, falsafiylik, betakror badiiyat va milliy ruh uyg'unlikda poetik sintezlanadi, mukammallik sari qadam qo'yadi. Zero, adabiyotshunos Nuriddin Shukurov shunday yozganidek: "...uslub deganda biz ijodkorning vogelikni o'zicha idrok etishini, voqeа-hodisalarни o'ziga xos obrazlar va ifoda – tasvir vositalari bilan aks ettirishini anglaymiz. Uslub shoir-yozuvchi asarlarida yaqqol ko'zga tashlanuvchi, ajralib turuvchi g'oyaviy-badiiy xususiyatlar yig'indisidan tashkil topadi"<sup>85</sup>.

### **3.2. Shoirning milliy ruh suvratlanishida mumtoz ifoda usulidan foydalanish mahorati**

Mumtoz adabiyotdan ruhlanmay, buyuk iste'dodlar darsxonasidan saboq olmay ijod olamida mahoratga erishish mumkin emas. Bu jarayon muayyan adabiy-estetik omillar bilan bog'liq hodisadir. XX asr adabiyotida yorqin iste'dodi bilan o'zining mustahkam o'rni ega bo'lgan hamda XXI asr she'riyat karvonining faylasuf sorboni Erkin Vohidov ijodida, ayniqsa, bunday ulkan saboq o'zining benazir samarasini ko'rsatdi. Milliy ruh ifodasidagi o'zaro uyg'unlikda bu hol yanada yaqqolroq seziladi. Erkin Vohidovning "Biz Navoiy va Bobur, Fuzuliy va Ogahiy, Mashrab va Muqimiy, Nodira va Furqat singari o'tmish shoirlarimiz ijodini sevamiz, o'rganamiz. Chunki ularning ijodiy merosi bizni e兹gulikka undaydi. Ona yurtni, xalqni farzandlik mehri bilan sevishga, ruhiy poklikka o'rgatadi", degan e'tirofi ham fikrimizga dalil bo'ladi. Shoir lirkasida milliy ruh suvratlanishida mumtoz ifoda usulining o'mi quyidagi ijodiy tamoyillar asosida namoyon bo'lgani kuzatiladi.

- 1. Poetik mazmunni didaktika asosiga qurish usuli;*
- 2. Mumtoz poetik obrazga yangicha ma'no yuklash usuli;*
- 3. Fikrni badiiy san'atlar bilan ziynatlash usuli;*

Ayni shu mumtoz usullar orqali Erkin Vohidov o'z she'riyatida milliy ruhni betakror badiiy talqin etadi.

#### ***1. Poetik mazmunni didaktika asosiga qurish usuli.***

<sup>85</sup> Шукурев Н. Успійлар на жанрлар. – Ташкент, 1973. – Б.7.

E.Vohidov lirikasida didaktik mazmundagi she'rlar salmoqli o'rinni egallaydi. Sharq she'riyatining o'ziga xos usullaridan biri – adabiyot vositasida o'quvchini yaxshilikka undab, yomonlikdan qaytarish hisoblanadi. Shoiring "Yaxshidir achchiq haqiqat", "Uzoqqa bormadik andisha bilan...", "Erkak bo'l", "So'z zabarjad", "Do'stlarining bo'lzin", "Engil ish qidirma" kabi lirik asarlarida ham didaktik mazmun yetakchilik qiladi. Masalan, *Yengil ish qidirma*, *Yengil ish yo'qdir*, *Jon cheksang yengish bor*, *Yengilish yo'qdir*. Darhaqiqat, yengil, oson bitadigan ish insonga zavq, qalbga huzur berolmasligi, jon chekib, mashaqqat bilan erishilgan maqsad g'alabaga eltishi, bu yo'lida "yengilish yo'q" ekanligi haqida kichik hajmli she'rda katta haqiqat bayon etilmoqda. Ayniqla, to'rtlikdagi tajnis uchun asos bo'lган birikma va so'z shakldoshligi murakkab tajnisni yuzaga keltirganligi bilan o'zbek tilining naqadar boy, serjilo imkoniyatlari borligini isbotlab beradi.

Qalbga istarsan shifo gar, bo'l yomon so'zdan yiroq,  
Karvalol ichmoq kerakmas, kar va lol bo'lmoq kerak.

Ushbu baytda inson qalbini pokiza saqlashi uchun, xastalanmasligi uchun yomon so'zdan yiroq bo'lishi zarurligi haqidagi dono fikr ikkinchi misradagi tajnis bilan baytning tugal mazmunini yuzaga keltirmoqda. Xalq donishmandligi insonning mukammallikka erishish yo'lida jiddu jahd qilib, atrofdagi yomonliklardan ko'zni ko'r, qulqoni kar qila olishi, buning uchun esa g'ayriaxloqiy ishlarni ko'rmaslik, gaplarni eshitmaslik darajasida qalb hamisha Haq yodi bilan mashg'ul bo'lmos'i haqida ta'lim beradi.

Istasang toza ko'ngilga qo'nmasin zarra g'ubor,  
Pok so'z-u pok ish va pok dil, pok xayol bo'lmoq kerak.

Shoir g'azallarini tahlil qilar ekanmiz, ajib bir musiqiy tarona sasi qalblarni sehrlab, o'ziga rom etadi. Yor vasfi, ishq, hijron motivlari, do'stga sadoqat, hayotga muhabbat ohangi vujudimizga mumtoz navo bo'lib rohat bag'ishlaydi. Erkin Vohidov g'azallaridagi didaktika o'quvchini chuqur xayolga toldirib, orif bo'lishga undaydi. "Ajab yoshlikni ne qildim faqat orzuda o'tkardim" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalda inson hayotining foniyligi, uning nadomatlар bilan yakun topmasligi uchun g'aflatda qolmaslik tadbirini qilish haqida ogohlantiradi.

Ajab, yoshlikni ne qildim,  
Faqat orzuda o'tkardim.  
Hayot oldinda deb bildim,

Shu pok tuyg'uda o'tkardim.  
Hamisha nenidir kutdim,  
Hamisha yo'lga ko'z tutdim,  
Umrning yarmini o'tdim,  
Shirin uyquda o'tkardim.

Inson dunyoga kelarkan, unga berilgan umr g'animatligini, sinovlarga to'la hayot yo'llarida nafs komiga tushmay, har lahzadan a'mol daftarini yaxshiliklar bilan to'ldirish uchun foydalananmoq zarurligini hamisha ham esda tutmaydi. Doimiy tarzda solih ishlarni "erta"ning gardaniga yuklab, umri yarmidan o'tganini, ba'zan oxirlab qolganini-da sezmay qoladi. Shirin uyqudan uyg'ongan kabi ko'zi ochilgan damda adoqsiz so'rovlar qarshisida nochor qoladi:

Sovir bir kun yurak qonim,  
Kelar osudalik onim,  
Ajab tug'yonli davronim  
Neechun osuda o'tkardim.

She'r badiiy xulosa sifatida inson umidsizlik girdobiga tushmasligi, orzulardan yuz burmasligi, hayot yo'llarida afsuslar bilan istig'for etagini tutib, pokiza niyat bilan yashamog'i darkor, degan qarashlar bilan yakunlanadi.

Erkin Vohidov mumtoz adabiy janrlarni zamonaviylik suprasida shunday qorib, ajib milliy ma'nolarni singdirdiki, adabiyotda nodir iste'dod sohiblarigina o'tmish va bugunni bir butun holatda taqdim eta olishining shohidi bo'ladi kishi. Uning "O'zimga savol" she'ri mustazod janrida yozilgan bo'lib, mazmun jihatdan didaktik xarakterga ega. Shoир ijodiga xos xususiyatlardan biri ham shu – o'quvchiga hayot kitobidan dars berib, abadiylik qarshisida lahzalarga teng umr ne'matini go'zal va manfaatli o'tkazish borasida o'quvchiga otalarcha nasihatlar qilish bilan bir qatorda achchiq tanbehlar bilan ko'z ochib, dunyoning foniyligini unutmaslikka, aziz va mukarramlik sifatiga xos bo'lgan harakatlar qilishga undaydi.

Yillar ko'pi ketdi, ozi qoldi, ne qilolding,  
Kim bo'la olding?  
Qum ustiga sen bo'yла imorat quradirsan,  
Ham aysh suradirsan?

Qum ustiga imorat qurish asli imkon bo'lмаган, омонат бир ис. Адабиёт тарихида ажойиб та'rif berilgan muayyan holatlar bo'ladiki, bu zamonlar osha yana yangilanib, o'ziga xos o'xshatish va tamsillar bilan ifoda etiladi. Ulug' shoир Ogahiyda shunday benazir misralar bor: "Dahr

uyi bunyodkim, suv uzadir, mahkam emas". Bu shunday bir hikmatki, u izoh talab qilmas. Dahr uyi - dunyo uyi, bu foni olam suv ustiga qurilgan, bunyod qilingan binioga teng, u aslo mahkam, bikir, mustahkam bo'lolmas, sababi uning ostidagi poydevor o'mini vujudi qotmagan bir unsur egallagach, qanday qilib ustida uyni ko'tarib tursin?! Erkin Vohidov mumtoz adabiyotdagi shu kabi shohbaytlarni ijodining mazmuniga singdirib yuboradi, milliy ibora va qochirimlarni noyob topilma sifatida qo'llab, she'rlarining xalqchillik darajasini ko'taradi.

Mumtoz adabiyotning, lirikaning bosh mavzusi - ishq, muhabbat mavzusi. Navoiy lirikasida ko'ngilga murojaat, iltijo, nido holatlari aks etgan misralar juda ko'p. Navoiyshunos olim Yo.Is'hoqov saboga murojaat qilingani kabi ko'ngilga murojaat qilish Sharq lirikasida an'anaga aylanib qolgan bir usul bo'lib, ko'ngil sevgining asosiy sababchisi sifatida talqin qilinishini qayd etgan. Navoiy ijodining ilk bosqichlaridan boshlaboq bu usuldan mohirlik bilan foydalangan. Bundan tashqari Sharq shoirlari qalb va ko'ngilni inson ma'naviy hayotining mahzani va bosh markazi deb bilishgan. Ko'ngilni poklash va uni ishq, go'zallik oynasiga tenglashtirishni kamolot yo'lidagi asosiy vazifalardan hisoblaganlar. Chunki oshiqlik, oriflik, odillik, komillik – barchasining istiqboli ko'ngilga bogliq. Olloh vujuddagi qalbdan boshqa biror a'zoga ma'rifat mushohadasiga berilmoq, g'oyibiy sirlarni kashf etmoq salohiyatini nasib etmagan.<sup>86</sup>

Navoiyning e'tirofi bo'yicha olamni yaratishdan maqsad odam bo'lsa, odamdan maqsad ko'ngil edi.

Ermas edi onda g'araz hech gul,  
G'ayri ko'ngulki, g'araz erdi ko'ngul.<sup>87</sup>

Inson ko'ngli – bilimlar ganjinasi. Unda Haq o'zini pinhon etgan. Ikki dunyo saodati ko'ngilda mujassam. Kimki bu xazinaga sohib bo'lsa, shubhasiz, o'zligiga yetadi. Biroq

Dahr ishi oludaliqidir, ey xusho ul pokrav  
Kim o'tar bu jiylag'a ko'nglini moyil qilmayin.<sup>88</sup>

Sharq adabiyotida, xususan, milliy adabiyotimizdagi mumtoz janr namunalarida ham, zamonaviy adabiyotda ham ko'ngil (*ko'ngul*) inson hayotining turfa holatlariga sababchi obraz sifatida talqin qilinadi. Misol tariqasida Navoiyga o'ta darajada lutf ko'rsatgan Lutfiy hazratning

"Meni shaydo qilodurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul,

<sup>86</sup>Бозорова Н.Алишер Навоий исходила күнтил таймади. – ЎТА, 2001, 2-сон, 25-бет.

<sup>87</sup> Алишер Навоий. МАТ. 7-жинд. – Т., 1991.72-бет.

<sup>88</sup> Алишер Навоий. МАТ. I-жинд. – Т., 1987.429-бет.

Xor-u rasvo qilodurg‘on bu ko‘nguldir, bu ko‘ngul” misralari bilan boshlanuvchi g‘azalini keltirishning o‘ziyoq yuqoridagi sikrga dalil bo‘ladi. Erkin Vohidov manzumalari ichida ko‘ngil vasfi, uning injiqliklari-yu qaysarliklari bilan “xastalanib”, uni gapiga “ko‘ndirolmayotgan” oshiqni bot-bot uchratamiz. Ko‘ngil yangicha, oxori to‘kilmagan tashbehlar bilan sifatlanib, tunda tramvayga o‘zini uyiga qadar eltib qo‘yishni so‘raydigan sarxush o‘springa o‘xshatiladi.

U sarxush yigitga o‘xshaydi ko‘ngil,  
Orzulari parvoz etar qaydadir.  
Talpinma, ey ko‘ngil,  
Sen gapga ko‘ngil!  
Axir, makonimiz tramvaydadir!

Vohidovona usul – so‘z ma’nolarini rangin misralarda berish yuqoridagi she’rda ham mohirlik bilan ifoda etilgan. “Gapga ko‘ngil!” Bu murojaat insonga u qayta-qayta amalga oshirmay kelayotgan so‘rovlardan keyin qilinadi. Ko‘ngil to‘lishi qiyin ish bo‘lgani sabab shu tarzagi yalinish ohangi bilan uni yo‘lga solmoqni istaydi shoir, biroq ko‘ngil ko‘ngil-da...

Navoiyning birgina “Badoye ul-bidoya” devonidan ko‘ngul radifli o‘nta g‘azal o‘rin olgan. Bundan tashqari devonda aql, jon, yor, zulf, qosh, ko‘z, visol, borliq, Olloh va ko‘ngil munosabatlari aks etgan yuzlab baytlar uchraydi. Ularda Haq Taoloning tengsiz xazinasi, nazargohi hisoblangan ma‘rifatga to‘la orif ko‘ngli, ishq shiddatidan mast-u behud, parishon, miskin, junun sifatiga sohib oshiq ko‘nglining holatlari o‘z ifodasini topgan. Alisher Navoiy ko‘ngilni an‘anaviy tarzda goh Ka‘ba, goh qush, goh g‘uncha, goh dengizga o‘xshatadi. Xuddi shunday E.Vohidov ijodida ham ko‘ngil masalalari, uning dardlari, inson hayoti birinchi o‘rinda turadi. Ana shu jihatlari bilan u Navoiyga yaqinlashadi. E.Vohidov g‘azal bitishning o‘zi bir mo‘jiza ekanligi, bu mo‘jizaning yaralishiga Navoiydan minnatdor ekanligini, agar xatoliklar bo‘lsa, shoirning yoshligiga yo‘yib, kechirishlarini kitobxonidan so‘raydi. Mumtoz adabiyotga, xususan, Navoiy she’riyatiga oshiqlik shu qadar balandki, osmon qadar mehr natijasi o‘laroq Erkin Vohidov shoir g‘azallarining sharhiga turkum maqolalar bag‘ishlagan. “G‘azal sehri” deb nomlangan ushbu turkumda hazrat Navoiyning “Junun vodiysiga moyil ko‘rarmen joni zorimni”, ”Qaro ko‘zim, kelu mardumlig‘ emdi fan qilg‘il”, ”Vahki umrim barcha zoe bo‘ldi el komi bila”, ”Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach”, ”Ko‘yida yig‘lar

edim men zor har bemorg'a", ozarbayjon xalqining otashnafas farzandi Muhammad Fuzuliyning "Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r", Mirzo Boburning "Xazon yafrog'i yanglig" gul yuzung hajrida sarg'ardim" misralari bilan boshlanuvchi g'azallari, Navoiyning "Aylagach" radifli g'azaliga bog'lagan taxmisi yuzasidan matn tahlillari chuqr mushohada, o'tkir tafakkur mahsulidir. Har bir bayt, undagi har bir she'riy san'at, shakliy va mazmuniy uyg'unlik shu qadar mahorat bilan tadqiq etilganki, mumtoz adabiyotga nisbatan katta mehr-muhabbat natijasidir bu yoxud insonning mangu dardi to'g'risida, ko'rinmas kishanlari to'g'risidagi hasratli qissadir, deyish mumkin. Shoир yuragini to'ldirgan armon ichidan chiqqan chuqr xo'rsinish bo'lib taassurot qoldiradi yuragimizda.

Erkin Vohidov ijodida sho'x, o'ynoqi, qalblarga mayin shabboda sarxushligini beruvchi manzumalar shu darajada ko'pki, sanab tugatish mushkul. Mashhur hofizlar, xushovoz xonandalar ijrosida xalq qalbidan chuqr joy egallagan qo'shiqlarga asos bo'lgan g'azallarning aksariyati yoshlik, muhabbat, yor vasfida yaratilgan. Ulardagi milliy ruhiyatning kuchliligi muxlislar dilini ona xalqimizga, ona tuprog'imizga yanada mahkamroq bog'laydi. Shundoqqina yonimizdagи mavjudotlar shoирning taxayyul olamida evrilib, yangidan yangi ifodalar inkishof etiladi, misning oltinga aylanishi kabi ko'z oldimizda mo'jiza sodir bo'liday taassurot qoldiradi. "Rashkim", "Kamtarlik haqida", "Piyola", "Nayning qismati", "Ko'rsatkich barmoq" kabi she'rlarda ijodkor sof milliy detallardan ajoyib badiiy-poetik obrazlar yaratadi, o'quvchini hayratlarga ko'mib, sinchkov nazari bilan aqlini lol qiladi. Zero, xalq qalbini zabit etgan shoирning o'ziga xosligi ana shu noyob iste'dodda ekanani aniq.

Shoirning chin muhabbat, inja tuyg'ular aks-sadosi bo'lgan latif she'rlaridan biri "Rashkim"da rashk oshiqlikning zarur shartlaridan biri sifatida mahbubning ijobiy sifati tarzida samimiy tuyg'u deb baholanadi. Oshiq nafaqat insonlardan, balki bog'dagi nargis guli-yu, charos, gilos, uzumdan ham rashk qilarkan, oxir-oqibat o'zidan, hatto "uzoqroq termilib qolgan" ko'zidan ham suyukli yorni qizg'anishi bois muxlisning tabassum bilan devonayi ishq holiga achinishdan o'zga chorasi qolmaydi.

Erkin Vohidovning so'nggi yillar g'azaliyotida keksa donishmand obrazi yorqin ifodalangan. Shoирning yigitlik va qarilikni solishtirish usulidagi nasihatomuz she'rlari uning "Orzuli dunyo" to'plamida keltirilgan. Xuddi shu mavzuga Navoiy ham o'zining

keksalik davrlarida tez-tez murojaat etgan. Odamzod yoshi o'tganidan so'ng uning hayot tajribasi oshadi va u nasihat berish bosqichiga etadi, shoir bunday holatni she'rga solib, o'y-xayollarini band etgan sikrlarni badiiy obrazlar vositasida she'r san'atida qorib, o'quvchiga taqdim etadi. Bu she'r aruz vaznida yozilmagan bo'lsa-da, ammo ma'no jihatidan Navoiy ijodiga hamohangligi uchun keltirishni joiz deb bildik.

Qarilik gasht emas, yulg'unli dasht ul,  
Qarilik tikandir, yoshlik esa gul,  
Yoshlikka ne etsin, u o'zi ma'qul,  
Yoshlik xazinadir, qarilik— bir pul.

"Ojiz ko'zlar", "Yo'l tadorigi", "Zamona zayli", "Keksalik iltijosi", "Hayot yo'lli" kabi she'rlarda E.Vohidovning keksalik va yoshlik pallasi o'rtasidagi, otalar va bolalar dunyoqarashidagi ziddiyatlar o'z ifodasini topgan. Ularning ayrimlari foniylit, bebaqolik xususida mutoyiba usuli bilan yengil tabassum aralash xush kayfiyat bersa, boshqalari muqarrar manzil tadorigini ko'rishga chaqiruvchi pandnomalar ruhidagi manzumalardir.

Yoshligingda yaxshidir yo'l,  
Yurt kezish, olam ko'rish.  
Keksalik kelgach nasibing  
Yo'lga boqib o'ltilish.  
Endi manzil hech xarita –  
Ichra nomi yo'q diyor.  
Keksalik ul mamlakatga  
Yo'l tadorigin ko'rish.

Biroq, shoir nazdida ko'ngil hech qarishni istamaydigan bir xilqat. Shoirning 2006-yilda yozilgan "Zamona jononi" deb nomlangan she'rida bu fikrning isbotini ko'rish mumkin. Bir paytning o'zida ham chiroyli mazmun, ham ajoyib tajnis san'atini jam etgan ushbu she'r shoir badiiyatining go'zal namunasi deyish mumkin. Tajnis esa turkiy adabiyotning o'ziga xos janridir.

Desam men senga parvona,  
U beparvoda parvo na?  
Zamon jononi farq etmas,  
Na jon, jonon na, jono na.  
G'azal ham bir, g'izol ham bir  
Ne farq devonu devona?

Ilymon nuri tushgan qalb haqida ijod qilish har qanday shoir uchun baxtdir. Bu baxtga erishmoqlik oson emas. Ammo Navoiy ijodini

chuqur o'rganib ilhomlangan shoir uchun bu baxt eshiklari keng ochildi va shoir bu uchun Navoiydan minnatdor. "Yo'q emish orzuda ayb" deb nomlangan g'azalida u ko'ngilga shunday murojaat qiladi.

Ey ko'ngil, o'z mayling ila bo'lding ishq domiga band,  
Izlama endi bahona, demagin u-buda ayb.

Aslida mumtoz adabiyotda "Ey ko'ngul" deb murojaat etish hollari Navoiyda "Chun ko'ngul" ko'rinishida ko'p uchraydi. Ana shu an'anani E.Vohidov "Ey ko'ngil" tarzida davom ettiradi, ammo bu an'ana ichida yangiliklar, o'ziga xos jihatlar ham mavjud. Hazrat Navoyning

Chun ko'nguldir qalbu til g'ammoz, mahfiy rozni,  
Jon harimidiň bu ikkiga huwaydo qilmangiz.  
Chun ko'ngul til birla mahram bo'lmadi, hojat emas,  
Aytmoqqim, elga oni nuqta imlo qilmangiz.

Navoiyda ko'ngil bir g'azalning o'zida ketma-ket misralarda kelish hollari ham uchraydi. Ammo E.Vohidovda bunday hodisa kamroq uchrab, ko'ngil bir bora tilga olinib, unga bog'liq fikrlar ketma-ket taqdim etilaveradi.

Erkin Vohidov she'riyatida milliy xarakter ochilishida nafaqat mumtoz ifoda usullari an'analariga tayanildi, qolaversa, ularga yangicha yondashuv ham kuzatildi. Bu o'rinda aruz vaznidagi mutoyiba, yengil kulgi, ijtimoiy holatlar ifodasi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Erkin Vohidov milliy she'riyatimiz quyoshi hazrat Alisher Navoiy g'azallariga ko'plab tatabbu – o'xshatmalar, naziralar, muxammaslar bog'lagan. "Hazrat Navoiy – she'r ahlining tan olingen jahongiri. Ulug' mutafakkir, o'z ta'biri bilan aytganda, Xitodin to Xurosongacha, undan Sheroz-u Tabrizgacha bo'lgan hududni cherik chekmay turib, taxti farmoniga olgan, bo'ysundirgan. Buyuk shoirning fasohat va balog'atda tengsiz so'ziga nainki turk, hatto turkmon ham jonu ko'nglini bergen"<sup>89</sup>. Buyuk mutafakkirning nazmiy an'analarini zamonaviy adabiyotimizda ham munosib davom ettirildi. Navoiy didaktikasi E.Vohidov didaktikasining ham oziq manbai vazifasini o'tadi. Qolaversa, Erkin Vohidov g'azallari navoiyona an'anining – ohang va ruh uyg'unligi munosib davom ettirilgani bilan alohida ahamiyatga ega. G'azalnavislikda ustoz shoir "panjasiga panja urmoq" (Navoiy), ul zotga shogirdlik maqomini da'vo qilmoq oson emasligi ayon. Buning uchun teran bilim va zakodan tashqari, yuksak ijodiy salohiyat, ijod zahmatidan lazzat ola bilish tuyg'usi ham zarur. "Yosh

*deng-u ma'zur tuting sahv o'lsa gar devonida...",* deya o'zini xokisor tutib, g'azal bo'stoniga kirgan shoir Erkin Vohidovning "Yoshlik" devoniga kiritilgan g'azallarida ayni shu fazilatlar mujassam ekani sir emas.

Mana bu baytida buyuk "Xamsa"ning afsonaviy qahramonlari vositasida navoiyona ruh poetik shaklni saqlagan holda milliy an'analar asosida ifodalanganini sezish qiyin emas:

Sevgi sahrosida qolmish necha Majnundan g'ubor,  
Necha Farhod gardi yo'lgay Bestunning tog'ida.

Yoki

Tirilsa nogahon Farhod, yuzungni ko'rsa ko'zguda,  
Kechib Shirinidan yuz yil, ko'yingda darbadar bo'lq'ay.

Hazrat Navoiyning: "*Aylagin jondin judo, etguncha jonondin judo*", tarzidagi shoh satridan ta'sirlangan Erkin Vohidov ayni shu shakldan foydalangan holda mana bu baytda hayot falsafasini teran ifodalaydi:

Men bo'lay jondin judo, bo'lquncha jonondin judo,  
Ne kerak jon ezsa jonim bir umr armon yuki.

Baytda aruzning turkiy she'riyatda faol qo'llangan vaznlaridan biri - ramali musammani mahzusda ko'hna mavzu bo'lgan jon va jonon talqini yangilangani kuzatiladi. Zamondosh shoir Navoiyning so'z mulkiga yillar, asrlar changi daxl qilolmasligini isbot etib, o'zining ulug' shoirga munosib izdosh ekanligini ko'rsata olgan.

Uning hazrat Alisher Navoiyning she'riyatdagagi munosib izdoshlaridan biri ekanligining o'ziyoq aynan an'anaviy usullardan foydalangan holda milliy mazmunni o'ziga xos uslubda ifodalashida aniq namoyon bo'ladi. Buyuk salafining:

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,  
Meni istar kishining suhbatin ko'nglim pisand etmas –  
baytiga falsafiy mazmunning poetik ifodasi jihatidan munosib satrlarni bita olgani shoirning Navoiy san'atxonasidan olgan saboqlari natijasi sifatida baholanmog'i zarur:

Men sevarman jondan ortiq, sevganim suymas, netay?  
Ham sevib, men sevmagan o'z holima qo'ymas, netay?

Ikki shoir g'azallaridagi bunday mutanosiblik bejiz emas. Mazkur baytlardagi uyg'unlikning asosi mumtoz she'riyatdagagi oshiq, ma'shuqa va raqib obrazlari uchligining betakror talqini bilan bog'liq. Ushbu holat, bundan tashqari, XV asr turkiy she'riyatida tasvirlangan lirik kechinma XX – XXI asr o'zbek adabiyotida ham uzviy davom etganiga

yorqin bir misoldir. Navoiy g'azali hazaji musammani solimda, Erkin Vohidov she'ri esa ramali musammani mahzufda bitilgan bo'lsa ham, har ikki muallif ijodiy niyatidagi, baytlar mazmunidagi uyg'unlik e'tiborga sazovordir. Bu hol ijodiy ta'sirning poetikaning biror unsuriga, jumladan, vaznga ko'p ham bog'liq bo'lmasligi mumkinligini ko'rsatadi. Ishq va dard, mahzun kayfiyat va lirik kechinma mutanosibligi bu ikki g'azalni bir-biriga yaqinlashtiradi.

Erkin Vohidov yaratgan mumtoz janr namunalarida ham inson erki, ozodlik tuyg'ularini bosh mavzulardan bo'lganini anglaymiz. "G'azal sehri" deb nomlangan turkum maqolalarida shoir "Erksizlik shunday alamli holatki, agar yuz yil o'z erking bilan yashasang, bir lahma ixtiyorsizlik bu yuz yillik baxtdan nishon qoldirmaydi. Erksizlikning bir daqiqasi ham og'ir ko'rgilik ekan. Umrga tatigulik qayg'u ekan"<sup>90</sup>, deb yozgan edi. Alisher Navoiyning vatanparvarlik g'oyasi ilgari surilgan mashhur ruboysiida "oltun qafasdagagi qizil gulning bulbul uchun tikanchalik qadri yo'qligi va unga oshyon bo'lolmasligi" alamli iztirobga sabab bo'lsa, Erkin Vohidovning "Naqshin qafas ichida bulbul tarona qilmas" –misrasida ana shu didaktik mohiyat va poetik xulosa an'anaviy mazmunga milliy mohiyatni jo qilgan holda davom ettiriladi. "Oltin qafas" va "naqshin qafas" sifatlovchi-sifatlanmish munosabatlari ulug' iste'dodlar yashagan davr o'rtasidagi masofa nechog'liq uzoq bo'lmasin, ular qalbidagi dardning o'zaro uyg'unligiga xalaqit bera olmasligiga dalil bo'la oladi.

She'riyat gulshanining nozik iforli rayhonlari – g'azallar Erkin Vohidov she'riyatida hech bir shoirda uchramaydigan tarzda latofat va nazokat bilan ijod etilgan. "Erkin akaning g'azalga bo'lgan muhabbat, bu muhabbatga bo'lgan ishonch - qat'iyat besamar ketmadi. Erkin Vohidov g'azallari adabiyotimizda o'zgacha ko'tarinki kayfiyat, o'zgacha qaynoq muhabbat bilan kutib olindi, ularning har biri zavq-shavq bilan qo'ldan qo'ymay mutolaa qilindi. G'azallar mashhur hosizlarimiz tomonidan qo'shiq qilib kuylandi",<sup>91</sup> – deb xotirlaydi shoirning umr yo'Idoshi Gulchehra opa Vohidova.

Sharq adabiyotining yetakchi janri bo'lgan g'azallarning arab, fors, turkiy she'riyat maydonida tutgan o'rni salmoqli. G'azal janriga nisbatan o'zgacha bir mehr-muhabbat, bu janrga ayricha ishtiyoq bilan yondashish uslubi shoirning Hofiz, Fuzuli, Bobur, Nodira

<sup>90</sup> Э.Вохидов, 2000: 389

<sup>91</sup> Вохидова Г. Калбим ардиги. Т., 2020. . Б. 24.

g'azallariga bitgan tazminlаридан anglashilib turibdi. Erkin Vohidov "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi sahifalarida c'lon qilingan "Shoir va she'r dunyosi" maqolasida<sup>92</sup> "...Mumtoz adabiyotning o'zi mening tayanch nuqtam ekan. Chunki men yoshlikdan adabiyot ruhida tarbiyalanganman. Men o'zim uchun yangi bir dolg'ali adabiyotni kashf etdim. Hindistonda, Arab mamlakatlarida, Turkiyada ko'plab shoirlar bilan hamsuhbat bo'ldim. U mening uchun yangi olam. Amino men uning barchasida mumtoz adabiyot asosini ko'raman", - deb yozadi.

Ko'rindik, ijodkor o'zidagi tayanch nuqtani – mumtoz adabiyotni bolaligidayoq ruhiy olamiga singdira olgan. U yashagan muhit, barhayot satrlar ustida bo'lgan bahs-u munozaralar, ahli donishlar bilan ziynatlangan adabiy davralar bo'lajak shoirning ongu shuuriga mumtoz she'riyat urug'larini qadaganini yillar isbot qildi. Bu janr shoirning milliy mazmunni ifodalashi uchun eng maqbul shaklga ega janadir. Ayniqsa, shoirning yoshligi o'tgan tog'asi Karim Sahiboevlar xonadonidagi she'riy bazmlardan birida zukko olim, atoqli davlat va jamoat arbobi, Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe", Darvesh Ali Changiyning "Musiqa risolasi", "Temur tuzuklari" risolalarini mahorat bilan tarjima qilgan hamda "Devoni Sog'uniy" she'riy to'plamini tartib bergen nuktadon alloma Alixonto'ra Sog'uniy sharhlagan Fuzuliy qalamiga mansub g'azal shoirni "g'azal bo'stonida sayr aylashga" undaganligi sir emas. Bu holat shoir qalbida an'ana va milliy ohanglar hamda mazmunga cheksiz hurmat tuyg'usining shakllanishi sabab bo'lganiga eng muhim sabablardan biridir.

Darhaqiqat, g'azalga ishqibozlik – yurak-yurakdan oshiqlik Erkin Vohidov she'riyatida tayanch nuqta bo'ldi. U nafaqat o'zida, balki o'zgalar yuragida ham mumtoz adabiyotga, xususan, she'riyatga, g'azaliyotga mehr uyg'otdi. Shoir g'azalni xush ko'radigan muxlislariga shu muhabbati uchun tashakkurlar bayon qiladi:

G'azalni xushlabsan, singlim, tashakkur,  
Har ko'ngil seningdek ishqiboz bo'lsin.

G'azallarda ham didaktikadan foydalangan holda milliy ruhni namoyon etdi. Jumladan, shoir vatan madhini chin yurakdan tarannum qilar ekan, unga nafaqat muhabbat bilan, balki fidoyilik bilan xizmat qilmog'i lozimligini ta'kidlaydi. E.Vohidov ota makoni Farg'ona va Andijonni madh etishdan charchamaydi. "Barchinnig ko'ksida qolgan armonim", "Zebuniso o'tdi tanho va mahzun, Boshida o't bo'lib malika

<sup>92</sup> Вohидов Э. Шинир ва шеър дунёси. ЎзАС. 1983-йил 16-декабрь.

*toji. Tun bo'lib yoyilar Qo'qonda har kun Nodirabeginning qirqilgan sochi*“ misralarida vatan timsolini an'anaviy shakl va mazmunga tayangan holda benazir poetik timsollar va betakror tashbehtar vositasida ifoda etdi. U Vatanni qo'msash, o'zga yurtda yashab, o'z yurtingni sog'inish nima ekanligini biladi, tushunadi va o'z ijodida Vatanning qadriga yetish, shukrona keltirish kabi didaktik maqsadlarni ifodalaydi.

Maskanim Farg'onayu ko'hna Samarqand ham manim,  
Xorazm – faxrim, Namangan mehri mujgonim – tanim,  
Yoshligim ardoqlagan Toshkent ko'nguldan sevganim  
Andijon, Surxon, Buxoro, o'z cho'lim, o'z gulshanim,  
Lek, desam Farg'ona, dilda o'zga otash yonadur,  
Maskanim Farg'onadir, Farg'onadir, Farg'onadir.

Erkin Vohidov milliy ruh tushunchasini singdirishda mumtoz she'riyatimizning yetakchi vazni bo'lgan aruzdan mohirona foydalandi va g'azal janrida barakali ijod qildi. Shoir ijodxonasida to'rtlik, g'azal, sakkizlik, ertak, latifa, rivoyat, muxammas, chiston, ruboiy kabi poetik janr va shakllardagi badiiy barkamol namunalar yaratildi. Bu hol shoir she'riyatining mavzu doirasi kengayib, usluban boyib borayotganligini ko'rsatadi hamda ma'naviy-ahloqiy, intellektual qadriyatlarini tarannum etishda ijtimoiy-falsafiy hamda psixologik tahlil madaniyati teranlashib borayotganidan dalolat beradi. “Sochilgan baytlar”, “Zo'ravon”, “Uch bayt”, “Yaxshlik”, “Do'stlik va adovat”, “Ayriliq”, “Bedor tunlar”, “Tilsim”, “Tayyorada”, “Tarbiya”, “Qismat”, “Sadoqat”, “Qo'g'irchoqlar”, “Parishonxotirlik”, “Go'dak”, “Taqdirda bor eding”, “Zamona zayli”, “Shoir va tanqidchi”, “Nasihat”, “Iqror”, “Siming qanoti”, “Bizning motam”, “Narx-navo”, “Yashavor”, “Erkak bo'l”, “Shoir”, “Yangi boshliq”, “Johil”, “Insif”, “Kamolot”, “Yorug'dunyo”, “Yurak”, “Dushmanga tashakkur”, “Qora Lama”, “Zamon rohatlari” (to'rtlik), “Hayot yo'li”, “So'z zabarjad” (beshlik), “Bizning qishloq odati” (oltilik), “She'r yozganda”, “Jumadan qolgan odam”, “Qalam”, “Sen uchun”, “Bizdan keyin...”, “Sening sha'ning”, “Nomardga teng bo'lma” (sakkizlik), “Eski hammom, eski tos” (o'nlik) kabi nazm namunalarida shakl va ma'no o'zaro uyg'unlik hosil qilganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Ushbu she'riy shakllarning misralar miqdori jihatdan turlichaligini e'tirof etish barobarida musallas, murabba', muxammas, musaddas, musammmar yoki muashshar degan fikr bildirishdan uzoqdamiz. Vaholanki, shoirning o'zi ham bu kabi da'vo qilish fikridan yiroq. Qayd etilgan she'rlardan ayrimlari aruzda yaratilgan, shoir shakl xususiyatiga

■ o'ta mumtoz janr namunasi deyishga haqli bo'lsa ham, biroq o'ta  
■ kamtarlik, tavozelilik qoniga singib ketganidan "...kulmangiz ne bor  
■ senga deb Mir Alisher yonida,...yosh deng, ma'zur tuting sahv o'lsa gar  
■ tevonda" kabi satrlarda kichikko'ngillik bilan uzrini bayon qiladi. Shu  
■ sabab ushbu faslda fikrimiz faqatgina shoir manzumalarining poetik  
■ shakliga qaratiladi, xolos.

Erkin Vohidov she'riyatining Navoiy ijodidan nechog'liq bahra  
topganligini g'azal janriga nazar tashlagandayoq szzishimiz mumkin. Bu  
haqida E.Vohidov shunday deydi: "Navoiy ijodi meni she'riyatga olib  
kirdi. Ko'plar kabi u mening ham buyuk ustozim, piri komilimdir. Men  
hamisha bu yuksak ijod sehri oldida hayratga tushaman va unga intilib  
yashayman".<sup>93</sup> E.Vohidovning ushbu so'zlaridan ham bilish mumkinki,  
shoir Navoiy ijodini sevgan va uni yanada ko'proq anglash uchun  
navoiyona uslubda yozishga harakat qilgan. Jumladan, u shunday  
yozadi: "Navoiy ijodi shu qadar buyuk tuyg'ular olamiki, undan inson  
hissiyotining barcha jilolarini topish mumkin. Sevgi, sog'inch, rashk,  
umid, ayriliq uqubati, visol shodligi, yurt mehri, jasorat...bu sanoqni  
cheksizlik qadar davom ettirsa bo'ladi. Tasavvurimda inson ruhiyatining  
biror holati yo'qliki, Navoiyda uning ifodasi uchun bir bayt  
topilmasin".<sup>94</sup> Zero, qalb mulkida kechayotgan dard-alamlar, iztiroblar,  
tug'yonlarni tasvirlashda Navoiy lirikasi beqiyos sanaladi. Xuddi shu  
kabi tasvir uslubi - ko'ngil masalalari, uning dardlari, inson hayoti  
manzaralari - E.Vohidov ijodida ham birinchi o'rinda turadi. Ana shu  
jihatdan u Navoiy qarashlari bilan mushtaraklik hosil qiladi va bu holat  
shoir she'riyatidagi milliy mazmunning kuchayishiga, keng tomir  
otishiga sabab bo'ldi. Erkin Vohidov g'azalnavislikni da'vo qilar ekan,  
imkonli boricha harakat qilayotganini, she'riyat osmonida hamma ham  
Oy-u Zuhro, ya'ni Navoiy bo'lolmasligini, yoshligi sabab unda xato va  
camchiliklar bo'lishi tabiiy ekanini aytib uzrini bayon qiladi:

Istadir sayr aylamoqni men g'azal bo'stonida  
Kulmangiz ne bor senga deb Mir Alisher yonida.

She'riyat dunyosi keng, gulzori ko'p, bo'stoni ko'p,  
Har ko'ngul arzini aytur neki bor imkonida.

Ey, munaqqid sen g'azalni ko'hna deb kamtsitmagil  
Sevgi ham Odam Atodin qolgan inson qonida.

<sup>93</sup> Вохидов Э. Иккинчи минг йилик даҳоси. Тафаккур. 2001, 1-сон, . Б .66.  
<sup>94</sup> Вохидов Э. Озодлик қайгуси. Тафаккур. 2008.1-сон, . Б .48.

Shoir g'azal janriga munosabatini ayni shu misralarda namoyon etar ekan, bu janrning ko'hnaligi bilan bir qatorda uning betakrorligini ham qayd etadi. Janrning ko'hnaligi mullisning novatorligiga putur yetkazmaydi. U mumtoz adabiy usullarga tayangan holda ularga yangicha ruh va mazmunni singdiradi, qolaversa, o'zining ijodiga ham talabchanlik bilan yondashib sahv uchun uzr so'raydi:

Toshga ham shirin g'azal baxsh aylagay otash va jon  
Shavq o'ti yonsa agar shoir g'azalxon qonida.

Rost, g'azal avjida barcha Oy ila Zuhro emas,  
Ko'p erur somonchilar ham she'riyat osmonida.

Do'stlarim shoir demang, Erkin g'azal shaydosidur,  
Yosh deng, ma'zur tuting sahv o'lsa gar devonida.

G'azal mazmunidan sevgi bobida Odam Atoning merosxo'rلارимиз, bu qadim va ko'hna g'azal shakli ota-bobomizdan qolgan ruhiy kechmishlarning suvrati, degan fikrlarni anglaysiz go'yo. Milliy adabiyotimizda, ayniqsa, imumtoz she'riyatda payg'ambarlar nomlari, obrazlari eng ko'p qo'llanadigan obrazlar sirasiga kiritiladi. Navoiy ijodida bunga behisob misollar keltirish mumkin.

Erkin Vohidov ijodda Alisher Navoiy an'analarini munosib davom ettirdi. Milliy ruh ifodasi borasida buyuk mutafakkir san'atxonasidan saboqlar oldi. Shoirning milliy ruh va latif tuyg'ular uyg'unligida yaratilgan dilbar g'azallari, buyuk Navoiy g'azallariga bitgan muxammaslari ushbu fikrni tasdiqlaydi.

"Ulug' Navoiyning har biri bir jahon ma'no, bir olam his-tuyg'u ifoda qilg'uvchi baytlarini takror-takror o'qib, har safar ko'nglimiz surur va hayajon bilan to'ladi, har safar bu buyuk olmos satrlarning yangi qirralarini kashf qilamiz, yangi-yangi ma'no tovlanishlarini ko'rib hayratlanamiz"<sup>95</sup>, deb yozadi shoir. Ana shunday hayratlar mahsuli o'laroq yaratilgan qator durdonalar safida "Aylagach" radifli g'azalga bog'langan muxammas ham bor. Erkin Vohidov g'azal janrida Navoiy ohanglerida mos pardalarni topa oldi va ustoz shoiring fikrlariga hamohang misralar yaratishga erishdi. Erkin Vohidov g'azalning vaznini va mazmunini to'liq saqlagan holda mazmunga mos timsollar tanlaydi. G'azalning birinchi bandidagi "yuz", "zulf", "tor" lirik

timsollari bilan muxammasning “gulshan”, “g‘uncha”, “bulbul”, “oy”, “shabiston” timsollari mazmuniy birlik hosil qilib, tanosub san’atining mukammal namunasini yuzaga keltiradi:

Ko‘z ochar gulshanda g‘uncha, bulbul afg‘on aylagach,  
Nega afg‘on aylay, ul gul yuzni tobon aylagach,  
Misli oykim, ko‘rk ochur sayri shabiston aylagach,  
Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,  
Sham ravshanroq bo‘lur torin parishon aylagach.

#### G‘azalning 2-baytidagi

Yuzni gullardan bezabmu bizni qurban aylading,  
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurban aylagach”

istioralar muxammas shaklida yanada mukammallik kasb etadi va hayot timsoli “qon” va “xino” poetik detallari uyg‘unligida o‘quvchi tasavvurini boyitadi, hodisalarning jonliroq va tiniqroq tasavvur etilishi uchun imkon yaratadi. Shoirning yuksak badiiy mahorati ayni shu o‘rinda namoyon bo‘ladi:

Nega ul kun sochlaringni anbarafshon aylading?  
Ro‘zgorim tiyra, ko‘zim kavkabiston aylading?  
Qo‘lga qo‘ygachimu xinolar yo dilim **qon** aylading  
Yuzni gullardan bezabmu bizni qurban aylading,  
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurban aylagach”.

#### Yoki 4-banddag'i

*O‘lturur mahramni sulton, ganj pinhon aylagach* – misrali baytga bog‘langan uchlikda Erkin Vohidov g‘azalning nozik ma’nolarini, qochirimlarini chuqur anglab, “uzukka san’atkorona ko‘z qo‘yan”ligini anglashimiz mumkin:

Men-ku sodiq mahram erdim: og‘zi mahkam, ko‘ngli pok,  
Ishq sirin etmasdim oshkor bo‘lgunimcha toki xok,  
Shafqat istab nola qildim, ont ichib yoqamni chok,  
Jonda qo‘yg‘och naqdi ishqin qildi ko‘nglimni halok,  
O‘lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

Muxammasning so‘nggi bandidagi “ishq zaxmi bitmagan”i (Erkin Vohidov) hamda “Bas, nedinkim, **qon** kelur og‘zingdin afg‘on aylagach” (Navoiy) badiiy ifodasidagi mantiqiy izchillikka asoslangan fikriy tugallik tasodifiy emas, balki ustoz maqsadini to‘g‘ri anglagan oqil shogird fasohatidan darak beradi.

Yuqorida tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Erkin Vohidov mumtoz poetik mazmunni didaktika asosiga qurish usuli orqali milliy ruhni

betakror tarzda ifodalaydi. Didaktikaning zamirida milliy ma'naviyat, milliy tarbiya yotishini ko'rsatib beradi.

**2. Mumtoz poetik obrazga yangicha ma'no yuklash usuli.** Erkin Vohidov mumtoz adabiyotdagi obrazlar silsilasidan nihoyatda mohirona foydalangani holda, ularga yangi mazmun, milliy ruh bag'ishlaydi. Jumladan, shoir she'riy devonlarida *soch* va *parvona* obrazlari alohida ajralib turadi. Ijodkor g'azallari diqqat bilan mutolaa etilsa, ushbu ikki obraz g'azalning badiiy qimmatini oshirishga, sharqona rujni betakror tashbehlar bilan ifodalashga xizmat qilayotgani anglashiladi. *Soch* – o'zbek mumtoz adabiyotida eng faol ishlatiladigan obraz. "*Sochingni boshdin oyoq chin ila shikan qilg'il*", "*belicha yo'q tori gisuyi*", "*ayoqingga tushar har lahza gisu*", "*zulfi dominmu deyin, la'li kalominmu deyin*", "*sochingning savdosi tushdi boshima boshdin yana*" kabi quyma misralar bu obrazning mumtoz adabiyotimizdagi o'rni naqadar mustahkam ekanini ko'rsatadi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, *soch* – tasavvuf adabiyotida o'ziga xos ramziy ma'noga ega timsollardan. Bu timsol tasavvufiy atama sifatida Allohnning sirlariga yetishga bir ishora hisoblanadi. Erkin Vohidov mumtoz adabiyotni chuqur bilgan shoir sifatida buni inkor qilmaydi hamda bu timsolni Ollohnning go'zal yaratig'i bo'lgan bashar farzandiga nisbatan qo'llaydi. Zero, ilohiy ishqqa olib boruvchi haq yo'l – majoziy ishq, ya'ni yaralmishga bo'lgan ishq orqali o'tadi. Shoirning "Saylanma"sidan o'rın olgan qator she'rlarda "*soch*" timsoli ijodkor badiiy-estetik tafakkurining betakror namunalari sifatida o'zida milliy rujni aks etiradi. Erkin Vohidov buyuk salaflari nazmiy an'analarini munosib davom ettirish barobarida "*soch*" timsolini poetik jihatdan yangilashga harakat qiladi. Ahamiyatli jihatni, buni uddalashga muvaffaq bo'ladi.

<i>"Bulutning orasidan quyosh kulib qaraydi, Majnuntolning yuvilgan sochlarini taraydi"</i>	(" <i>Manzara</i> ")
<i>"Sado deydi sochlari yoyib..."</i>	(" <i>Qubbon ko'liga</i> ")
<i>"Ro'zgoring qora qilmay zulfini ko'ksingga bos..."</i>	(" <i>Uyquda topsang nigoring</i> ")
<i>"Va tog'larni taroq aylab, sochi zarrin taroglابdur..."</i>	(" <i>Tong g'azali</i> ")
<i>"Kipriklarimni tig' deb sochiga shona qilmas"</i>	(" <i>Bahona qilmas</i> ")

kabi ifodalarda shoir novatorligi namoyon bo'ladi.

Sabo obrazi ham mumtoz adabiyotda alohida o'ringa ega. Jumladan, Navoiyning dostonlarida sabo xabar yctkazuvchi obrazida namoyon bo'lsa ayni shu ifoda Furqatning "Sabog'a xitob" she'rida ham kuzatiladi. Erkin Vohidov ayni shu obrazga yangicha mazmun yuklaydi:

Asta barg ostida tinglab,  
Yotgan ermish shum sabo  
G'uncha bulbuldan muhabbat  
Darsin olgan chog'ida.

"*Shumi sabo*" ifodasi ijodkorning obrazlarga yondashuv jarayonidagi novatorligini o'zida aks ettiradi. Shoир ijodidagi "g'uncha", "chashma", "surma", "sharbat", "gulob", "shohi dastro'mol", "tog' o'rkachi", "novvot qoyalar", "munajjim tasbehi", "baxmal ko'ylagi", "harir ko'ylik", "o'sma", "sep yozibdi", "uchi tugik dastro'mol", "kokilingga bir pilik", "boshida do'ppim", "zaminning do'ppidek bir pallasi", "hiloliy nusxa gul", "do'stlik kosasi", "do'mbira", "chirmanda", "shiyponlarda yoziq dasturxon", "qimiz", "ayron", "oq yaktak", "do'ppini dol qo'ndirib", "qorxat", "shirmoynon", "sochdag'i bargak", "xino yanglig'", "obkashda suv", "o'qlog' tutib", "Osiyoxon degan suluv sanam", "oltin sep", "atlas so'zona", "tol tagi choyxona", "chust pichoq", "turkman gilam", "oq momiq qirg'izcha qalpoq", "tojikiy zar do'ppi" kabi ko'plab poetik obrazlarda Vohidovning novatorligi asnosida milliy ruh bo'y ko'rsatadi. Zero, "Har qanday ijodkor mahoratining yuksalishi muayyan adabiy-estetik omillar bilan bog'liq holda kechadi. Buyuk salaflar ijod laboratoriyasidan saboq olish, milliy ruhning betakror ifodasiga erisha olish mazkur omillarning eng asosiyalaridandir"<sup>96</sup>.

*3. Fikrni badiiy san'atlar bilan ziynatlash usuli.* Ming yillik tarixga ega mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha e'tiborda bo'lgan. Badiiy san'atdan foydalanish mahoratiga qarab shoир salohiyatiga baho berishgan, zero badiiy san'at she'r uchun misoli inson tomiridagi qon kabidir.

Mumtoz adabiyotdan ta'sirlanib milliy ruh ifodasining benazir namunalari yaratilgan. Qo'qon adabiy muhitida yashab ijod etgan shoira Nodira she'riyatidan ilhomlanish Erkin Vohidov ijodida latif, o'ynoqi, dilbar satrlarning yaratilishiga sabab bo'lgan deyish mumkin. "Ehtiyoj"

<sup>96</sup>Усарова Л. Абдулла Орипов шеъриятидаги миллий рух ифодаси. Ф.Ф.Б. ф.д. дисс... Т.2020. Б.104

radifli g'azalga bog'langan tazminning "Sen g'anisan, menda bisyor ehtiyoj" cpigrafi asosida bitilgani fikrimizning dalilidir:

Senga baxtdan taxt tilarman,  
Toledan boshingga toj.  
Mulku husningga omonlik,  
Toju taxtingga rivoj.

G'azalda bir qator go'zal badiiy san'atlardan: tashbeh, takrir, istiora, tazod kabilardan foydalanilgan. Shu bilan birga shoir har baytning so'ngida keltirilgan birikmalardan keyingi bayt avvalida istifoda etishi g'azal shakli va ohangingin yanada mukammallahuviga olib kelgan.

Toju taxt tashbehidin sen  
Ko'hna deb kulsang netay,  
Sen axir shohi jahonim,  
Men qulingman ne iloj?  
Ne ilojkim davlatim yo'q  
Ganju mehriyin bo'lak,  
Bul evazdin ko'z to'laydir  
Qatra-qatra dur xiroj.

Baytlardagi *mulku husnung, toju taxt, shohi jahon, qul, ganji mehr, dur xiroj* kabi birikmalarda bir paytning o'zida ham istiora, ham o'xshatish – tashbeh, ham tazod san'ati mahorat bilan jamlangan. Mumtoz janr va san'atlardan yaxshi bilimga ega bo'lgan shoirgina bu darajada uyg'unlikka erisha oladi. Erkin Vohidov ana shu tarzda muzayyan qilingan she'riy san'at durdonalarini yaratishga qobil, salohiyati kuchli, zukko qalam sohibi ekanini davr adabiyotshunosligi ham allaqachon e'tirof etgan. "U hali-hanuzgacha biron so'zi va biron satri eskirmagan, insonlar qalblarini ishg'ol etishda davomdag'i donishmandona asarlari bilan xalqimiz, Vatanimizga ulug' burchdor farzand kabi xizmat o'tamoqda"<sup>97</sup>. Xalq hayotini, nozik qochirimlarini, milliy urflarini yaxshi biladigan shoir har bir band, har bir misrada o'zbekona iboralar qo'llab, fikr ta'sirchanligini oshiradi.

Ochilgali ko'z shartmi ekan toshga bosh urmak,  
So'ng ko'zni yashurmak.  
Ne o'y bila nodon **boshiga tosh** uradirsan,  
Ne naf ko'radirsan?

<sup>97</sup> Гафуров И. Даъвишманл шоир. Инсон ўзиниг. Т.Ўзбекистон. 2022. Б.132.

*"Toshga bosh urmak", "ko'zni yashurmak", "boshiga tosh uradirsan"* iboralarining haqiqiy o'zbekona xarakter yaratilishida so'zlarni o'z o'mida, jo'yali qo'llash bilan go'zal badiiy san'at – tardi aks namunasini ko'rishimiz mumkin. Agar e'tibor berib bayning mazmuni chaqilsa, inson biror ishdan afsuslanib, boshini toshlarga urishi obrazli tarzda xalq iborasi orgali ifoda etilgan. Keyingi baytda xuddi shu iboraning aks ma'noda yangi fikr ifodalashi – nodonning "boshiga tosh urib" unga tanbeh bermoq mazmunida qo'llanishi ijodkorning har bir so'z va iboralar zamirida xalqimizning chuqur donishmandligi yotganini yaxshi anglashidan darak beradi. "Ko'zni yashirmoq" ham o'ta milliy xususiyatlarimizdan biri bo'lib, inson uyatdan ko'zlarini suhbatdoshiga tik qarata olmasligi, "ko'z ochgandan" so'ng, ya'ni aql kirgach, nomaqbul ishlarni tark etgach, xatolarni tushunib yetgach "ko'z yashirish", xijolatlari holatlarda ko'zni "olib qochish" kabi sof turkona harakatlarga o'z o'mida badiiylik nuqtayi nazaridan baho berish, xalqona ohanglarning ustuvorligi muxlisning qalbida shoir ijodiga ulkan hurmat tuyg'ulari yanada oshadi.

Haddingni bilib, chek qo'y o'yin, bazm, **o'tirishga,**  
**Ko'z och, o'tir ishga,**  
Ko'rsatmagay ul kunniki, sen oh uradirsan,

Hayron turadirsan, -

baytidagi tajnisi murakkab mustazodning badiiyati, ohangdorligining yanada go'zal bo'lishiga olib kelgan. Umuman olganda, Erkin Vohidov so'z ma'nosining shakllarda tovlanishini sinchiklab o'rgangan, kuzatishdan, tilimizdagи javohirotlarni izlashdan charchamaydigan g'avvos, zukko va donishmand shoir sifatida mangulikka daxldor inson. Erkin Vohidovning g'aza navislik mahoratini tahlil qilish jarayonida shunday xulosaga kelish mumkinki, shoirning milliy ruhni betakror badiiyat bilan ifodalash usullarini, teran mazmunni mukammal poetik talqin etish sirlarini, o'ziga xos tasvir usulini mumtoz adabiyotimizning eng sara namunalaridan, asosan, Alisher Navoiy ijodxonasida o'rganib, buyuk ustozga shogirdlikni munosib tarzda ado etgan. Erkin Vohidov nafaqat mumtoz adabiyot an'analarini davom ettirdi, davrning mohiyatidan kelib chiqib, ulara yangi ruh bag'ishladi. Zero, "Ijod – bu kashfiyot, yaratish zavqi, o'z-o'zini anglash, namoyish qila bilish, o'z haqiqatiga o'zgalami ishontirish va ergashtirish, butun bir muhitni

o'zgartirishga intilish qudrati, ilohiy ilm va zchn, olim va odamni ichdan chuqur bilish san'ati hamda mas'uliyati”,<sup>98</sup> demakdir.

Erkin Vohidov ijodida mumtoz adabiyot vositasida obrazlarning, mavzu va shaklning taraqqiy tadriji o'z maromiga yetgan va badiiy ijod konsepsiysi shakllanishiga to'liq asos bo'la olgan.

### III BOB YUZASIDAN XULOSA

O'zbek ruhiyati ifodasida Erkin Vohidov xalqona tilni mahorat bilan qo'llagan. Shoir xalqona ohangdagi she'rlarni barmoqda va asosan xalq og'zaki ijodida keng qo'llanadigan 8 va 7 bo'g'inli shaklda, xalqchil tilda yozgan. Xalqona uslub Erkin Vohidovning hajviy yo'ltagi asarlarida, ayniqsa, yorqinroq aks etgan. “Donishqishloq latifalari” turkumidagi she'rlar uning nafaqat jiddiy – sof lirik va teran falsafiy she'rlar muallifi, balki mohir hajvchi shoir ham ekanini namoyon qiladi. Ushbu turkum o'zbek hajviy she'riyati takomilida alohida o'rinnutishi jihatidan ham qimmatlidir.

Shoir ijodida milliy ruh folklorga xos mutoyiba, maqol, hikmat singari kichik janrlar kontekstida ham o'ziga xos talqin etilgani kuzatiladi. Ijodkor bunda kinoyadan mahorat bilan foydalanadi. “Boshindadir” she'ri buning yorqin misolidir. She'rda “o'g'ilcha”ning “nay misol shim kiyib, sandiqdayin tuftli bilan” yurishi, “hurpayib turgan savatdek sochi”, “necha badfe'l bo'lsa, bari ushbu beboshinda” jam ekanı, farzandning shu holga tushishida asli ota o'zi bosh aybdor ekanining tub ildizlari ochib beriladi. Ushbu umumlashma obraz orqali shoir insoniyatni tubsiz jarlikka qulatuvchi ham o'z qo'li bilan yetishtirgan “hosili umri” ekanı, hech bir zamonda ahamiyatini zarracha yo'qotmaydigan abadiy mavzu – tarbiya masalasi millat va umnumbashiyyat qarshisida ko'ndalang turishi haqidagi hayot falsafasini milliy ruh uyg'unligida suvratlantiradi.

Erkin Vohidov mumtoz ifoda usulidan san'atkorona foydalangani, birinchidan, poetik mazmunni didaktika asosiga qurishi, ikkinchidan, mumtoz poetik obrazga yangicha ma'no yuklash salohiyati, uchinchidan, fikrni badiiy san'atlar bilan ziynatlash mahorati kabi ijodiy tamoyillar orqali namoyon bo'ladi.

Buyuk salaflari she'riyatidagi ijodiy tajribalardan mahorat bilan foydalinish, mumtoz adabiyotga xos oz so'zga ko'p va bir necha qatlam ma'no yuklash, fikrni badiiy san'atlar bilan ziynatlash, Erkin Vohidov

<sup>98</sup> Фатима И., Афокова Н. Озод рух фалсафаси. – Ташкент: Фан, 2006. –Б.5.

Shaxs xalqiga qiziqish va hozirdi tabobatiga mygg'um talqin etilishining  
mumayyazdalari ijodiga uch usulda  
shaxsning shaxsliq, umumliq shaxsligi san'atxonmasining sir-sinoati  
mumayyazdalari mygg'um, ikkinchi usul ular qo'llagan  
mumayyazdalari xon qurʼati mazmun va yangʼicha talqinlar bilan  
shaxsning xalqiga qiziqishini olib, Alibek Navrozi, Muhammad Fuzuliy va  
shaxs xalqasi yuʼnalishiga malikorat bilan muxammaslar  
shaxsning xalqiga qiziqishini olib.

## XULOSA

Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruhning badiiy tasviri yo'naliqidagi tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-nazariy umumlashmalarni chiqarish mumkin:

1. Shoир she'riyatida poetik mazmun va milliylik o'rtasidagi uyg'unlikning badiiy talqini quyidagi ilmiy tasnif asosida tahlil etildi: 1) milliy ruhning urf-odat, an'ana va qadriyatlar vositasida ifodalanishi; 2) o'zbek ruhiyatining lirk ifodasi millatning o'z-o'ziga baho berish salohiyati orqali voqelanishi; 3) milliy shaxsiyatning badiiy suvratlanishi. Natijada shoир ijodida poetik mazmun va badiiy talqin uyg'un aks etgani, ijodkor lirk asarlarida uning estetik ideali – o'z millatini dunyoning taraqqiy etgan xalqlari darajasida, kelajak avlodlarni komil maqomda ko'rish ifodalangani aniqlangan.

2. Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruh ifodasi shoirning ijodiy tutumi darajasiga yuksalgani kuzatiladi. Buni birgina "Kuzatish" she'ri misolida ham ko'rish mumkin. Ushbu she'rida shoир asarlariga go'yo farzandiga nasihat qilayotgan ota obrazida namoyon bo'ladi va nazmiy asarlari uch estetik talab asosida ijod etilganini bildiradi: yolg'ondan yiroqligi; ziynatga ko'milmagani va samimiyatga oshno ckani. Asarlariga uch muhim talabni qo'yadi: o'zga tillarga tarjima etilganda "o'zni unutmaslik", muallifning "o'z she'ri bo'lib qolish", bundan ham muhimi, "o'zga ruhga berilib ketmaslik". Bu o'rinda asosiy talab milliy ruhni saqlash bo'lgani, ayniqsa, e'tiborga molik. She'rdagi: "Maskov borib kerilib ketmang" degan satr shoirning maslagini aks ettirishdan tashqari, ijodiy jasorat natijasi ekani jihatidan ham ahamiyatlidir. Aslida, o'sha zamonda she'rlari tarjima bo'lib Moskvada nashr etilishi har bir shoир yoki adib uchun faxr hisoblangan. Shunisi qimmatlikni, Erkin Vohidov har qanday sharoitda milliy ruhni asrash talabini qo'yadi.

3. Ijodkor lirkasini poetik shakl yangilanishi va milliy ruh ifodasi uyg'unligiga ko'ra ikki guruhg'a ajratilib tahlil etish mumkin: 1) an'anaviy shakllarga milliy ruhni singdirish; 2) shakllarning noan'anaviyligi zamirida milliylikning aks etishi. Shoир asarlarida milliylik xossalaring badiiy talqini, birinchidan, milliy ruh ifodasida mumtoz nazmnинг yetakchi tizimi bo'lgan aruzda samarali ijod qilgani va uni davr she'riyati talablariga ko'ra yangilagan, ikkinchidan, g'azal, qasida, muxammaskabi mumtoz poetik janrlar imkoniyatlaridan san'atkorona soydalangani, uchinchidan, ushbu janrlarga novatorona yondashib, ularni grafik jihatdan yangicha shakllantira bilgani, to'rtinchidan, tatabbu va tazmin vositasida salaflar ijodiy tajribalarini

poetik sintez qilganikabi tamoyillar vositasida namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi.

4. Milliy ruhning poetik voqelanishida badiiy obraz asosiy o'rinni egallaydi. Erkin Vohidov she'rlaridagi obrazlarni milliy ruh ifodasi xususiyatlariga ko'ra to'rt guruhga ajratib o'rganish mumkin: inson, do'st, ota-onasi va bola obrazlari. Ushbu obrazlar o'zbek ruhiyatini to'laqonli aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur obrazlarning asosiy xususiyatlari, birinchidan, millatning asl tabiatini, o'ziga xos tiynatini mujassam etishi bilan izohlansa, ikkinchidan, umumbashariy ahamiyatga ega ekani jihatidan ahamiyatlidir.

5. Erkin Vohidov she'riyatidagi **Vatan** va **xalq** obrazlari tipik qiyofaga ega. Ularda, birinchidan, millatning surati va siyrati, orzu-umidlari hamda armonlari aks etsa, ikkinchidan, xalqi zamondan, taraqqiyotdan ortda qolayotgani bois shoir qalbida kechgan o'kinch va iztirob badiiy talqin etilgan. Jumladan, "Qulluq qil demasman. Yurt tuprog'in o'p..." satrlari bilan boshlangan she'rida shoir "Unga qullar emas, fidolar, Buyuk elga endi daholar kerak"ligini ta'kidlar ekan, "qul" va "qulluq" so'zлari orqali shoir o'z idealidagi o'zbek obrazini yaratadi. Xalqining ozod va ma'rifatli bo'lishi bilan bog'liq orzularini ifodalaydi. Millatining "bolasiga makka, mosh berib, doshqozonda yurtga osh berib, yeguvchimas, yediruvchi xalq" bo'lgani uchun ham "o'zbek bo'lish oson emas"ligini ta'kidlagan shoir o'zbek xarakterining xos kamu ko'stidan og'iz ochmaslik, do'stidan ko'ra hasadgo'yи, oshini yeb, ustidan kulguvchilar ko'pligi haqida yozar ekan, yuragini og'ir bir dard kemiradi, qalbini iztirob yaralaydi. Bu esa, shoirning xalq obrazi talqiniga differensial yondashganidan dalolat beradi.

6. O'zbek ruhiyati ifodasida Erkin Vohidov xalqona tilni mahorat bilan qo'llagan. Milliy ruhni vazn, til va shakl vositasida san'at darajasida ifodalagan. Shoir xalqona tildagi she'rlarni barmoqda va asosan xalq og'zaki ijodida keng qo'llanadigan 8 va 7 bo'g'linli shaklda, xalqchil tilda yozgan. Xalqonalik Erkin Vohidovning hajviy yo'ldagi asarlarida, ayniqsa, yorqinroq aks etgan. "Donishqishloq latifalar" turkumidagi she'rlar uning nafaqat jiddiy – sof lirk va teran falsafiy she'rlar muallifi, balki mohir hajvchi shoir ham ekanini namoyon qiladi. Ushbu turkum o'zbek hajviy she'riyati takomilida alohida o'rin tutishi jihatidan ham qimmatlidir.

7. Shoir ijodida milliy ruh folklorga xos mutoyiba, maqol, hikmat singari kichik janrlar kontekstida ham o'ziga xos talqin etilgani kuzatiladi. Ijodkor bunda kinoyadan mahorat bilan foydalanadi.

“Boshindadir” she’ri buning yorqin misolidir. She’rda “o‘g‘ilcha”ning “nay misol shim kiyib, sandiqdayin tuqli bilan” yurishi, “hurpayib turgan savatdek sochi”, “necha badfe'l bo‘lsa, bari ushbu beboshinda” jam ekani, farzandning shu holga tushishida asli ota o‘zi bosh aybdor ekanining tub ildizlari ochib beriladi. Ushbu umumlashma obraz orqali shoir insoniyatni tubsiz jarlikka qulatuvchi ham o‘z qo‘li bilan yetishtirgan “hosili umri” ekani, hech bir zamonda ahamiyatini zarracha yo‘qotmaydigan abadiy mavzu – tarbiya masalasi millat va umumbashariyat qarshisida ko‘ndalang turishi haqidagi hayot falsafasini milliy ruh uyg‘unligida suvratlantiradi.

8. Milliy ruh ifodasida Erkin Vohidov mumtoz ifoda usulidan san’atkorona foydalangani, birinchidan, poetik mazmunni didaktika asosiga qurishi, ikkinchidan, mumtoz poetik obrazga yangicha ma’no yuklash salohiyati, uchinchidan, fikrni badiiy san’atlar bilan ziynatlash mahorati kabi ijodiy tamoyillar orqali namoyon bo‘ladi.

9. Mumtoz adabiyotga xos oz so‘zga ko‘p va bir necha qatlam ma’no yuklash, fikrni badiiy san’atlar bilan ziynatlash, buyuk salaflari she’riyatidagi ijodiy tajribalardan mahorat bilan foydalanish Erkin Vohidov asarlarida milliy ruh va hayot falsafasi uyg‘un talqin etilishining asosidir. Shoir mumtoz adabiyotimiz namoyandalari ijodiga uch usulda murojaat etadi. Birinchisi, mumtoz shoirlar san’atxonasining sir-sinoati haqida tahliliy maqolalar yozgani, ikkinchi usul ular qo‘llagan obrazlarni zamonasiga xos yangi mazmun va yangicha talqinlar bilan boyita olgani, uchinchisi esa, Alisher Navoiy, Muhamanad Fuzuliy va boshqa buyuk salaflari g‘azallariga mahorat bilan muxammaslar bog‘lagani bilan izohlanadi.

Umumlashtirib aytganda, Erkin Vohidov teran poetik mazmun va rang-barang badiiy shakllar orqali, boshqa hech bir ijodkorni takrorlamaydigan inson, do’st, ota-onha va bola obrazlari vositasida millatning asl tabiatini va tiynatini, xalqimizning surati va siyratini ijodiy kashfiyat darajasida talqin eta bildi. Vatan va xalq obrazlari Erkin Vohidov she’riyatining leymotivini tashkil etgani bilan alohida ahamiyatga ega. Negaki, shoir Vatan va xalq obrazlarini nazmiy asarlarida o‘zigagina xos muhabbat va e’tiqod bilan tasvirladi, millatning dunyodagi mutaraqqiy xalqlar darajasiga yuksalishini orzu qildi, ijodiy salohiyatini shu yo‘lga safarbar etdi. Milliy ruhni xalqona til va mumtoz poetik ifoda usuli orqali san’atkorona talqin etgani shoir asarlarining nechog‘liq katta ijodiy zahmat va mehnat bilan yuzaga kelganini tasdiqlashdan tashqari badiiyati yuksak ekani jihatidan millat adabiy-estetik tasakkuri rivojiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘ldi, degan xulosaga kelish mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. Мирзиёев Ш.М. “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришининг мустаҳкам пойдворидир” мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари билан учрашуудаги маърузаси // Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.
2. Мирзиёев Ш.М. Одамлар яхши яшаши учун зарур шароитлар яратиш – барча раҳбарларнинг асосий вазифасидир. //Халқ сўзи, 2017 йил 28 февраль.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тарақкиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил 20 сентябрь.

### II. Milliy-nazariy adabiyotlar

#### 1) Milliy nashrlar

1. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.
2. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.
3. Адабий тур ва жанрлар. – Тошкент: Фан, 1991.
4. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 304 б.
5. Жабборов Н. Маопий ахлийнинг сохибкорони. – Тошкент: Адабиёт, 2021. – 304 б.
6. Йўлдош Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 546 б.
7. Йўлдош Қ. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 306 б.
8. Йўлдош Қ. Сўз ёлкини. – Тошкент: Faafur Fулом НМИУ, 2018. – 504 б.
9. Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Faafur Fулом НМИУ, 2016. – 364 б.
10. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б. ва бошқ. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – 544 б.

11. Каримов Н. Гўзалликнинг олмос кирралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – 40 б.
12. Муллахўжаева Р. Тафаккур янгиланиши. – Тошкент: Мухаррир, 2019. – 160 б.
13. Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърият. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 44 б.
14. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик: Илмий-адабий маколалар, талқинлар, этюдлар. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 336 б.
15. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 190 б.
16. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. – 260 б.
17. Раҳимов А. Миллий адабиётлар равнаки. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1981. –
18. Ризаев Ш. Изтироб санъати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 251 б.
19. Саримсоков Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – 128 б.
20. Сатторова Г. Миллий характер ва бадиий талқин. – Тошкент: Фан, 2007. –
21. Солижонов Й. Адабиёт хиёбони. – Фарғона, 2020. – 324 б.
22. Солижонов Й. Ҳакикатпинг синчков кўзлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 226 б.
23. Солижонов Й., Мўминов С. Эркин ўғлингман, Ватан!.. – Фарғона, 2016. – 40 б.
24. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 406 б.
25. Сўз сехри. Эркин Воҳидов хаёти ва ижодига чизгилар // Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – 136 б.
26. То қўёш сочгайки нур [Матн]: Эркин Воҳидов: хаёти ва ижоди замондошлари нигоҳида // Нашрга тайёрловчи ва масъул мухаррир И.Гафуров; тўпловчилар: Р.Мирзоҳид, Т.Мирзаев. – Тошкент: O'zbekiston NMIU, 2016. – 512 б.
27. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 450 б.

28. Умурев Х. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Халқ мероси, 2004. – 256 б.
- 29.Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: УАЖБНТ маркази, 2003. – 361 б.
- 30.Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 525 б.
- 31.Шарафиддинов О. Ижодни англаш баҳти. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2004. – 640 б.
- 32.Шарафиддинов О. Оламнинг қалби. – Тошкент: Маънавият, 2014. – 220 б.
- 33.Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. – 576 б.
- 34.Шукуров Н. Услублар ва жанрлар.– Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 170 б.
- 35.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 224 b.
- 36.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Noshir, 2019. – 336 b.
- 37.Қурунов Д. Мутолаа ва идрок машқлари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 336 б.
- 38.Қурунов Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 128 б.
- 39.Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 712 б.
- 40.Қўшжонов М. Онажоним шеърият. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – б.
- 41.Ғаниев И., Афокова Н. Озод рух фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2006.–
- 42.Ғафуров И. Мангу латофат: бадиалар, рисолалар: 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 464 б.
- 43.Ҳамидова М. Ҳозирги ўзбек адабиётида миллий қаҳрамон муаммоси. – Тошкент, 1993. – 76 б.
- 44.Ҳожиева Ш. Чўлпон ва миллий шеъриятнинг янгиланиши. – Тошкент: Muҳarrir, 2019. – 152 б.
- 45.Ҳошимова М. Куй авжида узилмасин тор (Эркин Воҳидов хаёти ва ижодига чизгилар). – Тошкент: Фан, 2006.

## **2) Xorijiy nashrlar**

46. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет. – Москва: Художественная литература, 1975. – 502 с.
47. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. – Ленинград: Просвещение, 1972. – 274 с.
48. Певак Е.А. Нравственность и эстетика, творческая свобода, нравственный тоталитаризм, современная русская литература. – Москва: Ломоносов, 2021.–С. 514.
49. Певак Е.А. Русская литература первой половины XX века: (Горький М, Бунин И, Блок А, Есенин С, Маяковский В, Ахматова А, Пастернак Б.). –Москва: УМЦ ДО, 2004. – С. 450.
50. Хализев В.Е. Теория литературы – Москва: Высшая школа, 1999. – 398 с.

## **III. Diniy manbalar, adabiyotlar**

51. Ислом энциклопедияси. I-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон ислом академияси нашриёти, 2020. – 492 б.

## **IV. Lug‘atlar**

52. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 400 б.
53. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли лугати. – Тошкент, 1979. – 364 б.

## **V. Badiiy adabiyotlar:**

54. Навоий А. Ҳайрат-ул аброр. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – 262 б.
55. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-жилд: Бадойиъ ул-бидоя. – Тошкент: Фан, 1987. – 689 б.
56. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 7-жилд: Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент: Фан, 1991. – 422 б.
57. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 16-жилд: Мухокамат ул-лугатайн. Мезон ул-авзон. Тарихи анбиё ва ҳукамо. Тарихи мулуки ажам. Арбаин. Сирож ул-муслимин. Муножот. Рисолаи тийр андохтан. – Тошкент: Фан, 2000. – 329 б.
58. Воҳидов Э. Табассум: шеърий мутобиба, лутғу латифалар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 284 б.
59. Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: O‘zbekiston НМИУ, 2014. – 152 б.
60. Воҳидов Э. Таъланган асарлар. – Тошкент: Sharq НМАК, 2016. – 694 б.

61. Вохидов Э. Тўла асарлар тўплами. 1-жилд: Баҳор таровати: шеърлар, таржималар, достонлар. Олтин дсвор: комедия. – Тошкент: Sharq, 2015. – 432 б.
62. Вохидов Э. Тўла асарлар тўплами. 2-жилд: Ёз ҳарорати: шеърлар, достон, фожейй комедия, таржима. Масъул мухаррир: Н.Жўраев. – Тошкент: Sharq, 2015. – 416 б.
63. Вохидов Э. Тўла асарлар тўплами. 3-жилд: Куз саҳовати: Шеърлар, ҳажвий асарлар ва шеърий драма. Нашрга тайёрловчи: М.Кенжабек. – Тошкент: Sharq, 2016. – 344 б.
64. Вохидов Э. Тўла асарлар тўплами. 4-жилд: Қиши ҳаловати: шеърлар, драма, адабий мақолалар. Масъул мухаррир: Н.Жўраев. – Тошкент: Sharq, 2016. – 416 б.
65. Вохидов Э. Тўла асарлар тўплами. 5-жилд: Қалб садоқати: мақолалар, баҳслар, адабий ўйлар. Масъул мухаррир: Н.Жўрасв. – Тошкент: Sharq, 2018. – 384 б.
66. Вохидова Г. Қалбим ардоғи. – Тошкент, Mashhur press, 2020. – 160 б.
67. Иноғомов Р. Шоир бўлиш осонмас. – Тошкент: Faфур Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – 72 б.
68. Сайд Аҳмад. Танланган асарлар: З жилдлик. З-жилд. Хотиралар адабий ўйлар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 335 б.
69. Ҳошимов Ӯ. Дафттар ҳошиясидаги битиклар. – Тошкент: Шарқ, 2011. – 336 б.

#### **VI. Dissertatsiyalar va avtoreferatlar:**

70. Абдулҳакимова О. Абдулла Орипов адабий-эстетик қарашлари: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2022.
71. Акрамов Б. Проблема поэтического образа в современной узбекской лирике (60-е-80-е годы): автореферат дисс... докт. филол. наук. – Тошкент, 1991.
72. Ахмедов Ҳ. Ўзбек адабиётида насрый шеър: филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 1995. – 135 б.
73. Давлатова А. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси: фил. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 28 б.
74. Дониярова Ш. Истиклол даври романларида миллий рух ва каҳрамон муаммоси: фил. фан. д-ри... дисс... авторсф. – Тошкент, 2012. – 257 б.

- 75.Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадий нуткнинг роли: фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – 135 б.
- 76.Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеъриятида поэтик мазмун ва шаклий изланишлар: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. – 121 б.
- 77.Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нуткида антитета (Э.Вохидов шеърияти мисолида): фил. фан. номз.... дисс.. авторсф. – Тошкент, 2000. – 26 б.
- 78.Максумова С. Эркин Вохидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: фил. фан. номз.... дисс. –Тошкент, 2012. – 150 б.
- 79.Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талқин этиш тамойиллари ва маҳорат муаммолари: фил. фан. д-ри... дисс... автореф. – Тошкент, 1996. – 283 б.
- 80.Рахимов А. Соотношение национального и интернационального в современной узбекской литературе (Проблемы характера и поэтики): автореферат дисс... канд. наук. – Москва: Изд-во Московского университета, 1972.
- 81.Сатторова Г. 90 йиллар ҳикоячилигига миллий характер муаммоси: фил. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2002. – 135 б.
- 82.Тўлаков И. Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талкини: фил. фан. докт... дисс. – Топкент, 1994. – 293 б.
- 83.Фазылова Ф.С. Нравственно-этические проблемы в башкирской поэзии 70-80-х годов XX века: автореф. дисс... канд. фил. наук: – Уфа, 2013. – С.21.
- 84.Холикова Д. Ҳозирги ўзбек шеъриятида фольклор анъаналари ва бадий маҳорат: фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – 148 б.
- 85.Хўжамбердиева Ш. Таълим босқичларида Эркин Вохидов ижоди ва ҳаётини ўқитиш усуллари: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2019. – 163 б.
- 86.Хуако С.Л. Нравственно-этическая проблематика и художественные искания адъигейской прозы 60-70-х и.в.о второй половине XX века: автореферат. дисс. канд. филол. наук. – Майкоп: 1996. – С. 19.
- 87.Эрназарова Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадий талкини (Чўлпон, F.Фулом, А.Орипов шеърияти мисолида): фил. фан. номз.... дисс... автореф. – Тошкент, 2001. – 30 б.

88. Ўсарова Л. Абдулла Орипов шеъриятида миллий рух ифодаси: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2020.
89. Каюмов А. Ҳозирги ўзбек насрода миллий характер ва бадиий маҳорат: фил. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. – 160 б.
90. Қосимов Я. Ўзбек шеъриятида поэтик фикринг янгиланиш жараёни: фил.фан.номз... дисс. – Тошкент, 1993. – 154 б.
91. Курбонбоев И. 90-йиллар ўзбек шеъриятида образлилик: фил. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2005. – 133 б.
92. Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърияти бадиий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: фил. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. – 260 б.
93. Ҳамдамова С. Фольклор анъаналари ва бадиий талқин: таъсир ҳамда акс таъсир масалалари (XVIII-XIX аср шеърияти мисолида): фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 147 б.

#### **VII. Ўниy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar**

94. Бозорова Н. Алишер Навоий ижодида кўнгил тимсоли. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – №2. – Б. 25.
95. “Бу обод кунларга етдик соғ-омон...” (Эркин Вохидов ва Шухрат Муҳиддин сұхбати) // Тафаккур. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 3-11.
96. Вохидов Э. Шоир ва шеър дунёси. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1983 йил 16 декабрь.
97. Вохидов Э. Алишер Навоий – иккинчи минг йиллик даҳоси. // Тафаккур. – Тошкент, 2001. – №1. – Б. 66-67.
98. Вохидов Э. Озодлик кайғуси. // Тафаккур. – Тошкент, 2008. – №1. – Б. 48-49.
99. Дадабоева Т. “Нидо” достонида қаҳрамон руҳияти орқали давр муҳитининг ифодаланиши. // Эркин Воҳидовнинг сўз қўллаш маҳорати. (Конференция тўплами). – Гулистан, 2020. – Б.88-92.
100. Жабборов Н. Шеърият – рух озодлиги // Мустақиллик даври адабиёти. – Тошкент: Faфур Ғулом НМИУ, 2006.
101. Жабборов Н. Миллий руҳнинг бетакрор ифодаси // “Эркин Вохидов ижодининг маънавий ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамияти” мавзуудаги Республика илмий анжумани материаллари. – Тошкент, 2017. – Б. 71.
102. Жабборов Н. “Ўткан кунлар”да миллий рух ифодаси. // Филология масалалари. – Тошкент, 2020. – №2.

103. Жабборов Н. Киноя ва рамзлар замиридаги ҳақиқат. // Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. III китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014.
104. Жабборов Н. Гўзал ташбих, сирли рух. // Озод Ватан саодати: Беш жилдли, 5-жилд. – Тошкент: Адиб, 2013.
105. Каримов Б. Адабий фикр жавҳари. // То қўёш сочгайки нур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
106. Назархон Ш. Эркин Воҳидов достонларида фольклор оҳанглари. // То қўёш сочгайки нур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б.271.
107. Обиджон А. Кулгу – очиққўнгиллик гувоҳномаси. // Эркин Воҳидов. Табассум. – Тошкент: Алишер Навоий иомилаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. – Б. 3-8.
108. Обиджонов А. Халққа керак бўлиш бахти. // То қўёш сочгайки нур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б.
109. Орипов А. Катта ҳақиқатлар тантанаси. // Танланган асарлар. Бешичи жилд. – Тошкент: Адолат, 2005. –178 б.
110. Расулов А. Шеър қолтур, шоир қолур...// Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.255.
111. Раҳимжонов Н. Эркин Воҳидовнинг адабий-эстетик қарашларига доир. // То қўёш сочгайки нур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
112. Сабирдинов А. Эркин Воҳидов шеърларида даврнинг долзарб муаммолари талқини. // Республика онлайн илмий амалий конференция материаллари. – Гулистон, 2020 йил. – Б. 22.
113. Солижонов Й. Руҳиятни ёритган шеърият. // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2013. – №2. – Б. 154-159.
114. Мели С. Ҳангома зимнида панднома. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. – №3.
115. Файзуллоҳ В. Азалий ҳикматни излаб...// Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2016. – №2, – Б. 159-170.
- 116.Faфуров И. Юлдуз шуъласи. // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2016. – №12. – Б. 14-20.
117. Faфуров И. Биз Эркин Воҳидов ижодини нега севамиз. // Инесон ўзинг. –Тошкент: Ўзбекистон, 2022.
118. Faфуров И. Донишманд шоир. // Инесон ўзинг. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022.

## **VI. Internet saytlari:**

- 119.<http://dic.academic.ru>
- 120.<https://www.worldcat.org/wcidentities/lccn-n85116178>
- 121.<http://feb-web.ru>
- 122.<http://files.school-collection.edu.ru>
- 123.<http://natlib.uz>
- 124.<http://slovar.lib.ru>
- 125.<http://www.traktat.com>
- 126.<http://ru.wikipedia.org>
- 127.<http://ziyonet.uz>
- 128.<https://www.williamshakespeare.net/hamlet.jsp>
- 129.<https://www.w3.org/People/maxf/XSLideMaker/hamlet.pdf>
- 130.[www.theatre-library.ru/files/sl/shakespeare/shakespcare\\_20.html](http://www.theatre-library.ru/files/sl/shakespeare/shakespcare_20.html)
- 131.[https://studbooks.net/.../russkie\\_perevody\\_gamleta\\_sposoby\\_adapta\\_tsiistar](https://studbooks.net/.../russkie_perevody_gamleta_sposoby_adapta_tsiistar)
- 132.[https://studbooks.net/772351/literatura/russkie\\_perevody\\_gamleta](https://studbooks.net/772351/literatura/russkie_perevody_gamleta)
- 133.<https://www.britannica.com/biography/James-Joyce>


## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. Poetik mazmun va shaklning milliy ruh talqinidagi o'rni.....</b>	<b>6</b>
1.1. Poetik mazmun va milliy ruh ifodasi munosabati.....	6
1.2. Milliy ruh talqinida poetik shaklning vazifasi.....	26
<b>II BOB. Milliy ruhning obraz vositasida ifodalanishi</b>	<b>35</b>
2.1. Ijodkor lirikasidagi milliy ruhni ifodalagan yetakchi obrazlar.....	35
2.2. Milliy ruhning Vatan va xalq obrazlarida aks etishi.....	47
<b>III BOB. Milliy ruh talqinida xalq tili va mumtoz poetik ifodaning estetik vazifasi.....</b>	<b>61</b>
3.1. O'zbek ruhiyati ifodasida xalq tilining ahamiyati.....	61
3.2. Shoirning milliy ruh suvratlanishida mumtoz ifoda usulidan foydalanan mahorati.....	76
<b>XULOSA.....</b>	<b>97</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>100</b>

Halima Yo'ldosheva

ERKIN VOHIDOV  
SHE'RIYATIDA  
MILLIY RUH IFODASI

Texnik muharrir: R.Ahmedov  
Sahifalovchi: Sh.Turdibekova



---

Bosishga ruxsat etildi: 2023-yil. Nashriyot bosma tabog'i - 6,875.

Shartli bosma tabog'i – 3,4375. Bichimi 84x108 1/16

Times New Roman

Adadi:100.

«Poligraf supper servis» MCHJ

Manzil: 150114, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri,

Aviasonzalar ko'chasi 2-uy

«ClassiC»  
nashriyoti



A standard linear barcode is positioned vertically. Below the barcode, the number "9 789943 273832" is printed.

9 789943 273832